


NODIRA ALIMDJANOVA

MUSIQA ADABIYOTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

NODIRA ALIMDJANOVA

MUSIQA ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

5151300- Xoreografiya (turlari bo'yicha)

TOSHKENT – 2020
"NAVRO'Z" NASHRIYOTI

UO'K: 795.24.12

K-30

КБК 81.(Ў36)4

Nodira Alimdjanova // MUSIQA ADABIYOTI

o'quv qo'llanma. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2020. 120 bet.

Mas'ul muxarrir:

G'OFUROV M.K. - O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, dotsent

Taqrizchilar:

KASIMOV N.K. – O'zDXA “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası professori

MIRSOLIHOVA X.M. – O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Iqtidorli bolalar litseyi bo'lim boshlig'i

O'quv qo'llanmada musiqiy ijod rivoji masalalari, G'arbiy Yevropa kompozitorlarining hayoti va ijodiy faoliyati, yetakchi musiqiy janrlarning paydo bo'lish jarayonlari ko'rib chiqilgan.

O'quv qo'llanma birinchi o'rinda san'at va musiqa maktablarining o'quvchilari uchun, shu bilan birga o'tgan davrning buyuk kompozitorlari hayoti va ijodi bilan qiziquvchi keng o'quvchi uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 14 avgustdagi №418-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-602-41-0

© Nodira Alimdjanova
© «Navro'z» nashriyoti, 2020

SO‘Z BOSHI

Ushbu o‘quv qo‘llanma san‘at va musiqa maktablari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, musiqa adabiyoti kursi ularda mumtoz musiqaga qiziqish uyg‘otishi, musiqa tinglash va uni tushunishga qaratilgan.

Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar musiqa madaniyati rivoji, mashhur kompozitorlarning ijodi va musiqa asarlari bilan tanishadilar. O‘quv qo‘llanma bolalar musiqa va san‘at maktablari uchun mo‘ljallangani bois, mantlar mazmuni va bayon uslubi bolalar hamda o‘smirlar uchun tushunarli tilda bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma G‘arbiy Yevropa musiqasi tarixini alohida o‘rganish tamoyili bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda eng mashhur kompozitorlarning ijodi keltirilgan. Qo‘llanma buyuk kompozitorlarning hayoti va ijodi, ular yashagan va ijod qilgan davr haqida ham keng ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etgan. Adabiyotda buyuk kompozitorlar hayotiga oid eng qiziqarli hamda kam ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar keng o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanmada har bir bo‘limdan keyin nazorat savollari keltirilgan. Savollarning xarakteri o‘quvchilarning musiqiy tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi va har bir savol aniq javobni nazarda tutadi. Nazorat savollarining kiritilishi o‘quvchilar bilan ko‘proq savol-javob o‘tkazishga imkon beradi.

Qo‘llanmaga maxsus tahlilni talab qiluvchi musiqiy misol va namunalar kiritilmadi. Fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi esa o‘quvchilarni o‘rganilayotgan material bilan qiziqtirishdan iboratdir.

“Musiqqa adabiyoti” fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash va ularni idrok yetish qobiliyatini hosil qilish maqsad qilinadi. Fanni o‘rganish o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiladi.

“Musiqqa adabiyoti” fani dars jarayonida quyidagi vazifalarni maqsad qiladi:

- o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash va ularni idrok etish qobiliyatini hosil qilish;

- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish;

- musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish.

Musiq­a san'at turi sifatida

Inson faoliyatining mahsuli bo'lmish san'atning mazmuni bizni o'rab turgan tabiat va hayotiy haqiqatning ifodasidir. San'at turlari inson fikri va his-tuyg'ularini ifoda etishga xizmat qiladi. Musiq­a eng murakkab san'at turlaridan hisoblanib, inson hayotida katta o'rin tutadi.

Musiq­a san'ati boshqa san'at turlaridan tubdan farq qiladi, u insonning hayotot dunyosiga ta'sir etadi va ongimizda turli obrazlar, fikrlar hamda tuyg'ularni uyg'otadi. Inson musiqani eshitish orqali qabul qiladi. Shu bois har bir musiq­a asari kishilarda turlicha tasavvurni hosil qiladi.

Musiq­a asarlari kompozitorning shaxsiy dunyoqarashi, psixologiyasi, xarakteri va shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir musiqiy asar takrorlanmas individuallikka egadir. Shu bilan birga kompozitorning yaratgan asarlari shu millat madaniyati, milliy an'analari va tarixiy davr bilan bog'liq bo'ladi.

Har bir san'at turining rivoji ma'lum tamoyil, shakl va ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Musiq­a san'atining ifoda vositasi tovush va kuy yo'nalishi hisoblanadi. Kuy musiqada asosiy mezon bo'lib, kompozitorning ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Kuyning go'zalligi va ifoda kuchi garmoniya vositasida yanada kuchayadi va yorqinlashadi. Musiqaning yana bir muhim tarkibiy qismi ritmdir. Ritm musiqaga yanada ko'proq ifoda, aniqlik hamda husn beradi.

Musiqiy asarning mazmuni kuy, garmoniya va ritm bilan bir qatorda turli shakl va janrlar bilan ham ajralib turadi. Musiq­a san'atining ko'p asrlik rivoji jarayonida turli janr va shakllar hosil bo'lgan. Janrlar rivojida asosni qo'shiq va raqs tashkil etgan. Ular keyinchalik turli-tuman vokal, cholg'u, simfonik, kamer va sahna janrlarining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi uchun zamin bo'lgan.

Musiq­a san'ati ikkita qismga: xalq musiqasi va professional musiqaga ajraladi. Xalq musiqasi birlamchi bo'lib, professional musiq­a uning zaminida rivojlanadi. Kompozitorlar xalq musiqasi asosida yangi, original asarlar yaratadilar. Xalq musiqasida millatning, xalqning turmush tarzi, urf-odati yorqin, jonli tarzda o'z

aksini topadi. Xalq musiqasi asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib, o'zgarib, rivojlanib va sayqallashib boradi hamda kelgusi avlodlarga yetib keladi.

Har bir xalqning bebaho kuy, qo'shiq, ashulalari, ya'ni xalq musiqasi mavjud. Ko'p asrli taraqqiyot yo'lini kechgan xalq musiqasi har bir inson qalbida muhim o'rin egallab, milliy ma'naviy qadriyatning qimmatli bo'lagi hisoblanadi. Musiqa san'ati inson paydo bo'lgan davrdan boshlab uning hayot yo'ldoshi bo'lib kelmoqda.

Musiqa insonning his-tuyg'ularini ifoda etishga qaratilgani bois boshqa san'at turlaridan ko'ra ko'proq emotsional ta'sir kuchiga egadir. Musiqa san'ati – musiqiy cholg'u yoki inson ovozi orqali ijro etilgan tovushlarning tashkil etilgan va tartiblangan san'atidir. Musiqani idrok etish uchun inson o'zining tafakkuri, dunyoqarashi va iqtidoridan foydalanadi. Musiqa san'at turlari ichida muhim o'rin egallab, opera, balet, teatr kabi boshqa san'at turlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqa faqat tinglash orqali hamda insonning his-tuyg'ulari vositasida qabul qilinishi bois, boshqa san'at turlaridan murakkabroqdir.

Musiqaning mazmuni spetsifik musiqiy obrazlarda xaqiqiy borliqning aks ettirilishidir. Musiqa va boshqa san'at turlari insonning nafaqat emotsional, balki butun ma'naviy hayotini aks ettirib, g'oyaviy, estetik bilim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, musiqa idroki va musiqa savodi faoliyatlari o'zaro uzviy bog'lanib, boshqa barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchilik qiladi.

“Musiqa adabiyoti” fani mazmuni kompozitorlar ijodini o'rganish, musiqa tinglash orqali uni to'g'ri idrok etish, asar xarakteri, mazmuni, ifoda vositalarini badiiy va nazariy tahlil qilish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarni musiqa olamiga olib kirish uchun musiqa san'atiga qiziqishini kuchaytirish, musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ularda musiqiy tafakkur, musiqiy did va musiqiy dunyoqarashni shakllantirish kerak. “Musiqa adabiyoti” mashg'ulotlarida xolos musiqiy bilim va malakalarni o'zlashtirishgina emas, balki o'quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish ham nazarda tutilishi kerak.

O'quvchilar asarning muallifi, asarning tempi, xarakteri, kayfiyatini aniqlash malakalariga ham ega bo'lishlari lozim. Mana shu jarayonda musiqiy-nazariy bilimlar muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yiladigan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassis sifatida avvalo o'zligini, o'z qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini bilgan holda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat olib borishdir.

Musiqqa san'atida ifoda vositalarining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqil respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilib, ularni xalqimiz madaniyati, san'ati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga muhabbat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va intellektual salohiyatli shaxslar sifatida shakllantirish ustivor vazifadir. Zero, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, ahloqiy, estetik madaniyati barqaror shakllangan shaxsni tarbiyalash shu kunning talabidir.

Insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va madaniy kamolotining shakllanishida musiqqa boshqa san'at turlari ichida o'zining ta'sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa insonning his-tuyg'ulari olamidagi barcha nozik hissiyotlarni aks eta oladi, eng murakkab tuyg'ular, nozik kechinmalar va turli kayfiyat holatlarini ta'riflay oladi. Musiqqa ruhiy holat xususiyatlarini ifodalash bilan insonni qurshab turgan atrof-muhit va tabiatni, xalq milliy ruhini o'zida aks ettira oladi. Shu sababli, buyuk kompozitorlar ijodida milliy kuy koloritini, shu xalqqa xos bo'lgan xususiyatlarni anglab olish mumkin.

Musiqqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqotiga yordam beruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ammo musiqqa faqat tinglash orqali qabul qilinadi hamda insonning his-tuyg'ulari orqali unga ta'sir etadi. Shu sababli u boshqa san'at turlaridan murakkabroq bo'lib, musiqaning tilini yaxshi tushunish uchun uning eng muhim ifoda vositalarini bilish zarurdir.

Musiqaning mazmuni spetsifik musiqiy obrazlarda haqiqiy borliqning aks ettirilishidir. Badiiy-obrazli tafakkur, unga mos bo'lgan badiiy mazmun barcha san'at turlari spetsifikasini yaratadi. Badiiy, xususan, musiqiy obrazlar ijodiy ongda borliqni idrok etish natijasida paydo bo'ladi. Musiqa va boshqa san'at turlari insonning nafaqat emotsional, balki butun ma'naviy hayotini aks ettirib, g'oyaviy, estetik bilim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Musiqa ta'limi o'zining tashkiliy, uslubiy tuzilish xususiyati bilan boshqa fanlar mashg'ulotlaridan farq qiladi. Musiqa san'ati o'zaro bir-biriga bog'liq, bir-birini davom ettiruvchi va to'ldiruvchi bir nechta fanlar: musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqa tarixi, musiqa asarlar tahlili orqali o'zlashtiriladi. Bu fanlar turli mazmunda bo'lsa-da, ularning barchasi o'quvchilarda musiqa madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, musiqa tinglash faoliyati o'quvchilarga asarlar tuzilishi, uning janri, g'oyaviy-badiiy mazmuni, xarakteri, ijrochilik usullari, milliy yoki chet el musiqasiga oidligi va hokazolara haqida umummusiqiy - nazariy bilimlarni egallashga yordam beradi.

Musiqa shaklini vujudga keltirishda o'zaro aloqada bo'lgan kuy, garmoniya va ritm musiqaning boshqa ifoda vositalari orasida asosiy ahamiyatga egadir. K u y, ya'ni bir ovoz bilan ifoda etilgan musiqaviy fikr musiqaning eng muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Kuyda u yoki bu fikrning xarakterli belgilari odatda hammadan ko'ra ravshanroq namoyon bo'ladi.

O'quvchilar musiqa tinglash jarayonida asarlarni nazariy va amaliy ijrochilik nuqtai-nazaridan tahlil qilish, ularga tavsif berish, baholay olish malakalarini shakllantiradilar. Bu jarayon o'quvchilarda amaliy hamda nazariy savodxonlik, bilim va malakalarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Ushbu bilimlar "Musiqa nazariyasi" fanida o'rganilib, musiqaning elementlari, ifoda vositalari va boshqalar haqida nazariy ma'lumotlarni beradi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, musiqa idroki va musiqa savodi faoliyatlari o'zaro uzviy bog'lanib, boshqa barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchilik qiladi.

Musiqa bayoni va ifoda etish vositalari musiqa elementlari deyiladi. Musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi ta'lim musiqa va

uning nazariyasiga oid fanlarda bayon qilingan; bularning boshlang'ich qismi musiqaning elementar nazariyasidir.

Musiqaning asosiy ifodaviy vositalari xarakteristikasiga lad, garmoniya, ritm, kuy, temp, registr, tembr kiradi. Musiqaning barcha ifodaviy vositalari o'zaro bog'liq bo'lib, musiqada badiiy obraz yaratishda musiqa ifodaviy vositalarining ahamiyati nihoyatda kattadir.

“Tovush” so'zi ikki xil tushunchani bildiradi: birinchisi — fizik holatdagi tovush; ikkinchisi— sezgi holatdagi tovush.

Biror egiluvchan jism, masalan, cholg'u asbobi torining tebranishi (vibratsiyasi) natijasida havoda uzunasiga taralgan to'lqinsimon tebranishlar hosil bo'ladi. Bu xildagi tebranishlar tovush to'lqini deb ataladi. Ular tovush manbaidan har tomonga gir aylana (sharsimon) tarqaladilar.

Tovush to'lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta'sir etadi va nerv tizimi orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini qo'zg'atadi.

Biz juda ko'p xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin, hamma tovushlar ham musiqada qo'llanilmaydi. Qulog'imiz **musiqaviy** tovushlar bilan **shovqinli** tovushlarni bir-biridan ajratadi. Shovqinli tovushlar aniq balandlikka ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanilmaydi.

Musiqaviy tovushning uch xil fizik xususiyati bor. Ular **balandlik**, **qattqlik** va **tembrdan** iborat.

Shu bilan birga, musiqada tovushning **cho'zimi** ham katta ahamiyatga egadir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o'zgarmaydi, lekin musiqa nuqtai-nazaridan tovushning cho'zimi uning asosiy xossalardan hisoblanadigan yana bir xususiyati bo'lib, u muhim ahamiyatga egadir. Endi musiqaviy tovushning har bir xususiyatini alohida ko'rib chiqamiz.

Tovushning **balandligi** tebranayotgan jismning tebranish tezligi (chastotasi)ga bog'liqdir. Tebranish qanchalik tez bo'lib tursa, tovush shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi.

Tovushning **qattiqligi** tebranish harakatining kuchiga, ya'ni tovush manbai bo'lgan jismining tebranish kengligiga bog'liqdir. Tebranish harakatlari bo'lib turadigan fazo doirasi **t e b r a n i s h** amplitudasi (kengligi) deb ataladi. Tebranish amplitudasi qancha katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha.

Tembr deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan tovush deyiladi.


Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblarida eshitiladigan ma'lum bir balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladilar. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks sadolarga) bog'liqdir.

Tovush **cho'zimi** tovush manbai tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi.

CHET EL MUSIQA ADABIYOTI

Iogann Sebastyan Bax

(1685-1750)



Iogann Sebastyan Bax 1685 - yilda Germaniyaning Eyzenax shaharchasida musiqachi sozanda oilasida tug'ildi. Germaniyaning turli shaharlarida yashagan Baxlar oilasining barchasi musiqachilar edi. Iogann Sebastyaning otasi Erfurtda yashagan va shahar musiqachisi lavozimini egallagan.

Baxlar sulolasining hammasi qat'iy protestantlar bo'lganlar, chuqur va sofdil dindorlik oilaning ma'naviy asosini tashkil etgan.

Iogann Sebastyanini musiqachilik kasbiga eng yoshlik davridan tayyorlaganlar. U boshlang'ich musiqiy savodni otasi Amvrosiy Baxdan o'rgangan. Iogann 9 yoshida yetim qolgach, uning musiqiy tarbiyasi bilan katta akasi Iogann Xristofor shug'ullangan va ukasiga skripka, klavesin, organ cholg'ularida chalishni hamda cherkov xorida kuylashni o'rgatgan. Yosh Bax bu mashg'ulotlar bilan cheklanmay, kechalari turli asarlarning notalarini ko'chirib, foydalanish va o'rganish uchun o'ziga kichik kutubxona tayyorlagan.

XVIII asr oxirigacha Germaniyada musiqachi-kompozitor o'z faoliyatini namoyon etishi uchun ikkita joy: saroy va cherkov bo'lib, hamma uchun kirish mumkin bo'lgan konsert chiqishlari va teatr tomoshalari shahar maishiy hayotiga endi kirib kelayotgan edi. Shu sababli Germaniyada protestant cherkovi musiqa san'atining markazi, cherkov organchisi esa – uning ahamiyat kasb etgan namoyondachisi bo'lgan.

Iogann Sebastyan Bax dunyo musiqa madaniyatiga asosan cherkov musiqasining muallifi sifatida kirgan, u 50 yillik ijodiy faoliyatining atigi 5 yilini saroyda o'tkazgan.

Lyuneburgdagi bepul monastir maktabida uch yil ta'lim olgandan so'ng (1700-1703) o'n sakkiz yoshli Bax kelgusi kasbini aniqlab oldi.

Bax uchun "sayyorlik yillari" boshlanib, u 5 yil ichida Veymar, Arnshadt, Myulgauzen va yana Veymarda xizmatda bo'lgan. Ijodining ilk davridan Bax o'zini cherkovda badiiy yorqin musiqa tarafdori bo'lgan organchi-kompozitor sifatida namoyon etdi.

Baxning o'z vazifalariga ijodiy yondoshishi cherkov rahbarlari tomonidan tushunilmas edi: ularga o'z vazifalarini oddiy, bir maromda olib boruvchi organ ijrochisi kerak edi. Eng asosiysi – hech qanday orzu-hayollarga berilmaslik va shahardan ruxsatsiz chiqmaslik lozim edi.

Bax har yerda o'zining musiqiy bilimi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirar va eng sarasini ajratib olar edi. Mahoratga intilish hissi unda shunchalik kuchli ediki, 1705 yilning kuzida Bax buyuk kompozitor Ditrix Bukstexudening organ cholg'usida ijrosini tinglash uchun 350 kilometr yo'lni piyoda bosib o'tadi. Mohir ustaning ijrosini tinglagan Bax barcha uchun tanish bo'lgan organ asarini yaratadi - bu musiqiy barokkoning eng yorqin namunasi bo'lgan re minor Tokkata va fuga asaridir.

Baxning o'z xizmat vazifalariga g'oyat shijoat va fantaziya bilan yondoshishi cherkov rahbarlari bilan kelishmovchilikka sabab bo'lar edi. Organist Bukstexudening ijrosini tinglash uchun qilingan safardan kechikib kelgani bu kelishmovchilikka eng oxirgi nuqtani qo'yadi. Natijada xizmatdan ketishga to'g'ri kelib, Bax avval Myulgauzen, keyin esa Veymarga ko'chadi. Shu davrda Bax o'zining qarindoshi Mariya Barbara Baxga uylanadi.

Veymarda Baxlar oilasi 10 yilga yaqin yashagan. Veymar gersogi bilan o'rnatilgan do'stona munasabat genial musiqachi ijodining gullab-yashnashi uchun qulay sharoit yaratadi. Aynan shu yerda musiqachi uchun birinchi marta o'zini ham organchi, ham skripkachi va orkestr kapellasining klavirchisi, keyinchalik esa – kapelmeyster lavozimida sinash imkoniyati paydo bo'ladi.

Faoliyatiga ko'ra Bax turli shakl hamda janrlarda juda ko'p va tez ijod qilishi, turli ijro uslublari va imkoniyatlariga moslashishi kerak edi. Ijodining Veymar davrida Bax organ kompozitori sifatida eng yuksak cho'qqilarga erishadi.

Organ damli klavishli cholg'u bo'lib, o'zining ulkan hajmi hamda tembr va dinamik ifoda imkoniyatlarining boyligi bilan ajralib turadi. Qadimgrek cholg'usi bo'lgan "Pan fleytasi" – bir-biri bilan jips bog'langan turli uzunlikdagi qamish trubkchalardan iborat bo'lib, organga asos bo'lib xizmat qilgan cholg'u hisoblanadi. Har bir trubkacha faqat bitta tovush hosil qilar edi, lekin birgalikda ham istalgan kuyni chalish imkoni bo'lgan.

XI asrdan boshlab organlar Yevropadagi yirik shaharlarning cherkovlariga o'rnatilgan. Cholg'uning tuzilishi esa doimo takomillashib borgan. Organning mis trubkalari qalay trubkalar bilan almashtirildi hamda *pedal* – organchi uchun eng past registr tovushlarini hosil qilish imkonini beruvchi oyoq uchun bas klaviaturasi kashf etildi.

Qo'lda ijro uchun organning besh qator klaviaturasi bo'lib, ular *manuallar* deb atalgan. Organchi ularning har birida oldinma-ketin ijro etishi mumkin edi. Har bir manualning ovoz kengligi besh oktavagacha yetgan. Bundan tashqari organda registrni o'zgartiruvchi moslamalar mavjud bo'lib, cholg'uning tembrini o'zgartirish ham mumkin edi.

Organ cholg'usi fleyta, goboy, klarnet, skripka, truba, trombonlarning ovozini hosil qilishga qodir bo'lgan. Ba'zan organ tovushi xorni eslatar edi. Manualning har bir klavishasi bir xil balandlikdagi, ammo turli tembrdagi tovushni hosil qilgan o'nlab, ba'zan yuzlab trubkalar bilan ulangan. Bu tengi yo'q ifodaviy imkoniyatlari uchun organni haqli ravishda "cholg'ular qirol" deb ataydilar.

Cholg'uning tashqi ko'rinishiga katta e'tibor berilgan. Bizning kunlarga qadar organning tashqi qismida serhasham o'ymakor bezaklar saqlanib kelinmoqda.

Katolik va protestant cherkovida organ ibodatlarga jo'r bo'ladi. Bu cholg'uda ijro etish katta mahorat va jismoniy kuchni talab etadi.

Bax organ cholg'usi tuzilishini yaxshi bilgan usta sifatida ham mashhurlikka erishadi. Kompozitorni yangi o'rnatilgan yoki to'liq ta'mirlangan cholg'ularni tekshirish uchun ekspert sifatida tez-tez turli shaharlarga taklif etadilar.

Bax mahoratli organchi sifatida ushbu cholg'u uchun juda katta miqdorda turli asarlar yaratgan bo'lib, bu asarlar organ uchun avval yaratilgan barcha asarlardan ustun turadi. Kompozitor yaratgan asarlar 130 dan ortiq xoral preludiyalari, fantaziyalar, tokkatalar, fugalar, sonata, messalardan hamda boshqa kompozitorlar yaratgan asarlarining organ uchun qayta ishlangan variantlaridan iboratdir.

Bax organ uchun *xoral preludiyalarini* protestant xorallari asosida yaratgan. Protestant cherkovi katoliklikka qarshi chiqib, ibodatlarning musiqasini ham o'zgartirdi. Katolik ibodat asosini birovotli lotin tilidagi grigorian xorallari tashkil etgan bo'lsa, protestant ibodatlari yangi, protestant xorallari va nemis tiliga asoslangan edi.

Protestant xorallarining kuylari uchun maishiy hayotda keng tarqalgan xalq qo'shiqlaridan foydalanildi. Reformatsiya davrida ular xalq ommasini katolik mafkuraga qarshi kurashga ilhomlantirgan va birlashtirgan edi. Katolik gimnlardan farqli ravishda, protestant xorallari jamoa bo'lib, milliy nemis tilida ijro etilgan. Bax bu kuylarni qayta ishlash bilan ularni badiiy asar darajasiga ko'tardi.

Kompozitorning organ uchun yaratgan preludiyalarida lirik obrazlar ustunlik qiladi. Ushbu preludiyalar uchun sadolanishning kuchliligi, yorqin mahorat, dinamik va tembr chog'ishtirishlari xarakterlidir. Bu turkumda tokkata kirish qismi bo'lib, o'zaro bir-biriga kontrast bo'lgan musiqiy tuzilmalar ketma-ketligiga asoslangan nazokatli badiha hisoblanadi.

Baxning ajoyib kompozitsiyalari, ayniqsa, uning iqtidoriga hech kim teng kela olmaydigan organ ijrochisi va ajoyib badihachi sifatidagi betimsol ustaligi to'g'risida xabarlar asta-sekin butun Germaniya bo'ylab tarqala boshladi. Zamondoshlarining esdaliklariga ko'ra, Bax bitta mavzu asosida badihani ikki soat mobaynida davom ettirib, uni polifonik musiqaning turli va eng qiyin shakllarida rivojlantirishga qodir edi.

1717 - yili Bax Keten gersogining taklifini qabul qilib, kapelmeyster sifatida xizmatga keladi. Gersog o'z zamonasining ma'rifatli kishilaridan bo'lib, musiqaga ihlosmand edi. Ular o'rtasida juda yaxshi munosabatlar qaror topadi.

Bax gersog bilan butun Germaniya bo'ylab safarlarda yurgan va kompozitor sifatida sarmahsul faoliyat olib borgan. Ketenda Bax ko'p miqdorda dunyoviy musiqa yaratgan. Ular ichida orkestr uchun 6 ta katta Brandenburg konsertlari, 4 ta orkestr syuitalari bo'lib, Re major syuitasi haqli ravishda eng yuksak asar sifatida tan olinadi.

O'zaro kontrast va nisbatan mustaqil qismlarning ketma-ketligiga asoslangan musiqiy asar *Syuita* deyiladi. Syuitaning qismlari xarakteri, ritmi, tempi bilan farqlanadilar. Umumiy badiiy mazmun, musiqiy uslub, muallifning musiqiy uslubi va umumiy tonallik ularni yaxlit asar sifatida birlashtiradi.

Birinchi syuitalar Tiklanish davridayoq paydo bo'lib, ular og'ir tempdagi juft o'lchovli va tez tempdagi toq o'lchovli ikki raqsdan iborat bo'lgan. Bu raqslarga mahobatli *pavana* (2/4) va tez templi, sakramli *galyarda* (3/4) kirgan. Ba'zan bu juftlikka yanada harakatchan uchinchi raqs – *voltani* ham kiritganlar.

Qadimgi syuita avstriyalik kompozitor I.Froberger ijodida o'zining yakuniy ko'rinishiga ega bo'ldi. U syuitalar qismining qat'iy ketma-ketligini joriy etdi: o'rtacha sekin *allemandadan* so'ng (nemis raqsi, 4/4) tez *kuranta* (fransuz raqsi, 3/4) va sokin *sarabanda* (ispan raqsi, 3/4) kiritilgan.

Keyinchalik Froberger o'z syuitalarining geografiasini kengaytirdi va unga to'rtinchi raqs - *jigani* (ingliz raqsi, 3/8) kiritdi, bu raqs syuitada majburiy yakunlovchi qism sifatida qaror topdi. Syuitaning ushbu ko'rinishi tez orada butun Yevropa mamlakatlari bo'ylab tarqaldi.

Fransuz kompozitorlari syuitaga qo'shimcha qismlar sifatida *menuet*, *burre*, *gavot*, *rigodon* raqslarini kirita boshladilar. Kompozitor J.B. Lyulli esa syuitaga kirish qismi – *uvertyurani* kiritdi. Bu kabi syuitalar raqs uchun emas, balki klavesinda chalib, hordiq chiqarish uchun yaratilgan bo'lib, shu tariqa syuita raqs musiqadan tinglash uchun musiqaga aylandi.

Bax yaratgan syuitalarining musiqasi (6 ta Ingliz, 6 ta Fransuz, 6 ta Partita, 4 ta orkestr syuitasi) maishiy raqs bilan bog'liqlikdan to'la-to'kis ajralib chiqadi. Kompozitor bu raqslar uchun tipik bo'lgan ritmik tuzilmalar va tuzilishning umumiy tamoyillarini saqlab qoldi, uning syuitalari preludiyalar bilan boshlanar edi.

Bax *klavir musiqasining* asosiy qismini Keten shahrida yaratdi. U Yevropalik kompozitorlar ichida birinchilardan bo'lib ushbu cholg'uning universalligini tushundi. Avvallari klavir (klavesin) xolos jo'rlik va uy havaskorlik ijrochiligida ishlatib kelingan edi. Bax esa uni katta his-tuyg'ular va jiddiy fikrlarni aks ettiruvchi cholg'uga aylantirishga intildi.

Kompozitorning ushbu maqsadlarni amalga oshirishida jiddiy qiyinchilik mavjud bo'lib, cholg'uni sozlashda katta muammolar bor edi. Klavir cholg'usida qora klavishalar kam ishlatilgan asarlargina yaxshi sadolanib, ko'povozli musiqa esa nosoz eshitilar edi.

Bax klavirni sozlashning yangi usulini taklif etdi, bu usul keyinchalik *teng temperatsiyalangan soz* deb nomlandi. Kompozitor yangi tuzilmaning ifodaviy imkoniyatlarini ishonarli tarzda tasdiqladi. Shu maqsad bilan u xromatik gamma pog'onalari bo'ylab yuqoriga tomon barcha major va minor tonalliklarida 24 ta preludiya va fugalardan iborat bo'lgan turkumni yaratdi. Bax ushbu cholg'u turkumini "Yaxshi temperatsiyalangan klavir" deb nomladi. Birinchi tom 1722 - yilda paydo bo'ldi, bir necha yildan keyin Bax Leypsigda "Yaxshi temperatsiyalangan klavir" ning ikkinchi tomini yaratdi.

Har bir tonallikdagi preludiya va fuga polifonik turkumni tashkil etdi. Ular bir-biriga kontrast tuzilish tamoyiliga asoslangan badiha yo'lidagi preludiya va qat'iy tuzilmali fugadan iborat bo'ldi.

Bax davrida kirish, tayyorlanish xarakteridagi pyesa "preludiya" deb nomlangan. "Fuga" esa lotin tilida "yugurish" ma'nosini anglatadi. Musiqada *fuga* murakkab polifonik asar bo'lib, aksariyat fugalarning asosini bitta mavzu tashkil etadi, shu bilan birga ikki va uch ovozli fugalar ham mavjuddir.

Bax polifonik ovozlarni kichik doirada o'zaro suhbat qurayotgan odamlarga qiyoslagan. Agar ovozlarni uchta bo'lsa, ulardan biri ma'lum muddat jim turishi va boshqalarni tinglashi kerak edi.

Fuga mavzuni doimo bayon etuvchi bitta ovoz bilan boshlagan. Bu mavzu asosiy musiqiy negiz bo'lib, undan butun asar o'z rivojini topgan. Asardagi ovozlarni aralash xordagi ovozlarni kabi nomlanadi: soprano, alt, tenor, bas.

Baxning minor ladida yozilgan lirik, g'amgin xarakterdagi fugalari aksariyat hollarda yorug' major akkord bilan yakunlanadi.

Klavir uchun yaratilgan preludiya va fugalarni haqli ravishda Baxning obrazlar ensiklopediyasi hisoblanadi. Kompozitor insonning keng va murakkab his-tuyg'ular dunyosini kam uchraydigan rang-baranglik bilan ochib beradi. Ushbu preludiya va fugalarni asosida Motsart, Betxoven, Shopen, Shuman, List va boshqa ko'plab musiqachilarni kompozitorlik mahoratini o'rgandilar.

I.S. Bax klavirni sozlash uslubini o'zgartirish bilan birga unda ijro uslubini ham o'zgartirdi. Shu davrgacha ikkala qo'lning bosh barmoqlari ijroda tatbiq etilmagan bo'lib, kompozitor zamonaviy o'n barmoqli applikator ijrosiga asos soldi.

Ijodining Keteni davrida Baxning shaxsiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi: 1720 yilda uning rafiqasi vafot etdi. Bir yildan keyin Bax ikkinchi bor Anna Magdalena Vyulkenga uylanadi. Uning yangi rafiqasi yaxshi musiqachi bo'lib, Baxning musiqiy faoliyati naqadar muhimligini anglay oldi va ichki dunyo xususiyatlarini tushuna oldi.

Baxning hayotiy va ijodiy faoliyatidagi oxirgi davr Leypsig shahri bilan bog'liq bo'lib, kompozitor ushbu shaharda umrining oxirigacha yashaydi.

1722 - yili Leypsigda shahar asosiy cherkovlarining musiqiy rahbari o'rni bo'shadi, bu lavozim an'anaga muvofiq avliyo Foma cherkovi kantori vazifalari bilan birgalikda bajarilar edi. Bax vakant lavozimni egallash uchun o'tkazilgan tanlovda ishtirok etadi va ushbu tanlovda muvaffaqiyat qozonadi.

1723 - yili Bax ko'psonli oila a'zolari bilan Leypsig shahriga ko'chib keladi. Magistrat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, Bax shahardagi barcha cherkovlarda ijro etiluvchi musiqani nazorat qilishi, vokalist va musiqachilarning shaxsiy tarkibi

bilan shug'ullanishi lozim edi. Bu vazifalardan tashqari Bax avliyo Foma cherkovi qoshidagi maktabda musiqa va ashula bo'yicha dars berishi, u yerda navbatchilik qilishi, ko'p hollarda eshitish qobiliyati ham, ovozi ham bo'lmagan maktab o'quvchilarining intizomini nazorat qilishi zarur edi.

Bu kabi qiyin vazifalarni va ma'muriy ishlarni amalga oshirishda katta qobiliyatga ega hamda o'zaro kelishishga qodir bo'lgan kishigina bajarishi mumkin edi. Bax esa genial musiqachi sifatida o'zining hayotdagi mavqeini yaxshi anglagan. U ijodi uchun belgilangan qimmatli vaqtini keraksiz narsalarga ajratishni istamagan, bu kabi holatlarga ham moslasha olmagan.

Bax shahar kengashini har xil turdagi o'zgartirishlar va qayta tuzishlar haqidagi bildirishnomalar bilan to'ldirib tashladi. Kengash a'zolari yaxshi haq to'lanadigan bu lavozimdagi kantor nima uchun tinch o'tira olmasligini tushunmas edilar. Bax esa o'z navbatida kengash a'zolarining loqaydligi bilan kelisha olmas va qo'yan maqsadlarini o'z sarmoyasi bilan hal qilar edi.

Cherkovda ijro etiladigan musiqaning badiiy darajasidan qanoatlanmagan Bax 300 ga yaqin kantata – yil davomidagi bayramlar hamda yakshanba kun ibodatlarida ijro etish uchun mo'ljallangan xor konsertlarini yaratadi. Bu repertuar qaytarishlarsiz ijro etilganda ham besh yilga yetar edi.

Keyingi avlod musiqa mutaxassislari Bax ijodining samaradorligini noyob deb tan olganlar. Ammo, magistrat Baxning bu faoliyati haqida o'zining nuqtai-nazariga ega edi.

Shahar kengashi va kompozitor o'rtasida kelishmovchilik munosabatlari kuchayib bordi. Kengash Baxning yillik maoshini kamaytirar, uni mayda-chuyda bahonalar bilan ayblar, Bax esa qo'lidan kelganicha o'zini muhofaza qilardi.

Kompozitor Polsha qiroli, Sakson kurfyursti sha'niga bag'ishlangan bir nechta asarlar yozadi hamda saroy kompozitori faxriy nomini olishga muvaffaq bo'ladi. Shundan keyin kengash nemis qonunlariga ko'ra kompozitorni ishdan bo'shata olmagan. Bundan tashqari, Bax bu davrda butun Yevropaga mashhur kompozitor edi.

1729 - yilda Bax "Kollegium muzikum" nomli dunyoviy filarmonik jamiyatga boshchilik qildi. Jamiyat tomonidan tashkil etilgan konsertlar turli jamoat joylarida o'tkazilib, konsertlarda Bax dirijor va yakkaxon ijrochi sifatida muntazam ishtirok etgan. Kompozitor ushbu jamoa chiqishlari uchun juda ko'p miqdorda orkestr hamda vokal musiqasini yaratadi.

Baxning Leypsig davrida yaratgan eng ahamiyatli asarlaridan biri "Matfey iztiroblari" bo'ldi. Protestant cherkovida Iso payg'ambarning yerdagi hayoti va qatl etilishi haqidagi voqealarga bag'ishlangan musiqiy-dramatik asarlar *strasti* yoki *passion* deb atalgan.

Passionlar Pasxa bayramidan oldingi oxirgi juma kuni ijro etilgan. Avvallari deklamatsiya ko'rinishidagi passionlar mavjud bo'lib, ularda Yevangeliyaning qiroatli kuylanishi ba'zi musiqiy namunalari bilan to'ldirilgan.

Sof xor passionlari ham mavjud edi, ammo shu davrgacha cherkov mualliflari tomonidan yaratilgan asarlar Baxning partituralari bilan tenglasha olmaydi. Kompozitor yaratgan partituralarni ijro etish uchun to'rt ovozi aralash xor, o'g'il bolalar xori, to'rtta yakkaxon vokalist, ikkita orkestr, ikkita organ va fortepiano talab qilindi.

Opera janrida hech qachon ijod etmagan Bax o'z passionlarida musiqa, so'z va dramatik rivojning uyg'unligini yaratdi, bu esa uni zamondosh dramatik kompozitorlarining birinchi qatoriga olib chiqdi. Baxga diniy asarlarining ortiqcha teatrlashuvi haqidagi bildirilgan e'tirozlar buning dalilidir.

Bax hayotining oxirgi o'n yilini tan olingan mashhurlik va hurmatda o'tkazadi. Germaniya musiqachilari ichida buyuk kantor yoniga salomga kelish odati ham paydo bo'ladi. Baxning biror yerga tashrifi esa katta voqeaga aylanadi.

Kompozitorning oxirgi o'n yillik hayotini maqsadlarga erishgan va o'z vazifalarini bajargan, endi hurmatda bo'lish va munosib ravishda o'tkazilgan hayotning natijalaridan bahramand bo'lish huquqiga ega bo'lgan davr deyish mumkin.



Bax kasbdosh –musiqachilarga doimo yaxshilikni ravo ko‘rgan, g‘ayirlikni bilmagan, hayotiy-maishiy masalalarda esa beg‘araz va ba‘zan hatto soddadil ham bo‘lgan. O‘quvchilaridan biriga u shunday maktub yozadi: “Menga hech narsa kerak emas, mendan ozgina o‘rgangan narsalarni o‘z vaqtida boshqa yaxshi insonlarga berishga harakat qilsangiz kifoya”. Bunday beg‘arazlik faqat haqiqiy buyuk insonlarga xosdir.

Vafotidan bir yarim yil avval Bax ko‘z kataraktasi bilan og‘riydi. Ikki marta jarrohlik muolajasi o‘tkaziladi, ammo ular yaxshi natija bermaydi: Bax ojiz bo‘lib qoladi. Ammo kompozitor tushkunlikka tushmaydi, ijodini to‘xtatmay, o‘zining yangi kompozitsiyalarini yozib olish uchun aytib turali. Bu asarlardan biri “Fuga san‘ati” bo‘lib, kompozitorning texnik jihatdan eng mukammal asari hisoblanadi.

Bax navbatdagi fugani yozib o‘tirgan chog‘ida, 1750 yilning 28 iyul kunida vafot etdi.

1750 - yil 6 avgustda “Berlin qaydnomalari” da quyidagi xabar berildi: “Leypsig. 31 iyul. O‘tgan seshanba kuni hayotining 66-chi yilida taniqli ingliz okulisti tomonidan samarasiz o‘tkazilgan operatsiyaning oqibatida mashhur musiqachi, Polsha va kurfyurt saroy kompozitori, Angalt-Keten kapelmeysteri, muzikdirektor va avliyo Foma maktab kantori janob Bax vafot etdi. Musiqa san‘atining barcha haqiqiy bilimdonlari bu ajoyib insonni yo‘qotishdan chuqur qayg‘udalar”.

Bax o‘zi 27 yil xizmat qilgan cherkov devorlarining biri yonida dafn etildi.

Baxning oilasi juda katta bo‘lib, farzandlari ko‘p edi. Otaning iqtidori barcha farzandlarida turli darajada namoyon bo‘ldi, ammo yuksak musiqiy iqtidorga uning ikki o‘g‘li, Vilgelm Frideman va Karl Filipp Emanuel ega bo‘ldilar. Ularning birinchisi Drezdenda organchi, ikkinchisi Berlinda qirol Fridrix II saroyida musiqachi sifatida xizmat qildilar. Yana bir o‘g‘li Iogann Xristian Germaniyadan

ketib, Londonda saroy musiqachisi sifatida faoliyat olib borgan. Yosh Motsart otasi bilan Yevropa bo'ylab o'tkazgan gastrol safarlari davomida aynan Iogann Xristian bilan uchrashgan va ijodiy muloqotda bo'lgan.

Buyuk kompozitor vafotidan so'ng uning ijodi ko'p vaqtga unutildi. Ma'rifatparvarlik davrida kompozitorning ijodi eskirgan, diqqatga sazovor bo'lmagan, asarlari esa haddan tashqari og'ir, yirik va juda ilmiy deb hisoblandi.

Nazokatli-hischan kuylari va salonbop kartinali namoyishligi bilan **nazokatli uslub** - rokoko urf bo'ldi. Musiqa san'ati yirik shakllar va umuminsoniy muammolar, Bax ijodining asosini tashkil etuvchi barcha narsadan chetlashdi. Musiqa tarbiyalash vositasi emas, o'yin-kulgiga aylandi. Organning o'rmini klavesin egalladi, bu cholg'u uchun katta musiqiy adabiyot yaratildi. Ushbu janrda aksariyat fransuz kompozitorlari F. Kuperen va J.F. Ramo ijod qildilar.

Klassik davr bo'sag'asida Bax ijodining bahosini juda kam musiqachilar anglar edilar, ulardan V.A.Motsart va L. van Betxoven nomini keltirish mumkin.

Jamoatchilikning Bax musiqasi va shaxsiga bo'lgan qiziqishi XIX asr boshiga taalluqli bo'lib, 1802 yilda nemis tadqiqotchisi I.N.Forkelning I.S.Bax haqidagi birinchi kitob paydo bo'ldi. 1829 - yil 29 mayda nemis kompozitori Feliks Mendelson rahbarligida keng jamoa ichida Baxning shu vaqtgacha ko'pchilikka no'malum bo'lgan eng buyuk asari – "Matfey iztiroblari" ijro etildi. Asar ijrosi shunchalik katta muvaffaqiyat bilan o'tdiki, ertasi kuni uni takrorlashga to'g'ri keldi.

1850 - yili Leypsigda Bax vafotining yuz yilligiga bag'ishlab Bax jamiyati tashkil etiladi. Kompozitor asarlarining to'liq akademik nashrini yaratish ushbu jamiyatning asosiy vazifasi bo'ldi. Asarlarning birinchi jildi 1851 - yilda, oxirigisi esa (yigirma oltinchi jild) 1899 - yilda nashrdan chiqdi.

O'z davrida Betxoven shunday degan edi: "Uni jilg'a emas, dengiz deb atash kerak edi!" Buyuk kompozitorning ushbu so'zlari Baxning familiyasidan kelib chiqadi: "Bax" so'zi nemis tilida "jilg'a" ma'nosini anglatadi.

Baxning musiqiy olami haqiqatdan ham dengiz yoki hatto ummonga teng fikrlar hamda his-tuyg'ulardir. Uning musiqasi ajoyib xususiyat bilan ajralib turadi:

kompozitor yashab o'tgan davrdan qanchalik ko'p vaqt o'tsa, uning san'ati shunchalik chuqurligi bilan namoyon bo'ladi.

Ko'pgina zamondoshlarimiz uchun Baxning ijodi shaxslardan yuqori, millatlardan yuqori, ba'zan hatto koinot miqyosini kasb etadi.

Ijodiy merosi:

“Strasti po Ioannu”

“Strasti po Matfeyu”

“Traurnaya oda”

“Magnifikat” oratoriyasi

Messa

320 dan ortiq kantatalar

6 ta Brandenburg konsertlari

Simfonik orkestr uchun 4 ta syuita

Turli cholg'u va orkestr uchun konsertlar

Organ uchun 145 ta preludiya va xorallar

Organ uchun 4 ta konsert, tokkatv, fantaziya, fuga va sonatalar

Fortepiano uchun 48 ta preludiya va fugalari

Xromatik fuga

Italyan konserti

Fuga san'ati va boshqa asarlar

“I.S. Baxning hayoti va ijodi” mavzusi bo'yicha

savol va topshiriqlar

1. Germaniyada XVIII asrda professional musiqachi qayerda xizmat qilishi mumkin bo'lgan?
2. Qadim raqs syuitasining qismlari nomi qanday?.
3. I.S. Baxning 24 ta preludiya va fugalari turkumi qanday nomlanadi?
4. “Preludiya”, “fuga” atamalari nimani anglatadi?
5. Bax qanday janrda hech qachon ijod qilmagan?

6. Nima uchun Baxni barcha davrlar va xalqlarning eng buyuk kompozitori deb hisodlaydilar?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.
6. Levik B. Chet el musiqasi tarixi. – T.: 1986.

Yozef Gaydn

(1732-1809)

XVIII asrdan Yevropa tarixida yangi davr – Ma'rifatparvarlik davri boshlandi. Agar Renessansning vatani Italiya bo'lsa, Yevropada klassik davrning vatani Fransiya bo'ldi.

Fransiyada musiqa madaniyatining gullashi XVII asr o'rtalaridan, markazlashgan davlat o'rnatilib, diniy urushlar tugashidan keyin boshlandi. Fransuz absolyutizmning g'alaba qozonishi ilm-fan va san'atning ko'tarilishiga olib keldi.

XVIII asrda yangi yevropacha mentalitet qat'iy qaror topdi. Barcha pog'onadagi feodallar sinfi o'rniga rivojlanib kelayotgan burjuaziya sinfi kirib keldi, ana shu sinf musiqaning asosiy buyutmachisiga aylandi.

Jamiyat tabiat kuchlaridan yuqori ko'tarilishga intildi, shu davrda tabiiy fanlar rivojlandi, ko'plab fundamental ixtirolar amalga oshdi. Insonlarning nafaqat xudo oldida, balki qonun oldida ham tengligi e'tirof etildi. Tiklanish davridagi inson erkinligi ideali barcha uchun umumiy bo'lib qoldi.

Klassitsizm davrning bosh uslubi sifatida ko'p yillar davom etdi. Bu uslub o'z estetikasining asosiy holatlarini Tiklanish davridan oldi.

O'sha davrda badiiy ijodning qat'iy qonunlari paydo bo'ldi. Uning asosiy qoidalari Aristotelning antik "Poetika" asaridan olingan bo'lib, o'zgartmas va tabiatning o'zidan in'om etilgan deb hisoblangan. Ushbu qoidalar ijodkorning hohishlari, ilhomi va his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilar edi.

Klassitsizm davri estetiklari go'zallik aniq, mantiqiy, matematik jihatdan tekshirilgan bo'lishi kerak deb hisoblaganlar. Ijodkorning asosiy vazifasi esa – fikr mantiqi bilan ishonitirishdir.


Klassitsizm davri uchun shijoatkor va kuchli qahramonni – baxtga erishish uchun intiluvchi insonni – sahnaga qayta olib chiqish xarakterli bo'ldi. Bu qahramon chitrosalar qo'lida o'yinchoq bo'lmay, zamon ruhiga binoan, burchi oldida o'z shaxsiy baxtidan ham kechishga qodir bo'lishi lozim edi.

Yangi uslubga o'tish har doimgidek so'z bilan bog'liq bo'lgan sahna janrlarida amalga oshdi. Antik davr estetik qonunlarining amalda aks etishi birinchi bo'lib fransuz dramaturglari P.Kornel, J.Rasin ijodida namoyon bo'ldi. Ularning klassik tragediyalari qadiimgrek asarlari asoslarida yaratildi.

Klassik uslubning shakllanishida ikkita asosiy davrni ko'rsatish mumkin:

1. Barokko davri san'ati chegarasida san'at rivojining yana bir tendensiyasi sifatida mavjud bo'lgan XVII asr klassitsizmi (Shekspir, Kornel, Rasin, Lyulli ijodi).
2. Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida keng rivoj topgan XVIII asr ma'rifatparvarlik yetuk klassitsizmi.

Yetuk klassitsizm Glyukning opera islohotlari, Bax o'g'illarining novatorligi, yosh Gaydn ijodi bilan boshlandi. Bularning barchasi esa Motsart ijodida umumlashtirildi, uning ijodi Yevropa musiqa san'atida yangi asrni boshlab berdi.



Yozef Gaydn haqli ravishda klassik cholgʻu musiqasining asoschisi hisoblanadi, u zamonaviy simfonik orkestrning qaror topishiga yoʻl ochgan ijodkordir.

Gaydn ijodida *simfoniya, torli kvartet, fortepiano sonatasi* janrlari mukammal shakllandi. Kompozitor opera, diniy musiqa, kantata va oratoriyalar ham yaratgan, ammo aynan cholgʻu musiqasi uning nomini asrlarga muhrladi.

Yozef Gaydn 1732 - yilda Vena yaqinidagi Rorau qishlogʻida tugʻildi. Kompozitorning otasi arava ustasi boʻlib, musiqaga juda ixlosmand boʻlgan. U turli xalq cholgʻularida ijro etib, kuylashni yaxshi koʻrar edi. Otasining musiqa va qoʻshiqqa boʻlgan muhabbati yosh Yozefga ham berildi.

Gaydn bolaligidan musiqani eshitish va eslab qolish qobiliyati, ritmi yaxshi sezishi bilan ajralib turar edi. Jarangdor ovozga ega boʻlishi esa unga cherkov xorida ishtirok etish imkonini berdi.

Gaydn yoshligidan Vena shahri avliyo Stefan kafedral cherkovi qoshidagi kapellaga xorda kuylash uchun joylashadi va musiqa bilan jiddiy shugʻullana boshlaydi. Uning matonat hamda bilim olishga boʻlgan kuchli intilishi repetitsiyalar va chiqishlarning mashaqqatli tartiblariga chidash, skripka va klavikordda chalish mahoratini egallash uchun vaqt ajratishga imkon berdi. Yosh Gaydn musiqa yozishga ham harakat qildi, lekin hozircha bu urinishlar ancha samarasiz boʻldi.

Yozefning ovozi oʻzgarishi bilan uni xordan haydaydilar, shu tarzda Gaydnning musiqiy taʼlimi tugaydi. U ozgina boʻlsa-da pul topish uchun istalgan ishni bajaradi: musiqadan dars beradi, notalarni koʻchiradi, mehmonxonalarda, hatto chorrahalarda skripka chaladi. Kechqurunlari tom ostidagi hujrada oʻtirib, buyuk kompozitorlar asarlarini oʻrganadi, baʼzan buyurmalar ham olish imkonini paydo boʻlar edi. Shu davrda Gaydn oʻzining birinchi simfoniyaalarini, kvartetlari, "Yangi choʻloq iblis" nomli musiqiy komediyasini yaratadi.

Tez orada taqdir Gaydnni taniqli italyan pedagogi, kompozitor va vokalist Nikkolo Porpora bilan uchrastiradi. Mashg'ulotlar uchun mablag' topolmagan Gaydn, maestroning konsertmeysteri va shu bilan birga uning xizmatkori vazifasini bajaradi. Ushbu xizmatlar hisobiga Nikkolo Porpora Gaydnga kompozitsiya san'atidan saboq beradi.

Gaydn o'zining kelajagini saroy musiqachisi sifatida ko'rar edi. 1761-yilda vengr knyazi Miklosh Estergazi (1714-1790) Gaydnni o'zining kapellasiga rahbarlik qilish uchun ishga taklif etadi. Bundan keyin yosh kompozitorning 30 yillik hayoti Vena yaqinidagi Eyzenshtadt shaharchasida, knyazning yozgi saroyida o'tadi.

Lavozimni egallashdan bir yil oldin Gaydn Venalik sataroshning qizi Mariya Kellerga uylanadi. Bu turmush baxtsiz bo'lib, ayoli tez orada o'zining asl qiyofasini ko'rsatadi. U fikr doirasi cheklangan, janjalkash, shu bilan birga isrofgar va juda talabchan bo'lishi bilan birga, Gaydnning buyuk iqtidorini mutlaqo tushunmas edi.

Gaydnning lavozimi rasmiy ravishda "xizmatkor" deb belgilangan, ammo unga hurmat bilan muomila qilganlar. Kompozitorga xizmat qiluvchi oqsoch va xizmatkor bo'lib, o'ziga ham yuqori oylik belgilangan edi. Shunga qaramay, har kuni ertalab Gaydn boshqa xizmatkorlar bilan birga knyazning xonasi yonida yig'ilib, uning buyruqlarini kutar edi.

Kapellaga rahbarlik qilishning o'ziga yarasha afzalliklari ham bor edi. Gaydn o'zi yaratgan asarlarni repetitsiya davridayoq jonli ijroda tinglashi, yaxshi sadolanmagan joylariga tuzatishlar kiritishi hamda qulay kompozitsiya va cholg'ulashtirishni eslab qolishi mumkin edi.

Kapella bilan ishlash Gaydnga turli musiqiy shakllar bilan tajriba o'tkazishning qulay imkonini ham bergan. Kompozitor knyaz Estergazi xizmatida o'tgan 30 yil davomida klassik simfoniya, torli kvartetning tuzilishini yaratdi, zamonaviy simfonik orkestrning asosini shakllantirdi.

Xizmat davrida Gaydn kvartet va simfoniyaalarining asosiy qismini yaratdi, u ijodiy faoliyati davomida 104 ta simfoniya yozdi.

Gaydnning mahorati ko'p sonli tinglovchilarning olqishiga sazovor bo'lib, asarlari ko'plab mamlakatlarda mashhur bo'ldi. Kompozitorning asarlari birinchi marta uning 31 yoshida nashr qilindi. Hayoti davomida yaratgan asarlari Yevropaning 125 ta matbaalarida nashr qilindi – bu kompozitor ijodining mashhurligi va barcha tomonidan tan olinganidan darak beradi.

1792 - yilda qari knyaz vafot etadi, uning vorisi esa kapellani tarqatib yuboradi. Butun Yevropaga mashhur bo'lgan Gaydnga 400 gulden pensiya ajratiladi va boshqa hech qayerda ishlamaslik sharti bilan ishdan bo'shatiladi. Nashrga berilgan barcha asarlariga esa Gaydn shunday qo'l qo'yishi kerak edi: "Knyaz Estergazilarning kapelmeysteri Y.Gaydnning asari".

Bu shartlar bag'oyat ma'qul bo'lib, 60 yoshli kompozitor nihoyat orzu qilgan ozodlikka erishadi. Taniqli impresario Iogann Solomon uni Angliya safariga taklif etadi. Bir joyda ishlashga majbur bo'lgan Gaydn endi dunyoni ko'rishni istaydi va rozi bo'ladi.

Bu safar uchun kompozitor alohida 6 ta simfoniya yaratadi. Tinglovchilar kompozitorni ovatsiyalar bilan olqishlaydilar, konsertlar nihoyatda muvaffaqiyat bilan o'tadi, zallar to'lib ketadi. Gaydn Oksford universiteti doktori degan faxrli unvon beriladi, bu uning musiqasi so'zsiz tan olinganidan dalolat beradi.


1792 - yil oxirida Gaydn vataniga qaytadi. Yo'l ustida u Bonn shahrida to'xtab o'tadi va bu yerda yosh Betxoven bilan tanishadi. Gaydn yosh kompozitor yaratgan asarlarga yaxshi baho beradi va shundan so'ng Betxoven Venaga borib, buyuk maestroga shogird bo'lishga ahd qiladi.

Ikki yildan so'ng Gaydn yana Angliya safariga chiqadi va ushbu safar uchun yana 6 ta simfoniya yaratadi, ular avvalgi olti simfoniya bilan "O'n ikki London simfoniyalari" turkumini tashkil etadi. Ikkinchi safar chog'ida ingliz qiroli Georg III Gaydnga Angliyada qolishni taklif etadi, lekin kompozitor rozilik bermaydi.

Angliyada Gaydn Gendelning dabdabali oratoriyalari bilan tanishadi, ular kompozitorida o'chmas taassurot qoldiradi. Venaga qaytgach, Gendel musiqasidan ruhlangan Gaydn "Olamning yaratilishi" va "Yil fasllari" nomli ikkita ulug'vor oratoriyalarni yaratadi. Bu ikki oratoriya kompozitor ijodining yakuni bo'ldi.

Gaydn hayotining oxirgi yillarini Venada, o'z uyida o'tkazdi. U boshqa hech narsa yozmadi, hamma vaqtini do'stlari bilan muloqot hamda o'tgan kunlarni eslash bilan o'tkazdi.

Vena shahri fransuz qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgach, chuqur hurmat belgisi sifatida Napoleon Bonapartning shaxsan o'zi Gaydnning uyi yonida faxriy qorovul qo'yishga farmon berdi.



Hayoti davomida Gaydn Oksford universiteti doktori, Shvetsiya akademiyasining akademigi, Fransuz akademiyasining a'zosi, Parij konservatoriyasi doktori, Peterburg filarmonik jamiyati a'zosi kabi faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi.

Gaydn ijodi dunyo musiqa madaniyati rivojida butun bir davrni tashkil etdi. Uning ijodida simfoniya, torli kvartet va fortepiano sonatasi klassik janrga aylandi.

Gaydn yaratgan eng sara simfoniyalari kelgusi avlod kompozitorlari uchun ma'lum tartibda joylashgan va hozirgi davr uchun odatiy bo'lgan to'rt qismlilik turkumning namunasi bo'ldi.

Simfonik orkestrning tarkibi ham Gaydn asarlarida uzil-kesil aniqlandi. Kompozitor o'z ijodida xalq kuylaridan keng foydalanishi uning musiqa ohanglariga yengillik va shaffoflik bag'ishladi.

Simfoniya orkestr uchun 4 ta qismi o'zaro bir-biriga kontrast bo'lgan, shu bilan birga yaxlit yirik asar hisoblanadi. Simfoniya uzoq davrlar kompozitorlik ijodining rivoji bo'lib, mashaqqatli mehnat va tinmay izlanish natijasidir. Ushbu qonunlar bitta qism ichida ham, yaxlit asarda ham amal qiladi.

Simfoniyaning orkestr uchun yaratilgan boshqa yirik asarlardan farqi uni tashkil etuvchi barcha qismlarning mazmun va badiiy birligidir. Simfoniya birinchi tovushidan oxirigacha musiqiy-dramatik rivojga asoslanadi va bunday rivoj *simfonizm* deyiladi.

Klassik simfoniya 4 qismdan iborat bo'lib, ijro davomida qismlar orasida kichik to'xtalishlar qilinadi. Simfoniyaning barcha qismlari ijro etilgandan so'ng qarsak chalish mumkin (avvallari har bir qismdan so'ng qarsak chalingan).

Birinchi qism musiqasi simfoniyaning xarakterini belgilaydi. U quvnoq, hazilkash, dramatik yoki qahramonona bo'lishi mumkin, ammo doimo harakatchan bo'ladi.

Simfoniyaning birinchi qismi *sonata shaklida* yoziladi. Unda uchta asosiy bo'lak mavjud bo'lib, birinchi bo'lak ekspozitsiya deyiladi. Ekspozitsiya bosh va yordamchi deb nomlangan ikki o'zaro kontrast mavzularni ko'rsatishga asoslanadi.

Sonata shaklining ikkinchi bo'lagi rivojlov bo'lib, unda asosiy mavzular yanada rivojlantiriladi, o'zgartiriladi, tonallik beqaror bo'ladi, alohida jumla yoki iboraga bo'linadi, o'zaro jadal munosabatga kiradi. Rivojlovga yangi musiqay lavha – *epizod* ham kiritilishi mumkin.

Sonata shaklining uchinchi qismi *repriza* deyiladi. Repriza bo'limi rivojlanishga yakun yasaydi, unda ekspozitsiyadagi barcha mavzular asosiy tonallikda qaytariladi.

Simfoniyaning ikkinchi qismi odatda vazmin, og'ir tempda bo'lib, o'zida lirik va o'ychan fikrlarni aks ettiradi.

Simfonik turkumning uchinchi qismi tinglovchilar diqqatini tashqi dunyo, maishiy turmush, raqs obrazlariga ko'chiradi. Gaydn va Motsart simfoniylarida uchinchi qismga ko'pincha menuet, Betxoven asarlarida esa skerso kiritilgan. Tez tempdagi, harakatchan bunday asar hazil, grotesk, dramatik yoki certak-fantastik xarakterga ega bo'ladi.

To'rtinchi qism – final butun asarga xotima yasaydi. Final uchun quvnoq harakatli kayfiyat xos bo'lib, u rondo, sonata yoki variatsiya shaklida yozilishi mumkin.

Ba'zan kompozitorlar simfoniya xor yoki alohida vokal ovozlari ham kiritadilar.

Simfoniyaning roman, tragediya, drama, lirik poema yoki qahramonlik epopeyasiga tenglashtirish mumkin. Drama yoki roman adabiyotda qanday o'rin

tutsa, simfoniya ham musiqada shunday o‘rin tutadi. Cholg‘u musiqasining eng yuqori ko‘rinishi sifatida simfoniya insonning turfa his-tuyg‘ulari va eng yuqori maqsadlarni o‘zida aks ettirishi mumkin.

Ijodiy merosi:

- 30 ta opera
- 2 ta oratoriya
- 14 ta messa, kantata va motetlar
- 104 ta simfoniya
- Fortepiano uchun 52 ta sonata
- 59 ta divertiment
- Turli cholg‘ular va orkestr uchun 50 ta konsert
- 83 ta kvartet
- 199 ta trio
- 445 ta xalq qo‘shiqlarini qayta ishlash
- Vokal ansambllar, xor uchun asarlar

“I. Gaydnning hayoti va ijodi ” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Gaydn qanday oilada tug‘ilgan?
2. Y.Gaydn 30 yil davomida qayerda xizmat qilgan?
3. Gaydn nafaqaga chiqqandan so‘ng qayerda gastrol safarlarida bo‘lgan?
4. Gaydnning ikkita oratoriyasi qanday nomlanadi?
5. Zamonaviy simfoniik orkestrning yaratuvchisi kim?
6. Klassik simfoniya necha qismdan iborat?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.

3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.
6. Levik B. Chet el musiqasi tarixi. – T.: 1986.

Wolfgang Amadey Motsart

(1756-1791)



Wolfgang Amadey Motsart 1756 -yil 27 yanvarda Avstriyaning Zalsburg shaharchasida musiqachi oilasida dunyoga keldi. Zalsburg shahri kichik knyazlikning markazi bo'lib, unga arxiyepiskop bosh edi. Motsartning otasi, Leopold Motsart, shu shaharda taniqli skripkachi, organist va pedagog bo'lib, arxiyepiskop saroyida xizmatda bo'lgan. Wolfgang oilada yettinchi va oxirgi farzand bo'ldi, undan tashqari katta opasi Nannerl bo'lib, bolalar dastlabki musiqiy savodni otasidan o'rgandilar. Opasi bu vaqtda 8 yosh, Wolfgang esa atigi 3 yoshda edi.

Motsart tabiiy iste'dodini juda erta namoyon qildi: haddan tashqari nodir musiqa uquvi va xotiraga ega bo'lgan Motsart 4 yoshida klavesin uchun konsert yozgan, istalgan kuyni klavesinda bemaol badiha qilgan.

Olti yoshida Wolfgang qiynalmay klavesinda chalish mahoratini egallagan, shu davrda organ va skripkada ham ijro eta boshlagan. Farzandlari uchun qanday porloq musiqiy kelajak ochilayotganini ko'rib, otasi ular bilan konsert safariga chiqishga qaror qiladi. Leopold Motsart bu gastrollardan jiddiy moddiy manfaat kutib, buyuk knyazlarning sovg'alari oilaning barcha safar harajatlarini oqlashiga umid qildi.

Bolalarning 1762 yil sentabrida Venaga kelishi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Kichik virtuozlar imperator saroyida konsertlar berib, qimmatli sovg'alar oldilar,

Volfgangni qiziq bir o'yinchoq, tabiat mo'jizasi sifatida qabul qilgan eng yuqori tabaqa oqsuyaklari bilan erkin muloqotda bo'ldilar.

Shu tarzda Yevropa mamlakatlari bo'ylab misli ko'rilmagan, zafarli muvaffaqiyatlarga to'la bo'lgan ko'p yillik safar boshlandi.

Motsartning otasi ular qayerda bo'lmasinlar, o'g'lini tabiat mo'jizasi sifatida keng targ'ib qilardi. Yosh Motsart notanish murakkab pyesalarni notaga qarab chalib, ba'zan ko'zlari bog'langan holda klaviaturani ko'rmasdan ijro etib, tomoshabinlarga badiha ajoyibotlarini namoyish qilar edi.

Bu kabi gastrollar yosh bolalar uchun nihoyatda og'ir mehnat bo'lib, konsertlar to'rt-besh soatdan davom etgan. Bu kabi chiqishlar hatto yoshi katta ijrochini ham charchatishi aniq edi. Ammo boshqa iloj yo'q: oilaning harajatlarini faqat ana shunday ajoyib chiqishlar bilan to'ldirish mumkin edi.

Muvaffaqiyatlar bilan ruhlangan Motsartlar oilasi Zalsburgga, arxiyepiskop saroyidagi doimiy xizmatlariga qaytadilar, lekin bir necha oydan so'ng Parijga yangi safarga chiqish uchun ruxsat so'raydilar.

Besh oydan keyin Motsartlar oilasi Parijdan Londonga boradilar. Londonda sakkiz yoshli Wolfgang buyuk Baxning o'g'li - Iogann Xristian bilan tanishadi va ular tezda do'stlashib oladilar.

Yoshdagi katta farqqa qaramay, ular teng ravishda ijodiy muammolarni muhokama qilar hamda bir-birlarining ijodini sinchiklab o'rganar edilar. Bu bebaho "ma'ruza va seminarlar"ning natijasi shu bo'ldiki, yosh Motsartning hayotida shaxsiy ijod borgan sari ko'proq o'rin tuta boshlaydi. U Londonga mahoratli ijrochi sifatida kelgan bo'lsa, endi kompozitor sifatida qaytishi aniq bo'lib qoldi. Bu davrga kelib Motsart ikkita simfoniya, oltita klavir sonatasi va boshqa bir qator kichik asarlar muallifi edi.

Ushbu konsert safari uch yilga yaqin davom etdi, arxiyepiskop esa o'z xizmatchilarining bu kabi safarlarda bo'lishini yoqtirmas edi.

Uyga qaytgach, Motsart umumta'lim fanlari va musiqa bilan yanada muntazam shug'ullana boshladi. Chet tillarini(lotin va italyan) o'rganish uchun ancha ko'p vaqt ajratildi, chunki o'sha davr kompozitorlari uchun til bilish majburiy edi.

Bir yildan so'ng Leopold Motsart farzandlari bilan yana Venaga keladi, lekin bu konsert safari muvaffaqiyatsiz bo'ladi: Venada chechak epidemiyasi boshlanib, bolalar kasal bo'lib qoladilar va dardni juda og'ir o'tkazadilar.

12 yoshida Motsart opera yozish uchun birinchi marta imperatorlik buyurtmani oldi. Aynan shu davrdan boshlab yosh ijodkor musiqachilarning o'ziga nisbatan g'ayirligini his etdi, ular raqobatchilikdan qo'rqib, Motsart yaratgan opera sahna yuzini ko'rmasligi uchun barcha harakatni qildilar.

13 yoshidan boshlab Motsart Zalsburg arxiyepiskopi saroy kapellasiga ishga qabul qilindi va unda 12 yil faoliyat olib bordi.

1770 - yilda Leopold Motsart o'g'li bilan Italiyaga keladi, chunki Italiyada malaka oshirgan hamda tan olingan musiqachigina Yevropa markazlarida katta va mustahkam muvaffaqiyatga umid qilishi mumkinligini juda yaxshi tushunar edi.

Har galgidek, konsertlar katta shov-shuvlarga to'liq bo'ldi. Bolonya shahrida Motsart kompozitsiya bo'yicha o'tkazilgan nihoyatda murakkab imtihondan muvaffaqiyat bilan o'tadi va Filarmoniya akademiyasi uni o'z a'zoliciga qabul qiladi.

Rim shahrida Volfgang yod olish bo'yicha juda murakkab diniy xor asarining partiturasini yozib beradi, bu bilan barcha bilimdonlarni lol qoldiradi. Rimda u musiqachi uchun eng oliy mukofot – papaning “Oltin shpora” nishoni bilan taqdirlanadi.

Ammo Italiyada yosh musiqachi doimiy ish joyini topolmaydi. Bu muvaffaqiyatlar uning juda erta qozongan zafarlarining oxirgi nurlari bo'lib qoldi. O'n besh yoshli Motsart uning kelajak hayotida keskin burilish yasovchi shavqatsiz tanglik ostonasida turar edi.

Zalsburgda qari arxiyepiskop vafot etadi, uning o'rmini esa mustabid va johil graf Iyeronim Koloreda egallaydi. Yangi arxiyepiskopning istagi bilan Motsartlarning maoshi saqlangan holda erkin va uzoq vaqt safarda yurishlari o'z nihoyasiga yetadi.

Yosh musiqachining mustaqil va erkin fikrlashi, erta balog'ati, oqsuyaklar bilan o'zini teng tutishi yangi arxiyepiskopning nihoyatda g'ashini keltirar edi. Turli tantanali tadbirlarda Motsart papa sovg'a qilgan oltin ordenini taqar, Koloreda esa

o'zining musiqachi-xizmatkoriga buni kechira olmasdi. Butun Yevropaga mashhur bo'lgan Motsartning kuni arxiyepiskopning xonasi yonida boshlanar, u ham barcha xizmatkorlar bilan birgalikda buyruqlarni kutib turar edi.

Shu sharoitda o'tgan sakkiz oy Motsart uchun nihoyatda mashaqqatli bo'ldi. Motsartning bolalik chog'larida konsertlar bilan chiqishlari qanchalik muvaffaqiyat bilan o'tgan bo'lsada, yosh bola va o'smirlilik davrida oqsuyaklar jamiyati uchun ermak va ko'ngil hushlash uchun kerakli bo'ldi. Endi iqtidorining ayni gullagan vaqtida Motsart o'z xizmat vazifalari bilan chekka shaharda bog'lanib qolgan edi. Ayniqsa, arxiyepiskopga qullarcha qaramlik yosh ijodkor uchun chidab bo'lmas holat edi.

Shunga qaramasdan, Motsart ijod bilan shug'ullanishni to'xtatmadi, shu davr ichida oltita simfoniya, bir nechta fortepiano sonatalari, divertismentlar, ochiq havoda ijro etish uchun mo'ljallangan serenadalar yaratdi.

Motsart musiqa "qadr topmagan" joyda yashashini tushungan, lekin arxiyepiskopning ruxsatisiz xizmatdan ketish imkoni yo'q edi. Volfgang ishdan ketishi bilan arxiyepiskop otasini ham xizmatdan haydashini juda yaxshi tushungan.

Motsart faqat besh yildan so'ng juda katta qiyinchiliklar bilan ketish uchun ruxsat oladi (arxiyepiskop uni ishdan bo'shatib, otasini xizmatda olib qolishga rozi bo'ladi).

Bu davrga kelib kompozitor musiqaning turli yo'nalishlarida yaratilgan deyarli uch yuzta asar muallifi bo'lib, orzu-umid hamda o'z kuchiga ishonch bilan to'la edi. U o'zini Yevropaning eng yaxshi musiqachilaridan biri deb hisoblab, soddadillik bilan yaxshi ish joyi topilishi uchun bu xislatlarni yetarli deb o'ylaydi. Hayot esa butunlay boshqacha edi.

Endi Motsart Parij safariga o'tlanadi. O'g'lining maishiy turmush masalalarida tajribasizligi va ishonuvchanligini yaxshi bilgan otasi unga qo'shib onasini ham Parijga yuboradi hamda tez-tez mufassal xat yozib turishni iltimos qiladi. Qariya Motsart shu tarzda iste'dodli o'g'lini hayotdagi turli nohushliklardan saqlab qolmoqchi bo'ladi.

Parij yo'li, Mangeymda, taqdir Motsartni Veberlar oilasi bilan uchrashtiradi, bu oilaning boshlig'i teatrdan nota ko'chiruvchi bo'lib ishlardi. Yosh Motsart ularning katta qiziga – kelgusida opera primadonnasiga - ko'ngil qo'yadi, ammo keyinchalik kichik qizlari Konstansaga uylanadi. O'g'lining bu kelajagi Leopold Motsartni qo'rquvga soladi, u bu turmushga rozilik bermaydi.

Parijda ham Motsartning kutgan umidlari amalga oshmaydi: u bu yerda muntazam ish topolmaydi. Shu sababali, arzon narx to'lanadigan chakana darslar hisobiga kun ko'rib, sovuq mehmonxonada yashashga to'g'ri keladi.

Ammo eng dahshatli voqea oldinda edi: onasi og'ir kasal bo'lib qolib, vafot etadi. Shu sababli Motsart ezilgan holatda yana Zalsburgga qaytadi.

Bu yerda kompozitor yana ikki yil faoliyat olib boradi. Saroy musiqachisi deyarli xizmatkor vazifasida hisoblanib, uni tinimsiz haqoratlar kutar edi. Motsart esa o'zini asosli ravishda qalban oqsuyak deb bilar, shu bois o'zini oqsuyaklar zoti bilan teng hisoblar edi. Uning bu fikrlari o'z davridan ancha oldinlab ketgan edi.

Zalsburgda ikki tomonning g'ashini keltiruvchi keskin munosabatlar endi o'zaro nafratga aylandi. Ammo Wolfgang o'z oilasida ham hech qanday ruhiy qo'llab-quvvatlashni ko'rmas, bu holat uni nihoyatda ranjitar edi. Otasi qarib borgan sari o'g'lining taqdiriga ishonchsizlik bilan qarab, uni sabr-toqat qilishga undardi. Motsartning ruhiy inqirozi nihoyatda kuchayadi, u deyarli ijod qilmay qo'yadi.

Nihoyat, uni arxiyepiskop uyining zinasidan turtib haydashganidan keyin, Motsart hamma narsadan voz kechadi, yashash uchun hech qanday mablag'siz Venaga ketishga qaror qiladi.

Motsart doimiy ish joyidan voz kechgan hamda mustaqil yashash uchun yo'l olgan birinchi kompozitor hisoblanadi.

Vena davri Motsartning eng yetuk va barhayot asarlari yaratilgan hamda ijodining eng samarali davri bo'ldi. Vena milliy teatri Motsartga opera yaratish uchun buyurtma berdi. Kompozitor ham besh yil davomida milliy opera yaratishni orzu qilar, chunki bunday opera Venada italyan kompozitorlarining hukmronligiga qarshi turishi mumkin edi.

Motsartning “Haramdan olib qochish” asari nemis tilida yaratilgan birinchi opera bo‘ldi. U *zingshpil* (kuylash bilan uyg‘unlashgan dramatik pyesa) an‘anasida yozilgan bo‘lsada, Motsart o‘z asariga rivojlangan ansambllar, murakkab ariyalarni ham kiritadi.

Kompozitor ushbu operasida asar qahramonlarini insoniy tirik his-tuyg‘ular bilan uyg‘unlashtira oldi. Opera premyerasi nihoyatda muvaffaqiyatli o‘tdi, tomoshabinlar kompozitorni uzoq ovatsiyalar bilan olqishladilar.

Venada o‘tgan keyingi davr yashash uchun doimiy ravishda mablag‘ izlash, yaxshi ish joyi topish ilinjida kerakli kishilar bilan tanishish, yangi cholg‘u asarlarini yaratish bilan o‘tdi. Motsartning Vena davridagi yashash uchun asosiy daromadi abonementli konsertlar hamda obuna bo‘lish orqali tashkil etiladigan shaxsiy *musiqiy akademiyalari* bo‘ldi.

Abonementli yig‘ma konsertlarda ishtirok juda kam miqdorda to‘lanadigan haq evaziga ikki-uch musiqiy nomerni ijro etishdan iborat edi.

Ba‘zan konsertdan tushgan mablag‘ uni tashkil etishga sarflangan harajatni oqlamas edi. Shu sababli ijrochining o‘zi yozma varaqni badavlat va mashhur tomoshabinlarga tarqatib, oldindan ularning iqtisodiy yordamini olishga harakat qilardi. Har bir dasturga ko‘p miqdorda yangi asarlar yaratilishi zarur bo‘lgan, bir marta ijro etilgan asar yana qaytarilmas edi, chunki o‘sha davrda ijodkor va ijrochi bir kishi bo‘lgan.

Motsartning Vena davrida yaratgan keyingi operasi “Figaroning uylanishi” bo‘lib, operaning sujeti P.Bomarshening mashhur pyesasiga asoslanadi.

Kompozitor ushbu operasida o‘zini to‘liq ravishda opera janrining reformator - kompozitori sifatida namoyon etdi. Motsart davriga kelib opera spektakli yaratishning italyancha qonunlari eskirib bo‘lgan, janr chuqur inqirozda edi. Motsartdan avvalroq yashagan Kristofor Villibald Glyuk italyan jiddiy operasini islohot qilishga urinib ko‘rdi, unga avvalgi dramatik butunlik va yaxlitlikni qaytarish, musiqani turli ortiqcha va ma‘nosiz koloratura bezaklaridan tozalashga, musiqani drama bilan bog‘lashga harakat qildi. Glyuk reformatorlik operalarining adabiy asosi uchun mifologik sujetlardan foydalangan.

Motsart esa ilohiy mifologik sujetlardan voz kechadi va nisbatan hayotiy adabiy sujetlarga, masalan P.Bomarshening "Telba kun yoki Figaroning uylanishi", Bertattining "Tosh mehmon yoki jazolangan ahloqsiz" kabi asarlarga murojaat etadi.

Motsart ham Glyuk kabi sahnada musiqaning dramatik harakat bilan uyg'unlashuvini yaratishga harakat qildi. Glyuk dramaning (libretto) mazmuni asosida musiqiy partituranı yaratgan bo'lsa, Motsart esa librettoni o'zining musiqiy dramasi ga moslashtirdi, operaning aynan musiqiy imkoniyatlarini chuqurroq angladi va his qildi.

Motsart yaratgan opera qahramonlari sahnada insonning ma'lum xislatlarini ifoda etish bilan cheklanmay, balki tirik insonlar bo'lib namoyon bo'ladilar. Motsart o'z qahramonlarining hayotiyli gi, realligini asardagi so'zlar ma'nosidan, sahna voqealaridan va musiqiy xarakteristikalaridan olgan.

Librettochi Lorenzo da Ponte kompozitorga "Figaroning uylanishi" operasining sujetini taklif etadi. Motsartni sujetdagi hasham, hiylalardagi farosat, sahnadagi voqealarining harakatchanli gi, xarakterlarning boyli gi o'ziga rom etdi. Ammo, Avstriyada ushbu komediya man etilgan edi, shu bois Da Ponte librettodagi barcha ijtimoiy mavzularni olib tashladi hamda faqat quvnoq komediyani qoldirdi. Shu bilan birga spektaklni sahnalashtirish uchun shaxsan imperatordan ruxsat olib berishni ham o'z zimmasiga oldi. Ushbu mavzudagi operaning yaratilishini esa mualliflar hozircha sir saqlab turishga ahd qildilar.

Operaning qisqacha mazmuni.

Graf Almaviva uyida uning ikki xizmatkori - Figaro va grafniyaning oqsochi Syuzanning to'yiga tayyorgarlik boshlangan. Lekin Syuzanna grafning o'ziga ham yoqadi, shu sababli u doimo to'yni orqaga surishga harakat qiladi. Figaro o'zining aqli, farosati va ustomonli gi bilan oilaviy baxtiga to'g'anoq bo'layotganlarning barcha rejalarini buzadi. Xizmatkorlar xo'jayinni laqillatib, uni noqulay va kulgili ahvolga soladilar. Tahlikaga to'la o'tgan kun shod-xurram to'y bilan yakunlanadi.

"Figaroning uylanishi" maishiy-hajviy opera hisoblanib, Motsart opera teatri tarixida birinchi bo'lib sahnada harakatchan, ko'pqirrali xarakterlarni yarata oldi. Kompozitorning daholarcha yaratgan musiqasini aktyorlar ham katta hayajon bilan

qabul qildilar. Operaning eng mashhur nomerlari asarning uvertyrasi hamda Figaroning 1-harakatdagi “Harakatchan, jingalak soch, sevib qolgan bola” ariyasi hisoblanadi.

Operaning premyerasi 1786 yilning 1 may kuni katta muvaffaqiyat bilan o‘tdi. Keyinchalik ushbu opera Pragada sahnalashtirildi va Motsart o‘z oilasi bilan premyeraga yetib keldi. Spektakl shunday katta muvaffaqiyat qozondiki, Praga opera direksiyasi mualliflarga 200 dukat badaliga yangi opera yozib berish uchun buyurma berdi va istalgan mavzu tanlanishiga ham rozilik berdi. Motsartning Pragada o‘tgan ushbu davri nihoyatda baxtli bo‘ldi.

Motsartning keyingi “Don Juan” operasi uchun ayollarni o‘ziga rom etgan qahramon haqidagi o‘rta asrlar davri sujeti asos bo‘ldi. Operada harakatchan, qiziqqon, o‘zboshimcha qahramon Komandorga tartib va odob-ahloq qoidalarini mujassam etuvchi ilohiy kuchlar qarama-qarshi qo‘yiladi.

Operadagi fojiviylik va hajviylik, hayotdagi kabi, chambarchas uzviylikni tashkil etadi. Muallifning o‘zi ham operaning ana shu xususiyatini ta’kidlab, unga “quvnoq drama” deb sarlavha qo‘yadi.

1787 yili kompozitor Glyukning vafotidan so‘ng imperator farmoni bilan Motsart saroy kameramusiqachisi va raqslar yaratuvchisi sifatida ishga qabul qilinadi.

Motsart Gaydn kabi Vena klassik maktabining namoyondasi sifatida o‘z ijodida simfoniya janriga katta ahamiyat bergan. Ayniqsa, uning oxirgi uchta simfoniyalari – 1788 yilda yaratilgan № 39, № 40 va № 41 (“Yupiter”) simfoniyalari g‘oyat mashhurdir. Ushbu simfoniyalarda to‘rt qismli turkum hamda sonata shaklidagi ijodning qat’iy qoidalari uzil-kesil mustahkamlandi.

Motsartning 40 - simfoniyasi ushbu asarlar ichida eng keng tarqalgani hisoblanadi. Bu simfoniya o‘zining nihoyatda ko‘ngilga yaqinligi va lirik hischanligi bilan simfonik musiqada g‘oyat noyob hodisadir.

Motsart “Kichik tungi screnada” asarini Konstansiya bilan turmush qurganiga besh yil to‘lishi munosabati bilan yaratadi. Motsart otasidan qolgan mulkni garovga qo‘yib, qarz oladi va shu pul evaziga uyida mehmondorchilik tashkil etadi, ana shu kuni ushbu asar birinchi marta ijro etiladi.

Kompozitorning fortepiano uchun asarlari 19 ta sonata, shu bilan birga badihaga asoslangan va erkin shaklda yaratiluvchi asar – fantaziyalardan iborat. Ular ichida final qismi Turkcha marsh lya major sonatasi va re minor Fantaziyasi eng mashhur asarlar hisoblanadi.

Venada Motsart uchun haqiqatdan ham tarixiy bo‘lgan ikki uchrashuv sodir bo‘lgan: birinchisi Motsartning o‘quvchisi bo‘lish orzusida Venaga kelgan yosh Betxoven bilan uchrashuv bo‘ldi. Betxovenning fortepanodagi badihasini tinglagan Motsart avliyolarcha ushbu so‘zlarni aytgan: “Unga e’tibor bering! U hammani o‘zi haqida so‘zlashga majbur etadi!”

Ammo Betxovenning onasi vafot etadi va ikki buyuk musiqachilarning ijodiy muloqoti amalga oshmaydi: Betxoven Bonnga qaytib, oilani boqish tashvishlarini o‘z zimmasiga olishiga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchi uchrashuv buyuk kompozitor Yozef Gaydn bilan bo‘ldi. Ular 1785 yilda tanishadilar, bu paytda mashhur kapelmeyster 52 yoshda edi. Bu ikki ijodkorni o‘zaro katta xayrixohlik va ijodiy do‘stlik bog‘laydi. Motsartning iqtidorini tushungan va qadrlagan kam sonli kishilardan biri Gaydn bo‘lgan. Motsart yaratgan oxirgi opera “Sehrli nay” bo‘lib, kompozitorning eng yuksak asarlaridan biridir. Opera musiqiy falsafiy ertak bo‘lib, asar musiqasida yorug‘lik(kohin Zarastro) va qorong‘ulik(tun Malikasi) obrazlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Mashhur kompozitor va katta iqtidor egasi bo‘lishiga qaramay, Motsart kundalik hayotda nihoyatda soddadil bo‘lgan, uning bag‘rikengligidan foydalanib, aldab ketganlar ko‘p bo‘lgan. Motsartni Zalsburgdan tanigan teatr xo‘jayini Shikaneder ham shunday qiladi. U inqirozga uchraydi va Motsartdan yordam so‘rab, tomoshabinlarni qiziqtirish uchun turli ajoyib o‘zgartirishlarga boy quvnoq zingshpil yozib berishni so‘raydi. Motsart “Sehrli nay” operasini bepul yozib beradi, u partiturani keyinchalik sotish maqsadida qaytarib berishlarini so‘raydi.

Shikaneder “Sehrli nay” operasi bilan o‘z ishlarini yo‘lga qo‘yib oladi, muallifga mehnati uchun haq to‘lamay, partiturani ham sotib yuboradi.

Tez orada “Sehrli nay” asari butun Germaniya bo‘ylab tarqaladi va eng mashhur operaga aylanadi. Muallifning vafotidan keyingi bir yil ichida u yuz marta, uch yildan so‘ng esa uch yuz marta sahnada ijro etiladi!

“Sehrli nay” operasining yorqin poeziyasi kompozitorning oxirgi shodliklaridan biri bo‘ldi: bu davrida Motsart og‘ir betob edi.

Operani tugatishdan avval Motsart ko‘ngilsiz sharoitda Rekviyem asari yaratish uchun buyurtma oladi. Kompozitorning oldiga qora kiyingan kishi kelib, Rekviyemga buyurtma beradi, bu tashrif kompozitorga noxush ta’sir etadi. Muhtojlik, tashvishlar, o‘z ahvolidan norozilik uning kayfiyati va sog‘lig‘iga yomon ta’sir eta boshlaydi. Xushchaqchaq va beparvo Motsart tund bo‘lib qoladi, ko‘pincha Rekviyemni o‘zi uchun yozayotganini aytadi.

Rekviyem – orkestr jo‘rligidagi xor va yakkaxon ovozlari uchun yaratilgan motam xarakteridagi asar hisoblanadi. Avvallari rekviyem katolik cherkovida ijro etiladigan motam messasi bo‘lib, keyinchalik konsert asariga aylandi.

Buyuk kompozitor Rekviyem asarini tugata olmagan, barcha tugatilmagan qismlarni uning o‘quvchisi Zyusmayer oxiriga yetkazadi. Zyusmayer ustozining barcha ko‘rsatmalariga astoydil amal qilib, Rekviyemni genial muallif qanday eshitgan bo‘lsa, shunday yozishga harakat qiladi. Motsartning vafotidan bir kun ilgari do‘stlari uning yoniga yig‘ilib, qoralangan eskizlar asosida Rekviyemning ba’zi qismlarini ijro etadilar.

Motsartning vafoti hozirgi kungacha turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Buyuk kompozitorning Salyeri tomonidan zaharlangani haqidagi afsona hozir ham o‘z tarafdorlariga ega, ammo bu mulohazani tasdiqlaydigan dalillar ham yo‘q.

Motsartni kambag‘allar uchun mo‘ljallangan umumiy qabrga dafn etganlar. Shu tarzda zamondoshlar davrning eng ko‘zga ko‘ringan kishilaridan birini oxirgi yo‘lga kuzatdilar. Muhtojlik, kambag‘allik, ertangi kun haqidagi to‘xtovsiz tashvishlar kompozitorning hayotdan bevaqt ko‘z yumishiga sabab bo‘lib, o‘z iqtidorining eng gullagan vaqtida, hayotining o‘ttiz oltinchi yoshida olib ketdi.



Motsartning bolaligidan boshlab butun hayoti musiqa olamida o'tdi. Uning juda erta namoyon bo'lgan iqtidori mislsiz bo'lib, hech qachon pasaymagan. Bolaligida ham, o'smirlikda ham va yetuk musiqachi bo'lganda ham ijodkor doimiy harakatdan to'xtamagan hamda biror asarida o'zini qayta takrorlamagan.

Motsartning iqtidori o'zining tabiiyligi va yengilligi bilan doimo baxtli hodisa deb baholangan. Kompozitor musiqani oson, tez, ba'zan qora yozmasdan yaratib, badiiy go'zalligi va uyg'unligi tengsiz bo'lgan asarlarni ijod etgan. Ammo ko'rinishdagi bu yengillik kompozitorning butun kuch-quvvatini olib, doimiy tang holatda ushlagan. Bu ma'noda Motsartning ajoyib iqtidori o'zi uchun aslo yengil bo'lmagan.

Motsartning musiqasi eng yuksak yetuklik, oddiylik, shakl va mazmun go'zalligining mutloq uyg'unligi sifatida qabul qilinadi.

Ijodiy merosi:

17 ta opera

Balet "Bezdelushki"

Oratoriyalar

3 ta kantata

Rekviyem

18 ta messa

50 ta simfoniya

Fortepiano va orkestr uchun 21 ta konsert

Skripka va orkestr uchun 5 ta konsert

60 ta kamer ansambllar

Fortepiano uchun 20 ta sonata

Skripka va fortepiano uchun 35 ta sonata

Fortepiano uchun 4 ta fantaziya, 3 ta rondo, 15 ta variatsiya

40 ta qo'shiq

“V.A.Motsartning ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Motsart qanday oilada tug‘ildi?
2. Motsart necha yoshida musiqa yarata boshlagan?
3. Motsart musiqachilar uchun eng oliy mukofotni necha yoshida olgan? Bu mukofot qanday nomlangan?
4. Motsartning nemis tilidagi birinchi operasi qanday nomlanadi?
5. Motsartning uchta eng yetuk operalarini ayting.
6. Motsartning eng mashhur simfoniyasini aniqlang.


Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.
6. Levik B. Chet el musiqasi tarixi. – T.: 1986.

Ludvig van Betxoven

(1770-1827)

Ludvig van Betxoven musiqa tarixida mutafakkir va ixtirochi sifatida nom qoldirdi. Betxovengacha kompozitorlar yangi musiqiy mavzular yaratishdan ko'proq, taomilga tushgan va odatiy bo'lgan ohanglarni o'z yo'llarida qayta ishlab chiqardilar.



Kompozitor birinchi bo'lib mavzu konsepsiyasini jamlangan obrazni ifodalovchi g'oya sifatida oldinga surdi.

Betxoven musiqiy obrazni haykaltarosh kabi o'yib olar edi, bu borada uning ijodini Mikelandjelo ijodiga taqqoslash mumkin.

Betxoven feodal tabaqalanish xurofotlarining inqirozga uchrashi hamda yangi ijtimoiy tuzimga o'tish davrida yashadi. U o'z ijodi bilan insoniyat uchun porloq kelajakni yaqinlashtirishi mumkin, deb sidqidildan ishonadi.

Betxoven davri – umumbaxt uchun, tenglik va birodarlik ideallarining qaror topishi uchun kurashchilar davri edi. Bu ijtimoiy romantiklar insoniyat baxti uchun hatto o'z hayotlarini qurbon qilishga ham tayyor edilar. Betxoven o'sha davrda chin yurakdan kurashning baxtli va sharafli yakuniga ishonar hamda ularni simfoniyaalarida tasdiqlar edi.

Kompozitor o'z ijodining kim uchunligini aniq bilardi: u butun insoniyat uchun ijod qilmoqda. Aynan Betxoven ijodi bilan musiqa san'atiga ijtimoiy muammo mavzusi kirib keldi.

Betxoven musiqa san'atida o'zining mavzusini: kurash va g'alaba mavzusini yaratdi. Kompozitor musiqada feodal qaramlikdan ozod bo'lgan yangi kishining psixologiyasini ochib berdi. Betxoven musiqasining qahramoni o'z xalqi, uning ozodligi uchun hayotini berishga tayyor insondir.

Kompozitorning ijodi Buyuk fransuz inqilobidan turtki olgan, shu bois uning simfoniya va sonatalarida ommaning harakati, fig'oni, faryodi eshitiladi, musiqasida kurash ruhi mavjud.

Betxoven musiqiy estetikasining asosini ijtimoiy tengsizlik zulmi ostida ezilgan, hayotning chuqur va og'ir azoblarini tortgan inson obrazi tashkil etadi. Kompozitor asarlarining qahramoni kurashning zarurligi, iztiroblar orqali g'alaba va shodlikka olib kelishiga ishonch ruhini o'zida mujassam etadi.

Betxoven 9 ta simfoniya, orkestr uchun 2 ta uvertyura, fortepiano uchun 5 ta konsert, fortepiano uchun 32 ta sonata va ushbu cholg'u uchun ko'plab boshqa asarlar yaratgan.

Kompozitor ijodida sahna musiqasi ham mavjud bo'lib, u "Fidelio" nomli opera, "Prometeyning ijodi" baleti hamda I.Gyotening "Egmont" dramasiqa musiqqa yaratgan. Betxoven xor asarlari va yakka vokal lirikasida ham ijod qilgan, ammo ijodining asosini simfoniya va fortepiano sonatalari tashkil etadi.

Betxoven musiqqa tarixida birinchi bo'lib simfoniya falsafa va adabiyot bilan bir qatarga qo'ydi. U o'z musiqasida hayot qarama-qarshiliklarning birligi va kurashidan iboratligini ko'rsatdi.

Ludvig van Betxovenning hayotiy va ijodiy davri quyidagicha:

Birinchi davr: "Bonn davri" – 1770 - yildan to 1792-yilgacha.

Ikkinchi davr: "Ilk Vena davri" yoki birinchi Vena o'n yili – 1792-yildan to 1802- yilgacha.

Uchinchi davr: "Markaziy" – 1802-yildan to 1812-yilgacha, barcha musiqiy janrlarda shijoat bilan ijod qilgan o'n yillik davr; jamiyat tomonidan tan olinish davri.

To'rtinchi davr: "Oxirgi" – 1812-yildan to 1827-yilgacha; to'liq garanglik, yolg'izlik davri.

Betxoven 1770-yili Germaniyaning Bonn shaharchasida musiqachi oilasida tug'ildi. Uning otasi saroy kapellasida qo'shiqchi, buvasi esa shu joyda

kapelmeyster bo'lib xizmat qilgan edi. Bo'lg'usi kompozitorning otasi iqtidorli musiqachi bo'lgan, ammo yengiltak kishi bo'lib, ichkilikka berilgan edi.

Buvasining vafotidan keyin oilaning iqtisodiy ahvoli keskin yomonlashdi. Betxovenning otasi Ludvigni ajoyib vunderkind bolaga aylantirib, uning orqasidan mablag' to'plashni maqsad qildi: yosh Motsartning yutuqlari unga tinchlik bermagan.

Musiqiy tarbiya uslublarining qanchalik noto'g'ri bo'lishiga qaramay, Betxoven 8 yoshida yaxshi pianinochi bo'lib yetishadi, skripka va altda chalishni ham o'zlashtiradi. Bo'lg'usi kompozitor umumta'lim maktabiga atigi besh yilgina borgan: u maktabda o'qish, lotin tili va arifmetikani o'rgangan.

12 yoshidan boshlab Betxoven musiqani o'ziga kasb qildi: u har kuni Bonn shahar cherkovida organ chalar edi.

Betxovenning 1782 - yilda Kristian Nefe bilan uchrashuvi hayotidagi baxtli hodisa bo'ldi. Mahoratli pedagog, kompozitor va organchi Nefe bolada ajoyib musiqachini ko'ra oldi, iqtidorining o'ziga xosligini tushundi. Nefe Betxovenni I.Bax, G.Gendel, Y.Gaydn, V.Motsart kabi yuksak kompozitorlarning eng sara asarlari bilan tanishtirdi, bu bilan yosh musiqachining mustaqil ijod qilishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ikki yildan so'ng Betxoven saroy organchisi sifatida xizmatga qabul qilindi.

Betxoven 17 yoshida Motsartning shogirdi bo'lish niyatida Venaga bordi. Ikki yirik musiqachilar uchrashdilar: yosh musiqachi Motsartda katta taassurot qoldirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq uning o'quvchisi bo'lish Betxovenga nasib bo'lmadi: Bonnda uning onasi og'ir kasal bo'lib qoladi, yosh musiqachi uyga qaytishga va butun oilani ta'minlash tashvishlarini o'z zimmasiga olishiga to'g'ri keldi. Bonnga qaytib kelgach, Nefening maslahati bilan universitetga erkin tinglovchi sifatida o'qishga kirdi.

Fransiyada ozodlik, tenglik va insoniyataro birdamlikni e'lon qilgan inqilob amalga oshganda Betxoven 19 yoshda edi. Qirol hukmronligi va tabaqalanish xurofotlariga qarshi ko'tarilgan xalq harakatlari yosh musiqachining qalbida qaynoq javob topdi. U turli rejalariga to'la bo'lib, chekka Bonn shahri unga torlik qila boshladi. Angliyadan Venaga qaytayotgan dunyo miqyosida mashhur bo'lgan

buyuk kompozitor Yozef Gaydn bilan uchrashuv Venaga borib, taniqli maestroga shogird bo'lish maqsadini yanada mustahkamladi.

Venada Betxoven tez vaqt ichida mislsiz pianinochi-badihachi sifatida katta va uzil-kesil muvaffaqiyatga erishdi. Unga barcha oqsuyaklar xonadonlari va salonlarining eshigi ochildi. Shu bilan birga Betxoven o'zining musiqiy ma'lumotini ham davom ettirdi: yosh musiqachiga nazariya va kompozitsiya amaliyoti bo'yicha Yozef Gaydn saboq berdi, teatr uchun musiqa yozishni esa A.Salyeri o'rgatdi.



Gaydn bilan mashg'ulotlar uzoq davom etmadi: ustoz va shogird turli davr kishilari edi. Gaydnni o'quvchisining siyosiy qarashlaridan tashqari, yaratgan musiqasining xarakteri ham cho'chitar edi.

Venada o'tgan birinchi o'n yilda (1792-1802) Betxoven tinimsiz ijod qiladi. Shu yillar u turli janrlarda 100 dan ortiq asarlar yaratadi: skripka va fortepiano uchun 9 ta sonata, fortepiano uchun 3 ta konsert, "Prometeyning ixtirosi" baletiga musiqa, fortepiano uchun 17 ta sonata, ularning ichida mashhur "Patetik" va "Oydinli" sonatasi va boshqa asarlar.

Betxoven fortepiano uchun Sakkizinchi - "Patetik" sonatani 1798 - yili yaratgan: "Katta patetik sonata" nomi kompozitorning o'ziga tegishli. "Patetik" so'zi "ko'tarinki, yuqori kayfiyat bilan" degan ma'noni bildiradi. Zamondoshlar tomonidan sonata juda jasur asar sifatida kutib olindi. Betxoven yaratgan sonatalarning musiqa xarakteri yanada ma'noli va chuqur bo'lib bordi.

1801-yilda o'n to'rtinchi do-diyez minor fortepiano sonatasi yaratildi. Keyinchalik bu sonatani "Oydinli" yoki aniqrog'i, "Oy nuri sonatasi" deb atay boshladilar. Sonataning nomini romantik shoir Ludvig Relshtab yaratdi. Tasodifan topilgan manzarali obraz sonataning mazmuniga to'liq mos bo'lmasada, bir umrga sonata uchun nom bo'lib qoldi.

Sonata "Deyarli fantaziya" degan mualliflik sarlavhaga ega. Ushbu asarning o'ziga xosligi shundaki, u og'ir tempdagi qism bilan boshlanadi. Sonata asosida uch

marta qaytariladigan tovushdan iborat mavzu yotadi: bu Betxoven uchun xarakterli usuldir.

O'ziga xos ushbu sonataning dramaturgiyasi quyidagicha tuzilgan: og'ir tempdagi boshlanish (o'y-fikr, chuqur g'am) qismi nazokatli o'rta qism bilan almashadi (hayolot, dunyoning go'zalligidan zavq olish), uchinchi qism shiddatli dramatik finalga olib keladi (his-tuyg'ular tug'yoni, taqdirning fojeali obrazlari). Sonataning eng mashhur bo'lgan birinchi qismini asosli ravishda "XIX asrning birinchi Nokturni" deb atash mumkin.

Betxoven simfoniya janrida ham samarali ijod qilib, Birinchi simfoniyasini 1800 - yilda yaratadi, Bu yosh kompozitorning original asari bo'lib, uning uslubiga xos bo'lgan jihatlarga egadir.

Kompozitor katta shon-shuhratga ega bo'lib, o'zi istagan barcha narsaga deyarli erishgan vaqtda yangi sinovga duch keladi: Betxovenning eshitish qobiliyati ancha pasayadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi 1797 - yilda ayon bo'la boshlagan edi. Kompozitor uchun bu dahshatli zarba bo'lib, avvaliga kasallikning davosizligi hamda eshitish qobiliyatini butunlay yo'qotishini o'ylab, vrachlarga murojaat qilishga ham qo'rqadi.

Vrachlarning maslahati bilan Betxoven deyarli yarim yil Vena yaqinidagi osuda joy - Geyligenshtadtda o'tkazadi. Aynan shu yerda Betxoven hayotidagi eng mudhish inqiroz yuz beradi. Kasallikning davosizligiga amin bo'lgan kompozitor hayotdan ko'z yumishga ahd qiladi va 1802 - yili Geyligenshtadtda vasiyatnoma yozadi.

Irodaning mistsiz kuchi bilan Betxoven umidsizlikni yenga oldi hamda yashash va yana musiqa yaratish uchun o'zida kuch topa oldi. Betxoven kasallik bilan bo'lgan kurashdan yanada kuchliroq va maqsad sari intiluvchanroq shaxs bo'lib chiqdi.

Bu shiddatli inqirozning musiqiy natijasi 1803 - yilda yozilgan Uchinchi simfoniya ("Qahramonlik") bo'ldi. Betxoven o'zining yangi tantanali simfoniyasini Napoleon Bonapartga bag'ishlamoqchi bo'ladi, u kompozitorga xalq ommasini o'ziga ergashtirgan haqiqiy qahramon bo'lib ko'rinadi. Ammo "inqilob generali"

o'zini imperator deb e'lon qilganidan so'ng, Betxoven Bonapartga bag'ishlovni olib tashlab, o'miga "Qahramonlik" degan bitta so'zni yozib qo'yadi.

Uchinchi simfoniyada Betxovenning cheksiz va ajoyib daho kuchi birinchi marta o'zini namoyon qiladi. Simfoniya an'anaviy tarzda to'rt qismdan iborat, ammo simfoniyaning hajmi zamondoshlar tomonidan haddan tashqari katta, musiqasi esa zerikarli va tushunarsiz deb qabul qilingan. Yillar o'tgandan keyingina bu genial asarning mazmunini – inson irodasining mustahkamligi, alam va umidsizlikni yengishga bag'ishlangan gimn sifatida yaratilgan asar ekanligini tushuna olgan o'z tinglovchisini topdi.

Qahramonlik avval ham kompozitorlar yaratgan musiqiy obrazlar doirasiga kirgan, ammo Betxovengacha qahramonlikning xarakteri butunlay boshqacha edi. Musiqiy san'atda ularning qahramonlari xudolar, imperatorlar bo'lgan.

Betxoven ijodining yetuk davrida yaratgan asarlarida qahramonlik g'oyasi tomosha zaliga ko'chadi. Kompozitor xalqning haqiqiy siyosiy kuch sifatida o'zini anglashini, Fransuz inqilobi davrida xalq ommasining qahramonona kayfiyatini o'z musiqasida ko'rsata oldi.



Betxoven ijodining yetuk davrida musiqani faqat emotsional ishtiyoq bilan emas, ko'proq yetuk fikrlash, o'z faoliyatining insoniyat uchun zarurligiga ichki ishonch tuyg'usi bilan yaratdi. Uning asarlarida birinchi marta fikr musiqaga, musiqa esa fikrga aylanadi.

"Qahramonlik simfoniyasi"ning premyerasi yilida (1805) Betxoven o'zining yagona operasi - "Fidelio" ni yaratadi.

Asar haqiqiy voqea asosida yaratilib, siyosiy mahbus bo'lgan turmush o'rtog'ini o'limdan olib qolgan ayolning fidokorona qahramonligi mavzusiga bag'ishlanadi. Voqea XVII asrda Ispaniyada bo'lib o'tadi. Qahramonona jasorat mavzusi, oilaviy muhabbat kuchining tarannum etilishi va zulmga qarshi kurash mavzulari Betxovenni o'ziga jalb etdi. Biroq opera katta muvaffaqiyatga erishmadi, uni teatr repertuarida

saqlab qolish uchun kompozitor uch marta qayta ishlab chiqadi. "Fidelio" operasi 1814 - yil may oyida uchinchi tahrirda teatrdan sahnalashtirildi.

Kompozitorning simfonik ijodida Beshinchi simfoniya alohida o'rin tutadi va asosli ravishda kompozitorning eng mashhur simfoniyasi hisoblanadi. Asar 1808 yilda tugatilgan bo'lib, uni garang kompozitor yaratganiga ishonish qiyin. Simfoniya to'rt qismdan iborat bo'lib, barcha qismlarda to'rtta tovushdan iborat bo'lgan qisqa va shiddatli mavzuga asoslanadi. Simfoniyaning final qismi g'alaba qozongan xalqning ulkan bayram shodiyonasi kabi tantanali va zafarli yangraydi.

Betxoven nemis ijodkori I.V.Gyotening "Egmont" dramasi uchun yozgan musiqasini 1810 - yilda tugatadi. Asar voqealari XVI asrga, Niderlandiya xalqining ularni bosib olgan ispaniyaliklarga qarshi kurashga o'tlangan davriga taalluqlidir. Bu kurashga qo'rqmas va jasur inson, graf Egmont boshchilik qiladi, garchi qahramon halok bo'lsadi, xalq Egmont boshlagan ishni oxiriga yetkazadi: 1567 - yili isyonkorlar g'alaba qozonadilar, 1609 - yilda esa Ispaniya Niderlandiyaning mustaqilligini tan oluvchi o'zaro kelishuv imzolandi. Asar asosidagi fojia Betxovenni o'zining qahramonlik mazmuni bilan jalb etdi va kompozitor ushbu asarni maromiga yetkazib yaratdi.

Betxovening qator simfoniylariga muallif sevgan dramaturgik konsepsiya xosdir: "Qorong'ulikdan yorug'likka, kurash orqali - g'alabaga!". Bu g'oya ayniqsa Gyotening "Egmont" fojiasi asosida yaratilgan operaning mashhur uverturasida (1810) va Beshinchi do minor simfoniya yorqin namoyon bo'ldi (1808).

Kompozitorning 1808 - yilda yaratgan oltinchi, "Pastoral" simfoniya mualliflik sarlavhasi mavjud: "Qishloq hayotidan esdaliklar". Ushbu simfoniya programmali asar bo'lib, unda ichki iztiroblar va kurashdan ozod bo'lgan inson qalbining turli holatlari tasvirlanadi. Simfoniya tabiat hamda qishloq hayoti bilan yondoshlikdan hosil bo'lgan his-tuyg'ularni ham ifodalaydi.

Ushbu simfoniyaning tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, u an'anaviy to'rt qism o'rniga beshta qismdan iboratdir. Ularning har biri o'z programmali nomiga ega. Ushbu simfoniya kompozitor qushlar sayrashi, momoqaldiraq gumburlashi kabi tovush namoyishligi elementlarini ham kiritadi.

Betxoven ijodining yetuk davrida yaratgan fortepiano sonatalaridan eng mashhuri “Appassionata” hisoblanadi. Bu asar 1806 - yilda yaratilgan bo‘lib, uni haqli ravishda “forteplano uchun simfoniya” deb ataydilar. “Appassionata” Betxovenning eng mahoratli, ijro uchun texnik jihatdan murakkab sonatalaridan biri hisoblanadi.

Asta-sekin garanglik Betxovenni tashqi dunyodan chetlashtira boshlaydi, u o‘z qobig‘iga o‘ralgan, tund va yolg‘iz bo‘lib qoladi. 1812 - yilda kompozitorning ijodiy shijoati biroz pasayadi. Shunga qaramay, Betxovenning mashhurligi o‘zib boradi, u yanada ko‘proq tan olina boshlaydi.

Ammo Betxoven mashhurlik bilan ishi yo‘q edi, u butun hayoti, bukilmaz irodasi va xarakteri bilan ijodkorlar ichida birinchilardan bo‘lib nemis jamiyati oldiga qaram bo‘lmagan hamda mustaqil kompozitor shaxsi muammosini qo‘yadi.

1819 - yilda Betxoven butkul garang bo‘lib qoldi, endi eshitish moslamalari ham yordam bermas edi. Unchalik ko‘p bo‘lmagan suhbatdoshlar bilan muloqot qilishda yozuv daftarchalaridan foydalanishga to‘g‘ri keldi.

Betxoven ijrochi sifatida jamoa konsertlaridan to‘liq voz kechishga majbur bo‘ldi, endi kompozitor o‘z asarlarining ijrosini boshqa pianinotchilarga topshirdi.

Betxoven hayotining oxirgi davrida yaratgan asarlari uchun his-tuyg‘ularning bosiqiligi va falsafiy mushohada xaraterli bo‘ldi. Bu asarlar ilk va o‘rta davr ijodi uchun xarakterli bo‘lgan ehtirosli hamda dramatik asarlardan ancha farq qiladi.

“Tantanali messa” va F.Shillerning “Quvonch odasi” matni asosida xor bilan ijro etiladigan To‘qqizinchi simfoniya kompozitorning oxirgi irod davrida yaratilgan yirik asarlaridan hisoblanadi. Betxoven 23 yoshida ushbu odaga musiqa bastalashni o‘ylagan edi, lekin oradan 20 yil o‘tgandan keyingina To‘qqizinchi simfoniya finalida ushbu oda uchun munosib joy topildi.

Shu davrgacha barcha simfoniyalar istisnosiz orkestr uchun yaratilgan edi. Betxoven o‘z g‘oyalari amalga oshirish maqsadida simfoniya ijrosiga xor, to‘rtta yakkaxon va ulkan orkestrni jalb etdi.

Kompozitor quvonch tuyg‘usini tabiatning uyg‘unligidan zavqlanish, umumbirodarlik hissi va barcha insonlarning tengligini anglashda deb tushungan.

Betxoven Shillerning matnini musiqaga solishda g'alabaga intilgan inson irodasi madh etilgan qismlarni tanlab oladi. Shu tarzda kompozitor originaldan farq qiluvchi o'zining "Quvonch odasi"ni yaratadi.

Muallifning g'oyasini amalga oshirish uchun simfonik orkestr tarkibini deyarli ikki baravar oshirishga to'g'ri keldi. Xor partiyalarining har biri (bas, tenor, alt va soprano) 24 vokalistdan iborat bo'lib, bu barcha doimiy miqdorlardan ortiq edi.

Betxovenning oxirgi akademiyasi (o'sha davr yakka mualliflik konsertlari shunday atalgan) 1824 - yilda o'tdi. Aynan shu konsertda To'qqizinchi simfoniya birinchi marta ijro etildi va akademianing muvaffaqiyati mislsiz bo'ldi. Tinglovchilar kompozitorni ovatsiyalar bilan olqishladilar. Olqishlar shunchalik uzoq davom etdiki, politsiyachilar to'xtatishni talab qildilar: bu kabi hurmat faqat imperatorga ko'rsatilishi mumkin edi.

Simfoniyaning oxirgi so'zlari barcha kishilarga qarata aytiladi: "Quchoq ochingiz, millionlar!". To'qqizinchi simfoniya finalidagi quvonch mavzusi zamon o'tishi bilan Yevropa hamdo'stligining musiqiy ramziga aylandi.

Hayotining oxirgi yillari Betxoven yolg'izlikdan juda qiynaldi: uning ko'p do'stlari vafot etdilar. Kompozitor ukasining vafotidan so'ng uning o'g'li Karlni asrab olishga muvaffaq bo'ldi. Betxoven jiyanini eng yaxshi pansionlarga joylashtirdi, unga yaxshi ma'lumot berishga harakat qildi. Ammo orzulari amalga oshmadi: Karl be'mani inson bo'lib o'sdi, u buyuk kompozitor hayotining oxirgi yillarini ham zaharladi.

Betxoven og'ir kasallik – jigar sirroziga chalinadi. Uch yarim oy davosiz kasal bilan kurash davom etdi, kompozitor uch marta operatsiya qilindi, ammo dardi davosiz bo'ldi. Buyuk fuqaro va kompozitor 1827 - yil 26 mart kuni vafot etdi, ijodkorni oxirgi yo'lga 20 mingdan ortiq kishi kuzatib bordi.

Yillar davom etgan ijodiy yolg'izlik, ishongan ideallarining qulashiga qaramay Betxovenning yaratgan musiqasi umidsizlik va tushkunlikdan begonadir. Kompozitor fransuz inqilobi ideallariga umrining oxirigacha sodiq qoldi.

Betxovenning butun hayoti o'zini to'la huquqli fuqaro sifatida anglagan buyuk musiqachining hayotidir. Betxovenning ijodi va butun hayoti shuni tasdiqladiki, inson har qanday sharoitda ham baxtli bo'lishi mumkin va shart.

Ijodiy merosi:

“Fidelio” operasi

“Prometey qahramonligi” baleti

1 ta oratoriya

2 ta messa

Kantata va xorlar

9 ta simfoniya

11 ta uvertyura

Fortepiano va orkestr uchun 5 ta konsert

Skripka va orkestr uchun 1 ta konsert

Fortepiano, skripka, violonchel va orkestr uchun 1 ta konsert

60 ta kamer ansablari

Fortepiano uchun 32 ta sonata

32 ta variatsiya

Fortepiano va skripka uchun 10 ta sonata

Fortepiano va violonchel uchun 5 ta sonata

90 ta qo'shiq va boshqa asarlar

“L. van Betxoven ijodi” mavzusi bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Betxovenning nechta simfoniyasi bor?
2. 9 - simfoniyaning o'ziga xosligi nimada?
3. Betxovenning sahna asarlarini aytib bering.
4. Betxoven ijodining davrlari qanday belgilangan?
5. Betxovenning bolaligi qanday o'tgan?
6. Betxoven ijodining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.
6. Levik B. Chet el musiqasi tarixi. – T.: 1986.

G'arbiy Yevropa romantik kompozitorlari ijodining o'ziga xos xususiyatlari

XVIII asr davri musiqasida hukmronlik qilgan klassitsizm romantizmga o'z o'rnini beradi. Badiiy yo'nalishlarning almashinuvi Yevropa hayotidagi ikki asr bo'sag'asida sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar natijasi bo'lib, 1879 - yildagi buyuk Fransuz inqilobi yakunlari keng jamiyat qatlamlarini qoniqtirmagan edi. Feodal-mutloq monarxiya o'rniga kelgan burjua tuzumi avvalgidan ham beshavqat ekspluatatsiya shakllari bilan ajralar edi. "Ozodlik", "Tenglik va birodarlik" tamoyillari amalda hayotot orzusi bo'lib chiqdi, ongning ideal hukmronligi to'liq inqirozga uchradi

Eng oliy umidlari puchga chiqqan hamda haqiqat bilan kelisha olmagan yangi davr ijodkorlari hodisalarning yangi tartibiga qarshi o'z noroziliklarini obyektiv ravishda bildirdilar. Shu tarzda yangi badiiy yo'nalish - romantizm tarkib topdi.

Adabiyotda 1796-1830 yillar romantizmning oltin davri deb hisoblanadi. Musiqada romantizm XIX asrning 20-yillarida K.M.Veber (1786-1826), F.Shubert (1797-1828), G.Berlioz (1803-1869) ijodida shakllandi. Musiqiy romantizmning gullagan davri XIX asrning 30-yillarida F.Shopen (1810-1849), R.Shuman (1810-1856) ijodida namoyon bo'ladi. 50-yillarda romantizm F. List (1811-1886) va R. Vagner (1813-1883) ijodida keyingi rivojiga yetadi.

Musiqa romantiklar tomonidan ideal san'at turi deb e'lon qilindi. Hissiyotning ondan ustivorligi romantizm davrining asosiy mavzu va xususiyatidir. Romantik musiqaning asosiy jihati hissiyotning yuqori darajada ifodaviyligi, hayajonning, ko'tarinkilik, rang-baranglikning alohida darajasi bilan belgilanadi.

Yangi hayot tarzining tanqidi romantiklarda katta kuch bilan namoyon bo'ldi. Qahramonning uni o'rab turgan atrof muhit bilan fojiali kelishmovchiligi romantik san'atning asosiy mavzusidir. Bu mavzu yetishib bo'lmaydigan go'zal dunyo (hayot), tabiatning yetukligidan zavqlanish, tushunilmagan, yolg'iz shaxsning sayohatlari, darbadarligi mavzulari haqidagi motivlar kesimida ko'rinadi.

Romantiklar real davrning pastkashligi va bachkanaligiga qarama-qarshi tabiatni, dinni, afsonaviy uydirmalarni, xalq ijodini, lekin hamma narsadan ko'proq – ikkinchi reallik – o'zlarining shaxsiy ichki dunyosini qo'yдилar. Romantiklar ichki dunyo haqidagi tasavvurlarni nihoyatda boytdilar.

Romantizm san'atda hissiyotning yangi madaniyatini kashf etdi. Adabiyot va san'atda his-tuyg'ularning o'ziga xos ko'rinishiga ega bo'lgan yosh zamondoshning - qahramonning lirik iqrrolari mavzusi alohida o'rin tutdi. Bu kabi qahramonni ifoda etish klassik davr ta'biridan yiroq edi. Romantiklar qahramonning takrorsiz individual ko'rinishini ifoda etishning yangi uslubini uning biografiyasi orqali tasvirladilar. Ko'plab romanlar, sagalar, novellalar, kundalik satrlarining paydo bo'lishi bunga dalil bo'la oladi.

Musiqa san'atida yangi obrazlar va his-tuyg'ularning yangi madaniyatini ifoda etish kompozitordan matnga murojaat qilishni talab etdi. Romantizm dasturli musiqaning gullagan davri hisoblanadi.

Romantik san'atning umumiy tendensiyasi xalq folkloriga qiziqish bo'ldi. Milliy folklorning chuqur o'zlashtirilishi va detallarda o'rganilishi badiiy obrazlar ko'lamini kengaytirdi, uni shu davrgacha noma'lum bo'lgan qahramonlik eposi, qadimiy afsonalar, she'riyatdagi obrazlar bilan to'ldirdi. Musiqa san'ati uchun bu katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yevropa san'atida milliy musiqa maktablarining gullashi aynan romantizm davriga to'g'ri keladi, ulardan F. Shopen boshchiligidagi polyak, F.List

boshchiligidagi vengr, M.Glinka boshchiligidagi rus, B.Smetana boshchiligidagi chex milliy maktablari aynan romantizm davrida shakllandi.

Romantizm musiqasining shakllanish jarayoniga shahar muhiti jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy o'zgarishlarni olib kelgan burjua inqilobidan avval kompozitorlik ijodining asosiy o'rni cherkov yoki saroy muhiti bo'lgan edi. Endi ularning o'rnini konsert zallari, o'quv dargohlari, salonlar, nashriyotlarga ega bo'lgan shahar egalladi.

Shahar musiqiy muhitining o'z kamchiliklari ham bor edi. Mayda burjuaziya badiiy ijodning asosiy iste'molchi va talabgorlari bo'lib, ularning tor doiradagi didi o'sha davrda idealdan ancha yiroq edi.

XIX asr romantik musiqasida simfoniya va sonata ikkinchi o'ringa o'tdi. Romans va fortepiano miniatyurasi asosiy yetakchi janrlar bo'lib qoldi. Ular maishiy musiqachilik madaniyatidan o'sib chiqdi va aynan ularda romantizm uslubining umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi.

Romantik musiqada fortepiano miniatyurasi janri nihoyatda turli-tumandir. Ular preludiya, etyud, fantaziya, Nokturn, eksrompt, musiqiy lahza kabi janrlardan iborat.

Romantik kompozitorlar ijodidagi raqs fortepiano miniatyuralarining gullashi ham shahar maishiy musiqasi bilan bog'liqdir. Shubertning valslari, Shopenning mazurka, polonez va valslari shahar maishiy musiqasini boyitishdagi eng yuqori natijalar bo'ldi.

Romantik musiqada fortepiano hamda skripka mahoratli ijro cholg'ulari bo'lib qoldi. Ushbu davrda N. Paganini, F. List, F. Shopen kabi mahoratli ijrochilar mashhur bo'ldilar.

Nikkolo Paganini (1782-1840) skripkada chalish san'atida yangi davrni ochgan, u ijrochi va kompozitor sifatida aynan romantik ijodkor hisoblanadi.

Paganini shaxsi haqida fantastik afsonalar mavjud bo'lib, bunga uning o'ziga xos "iblisona" ko'rinishi va biografiasining romantik lavhalari sabab bo'lgan edi. Paganinining ijrosi tomoshabinlarda o'zining haybatli mahorati hamda olovli

fantaziya va ehtirosi bilan o'chmas taassurot qoldirar edi. U skripkachilar ichida birinchi bo'lib konsert dasturlarini yoddan ijro eta boshladi.

Paganinining ko'plab asarlari hozirda ham skripka musiqasining mahoratli, tengsiz namunalari bo'lib qolmoqda. Ushbu asarlar romantizm davrining F.Shopen, R.Shuman, F.List kabi eng yirik pianistlarining kompozitorlik va ijrochilik uslubiga ulkan hissa qo'shdi.

Fortepiano cholg'usi uchta mamlakat: Italiya, Fransiya va Germaniyada deyarli baravar vaqtda paydo bo'ldi. Dinamika va rang bo'yoqlarining turli nyuanslari (pedal) gammasini hosil qilish, ulkan diapozon, kuchli, uzoq davomli va inson ovozigacha yaqin tovush hosil qilish imkoniyati fortepianoni XIX asr musiqasining yetakchi cholg'usiga aylantirdi. Agar XVII asr organ asri, XVIII asr simfonik orkestr asri bo'lsa, XIX asr fortepiano asri hisoblanadi.

Fransiyada klassik raqs texnikasining rivojlanishi romantizm balet san'atida yangi davrni ochdi. Romantik baletlarda (F.Tal'oni "Silfida", 1832) voqea odatda real va afsonaviy dunyoda parallel ravishda harakatlanar edi. Fantastika raqsni maishiy voqealar va taqlidlardan ozod etib, to'plangan texnik imkoniyatlar: sakramlar, tayanchlar va boshqalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Romantik baletlarda klassik raqsning yangi tuzilma shakllari paydo bo'ldi, birgalikdagi kordebalet raqslarining o'rni oshdi hamda yetakchi balerinaning ahamiyati o'sdi. Romantizm davri baletlarida raqqosaning doimiy kostyumi sifatida yengil tunik paydo bo'ldi. Baletlarda musiqaning ahamiyati kuchaydi, agar shu davrgacha balet musiqasi aksariyat to'plamlardan iborat bo'lsa, endi raqs harakati simfonizatsiyasi boshlandi.

Romantik baletning cho'qqisi "Jizel" baleti bo'lib, ushbu asar baletmeysterlar Koralli va Jyul Perro tomonidan 1841 - yilda sahnalashtirildi. Yangi tipdagi ushbu spektakl ko'p jihatdan adabiy manbaga asoslangan bo'lib, raqsda dramatik mazmun kuchaydi, harakat sahnalarining ahamiyati oshdi.

**“G‘arbiy Yevropaning romantik kompozitorlari ijodi” mavzusi bo‘yicha
savol va topshiriqlar**

1. G‘arbiy Yevropa romantik kompozitorlarni ayting.
2. Romantizm davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
3. Ushbu davrda qaysi cholg‘ular yetakchi bo‘ldi?
4. Romantizm davrida qanday yangi g‘oya va mavzular ko‘tarildi?
5. Balet san‘atida qanday yangiliklar amalga oshdi?
6. Ushbu davr qanday cholg‘u asri hisoblanadi?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Frans Shubert

(1797-1828)



G'arbiy Yevropa musiqa san'atida romantizm davrining birinchi namoyondasi Avstriya kompozitori Frans Shubert bo'ldi. U Vena klassik maktabining eng yaxshi an'analarini o'zlashtirdi.

Klassitsizm davrining oxirgi namoyondasi bo'lgan Betxoven Shubert bilan bir davrda Venada yashab ijod qilgan. Ammo bu ikki musiqiy daho atrof dunyoni musiqada turlicha tushunib, o'zgacha ohanglarda aks etganlar.

Shubert Betxovendan so'ng atigi bir yil yashadi, ammo uslub jihatidan undan ellik yillarga o'tib ketdi. Kompozitor musiqa san'atida yangi yo'l ochuvchi musiqiy daholardan biri edi.

Amaliy jihatdan Shubert Betxoven tatbiq etgan musiqiy ifoda vositalaridan foydalangan, ammo Shubertning musiqasi o'zgacha sadolanishga egadir.

Kompozitor ijodining gullagan davri Napoleon urushlaridan keyin Yevropada qaror topgan og'ir siyosiy davrga to'g'ri keldi. Avstriya oqsuyaklari Avstriyani politsiya davlatiga aylantirdilar, unda erkin his-tuyg'u va ongning har qanday kurtagi ayovsiz yo'q qilinar edi.

Shubert hissiyotning yangi madaniyatini targ'ib qildi. Uning asarlari qahramoni alohida inson shaxsi, ko'proq kompozitorning o'zi hisoblanadi. Kompozitor musiqasidagi oddiqlik, dilga yaqinlik, musiqasining ochiqligi ana shundan kelib chiqadi.

Shubert siyosat haqida ham, birodarlik haqida ham yozmagan; u inson yuragi sirlari, muhabbatning doimiy muammolari, yolg'izlik va baxt haqida yozadi. Kompozitor ijodidagi bu yo'nalish umriboqiylik garovidir.

Musiqiy klassiklar ijodida tinglovchilarga matsiz tushunarli bo'lgan cholg'u janrlari(sonata, simfoniya, konsert) markaziy o'rin egallagan bo'lsa, g'oyalarining

o'ziga xosligi, shu bilan birga tushunarli bo'lishga o'tkir istak Shubertdan matnga murojaat qilishni talab etgan.

Kompozitor ijodida eng muhim o'rinni ovoz va fortepiano uchun yozilgan qo'shiq janri egallaydi. Shubert o'zining o'tkir iqtidori bilan ushbu janrni ikkinchi darajali, maishiy o'rindan simfonik musiqa bilan bir qatorga ko'tara oldi. Kompozitor I.V. Gete, G. Geyne, V. Myuller kabi romantik shoirlarning she'rlari asosida 600 dan ortiq qo'shiqlar yozdi. Shubert ushbu asarlarda original musiqiy-poetik obrazlar yaratdi, ular hozirgi kungacha tinglovchini o'ziga maftun etib kelmoqda.

Ba'zan Shubert qo'shiqlarni vokal turkumlarga birlashtirgan, ularda voqealar ketma-ket sujetda bo'lib, "dekoratsiyalar almashinuvi"ni talab etgan. Nemis shoiri Vilgelm Myuller she'rlari asosida yaratilgan "Go'zal tegirmonchi ayol"(1823) va "Qish yo'li" (1827) vokal turkumlari shular jumlasidandir.

"Qish yo'li" vokal turkumi lirik qahramonning va muallifning azobli hayot yo'lidir. Bu kabi o'z avtobiografiyasi asosidagi ijod deyarli barcha romantik-kompozitorlar ijodining ajralmas qismi hisoblanadi.

Oxirgi "Oqqush qo'shig'i" turkumi Shubert vafotidan so'ng do'stlari tomonidan tuzilgan bo'lib, kompozitorga qo'yilgan haykaldir.

Shubertning cholg'u ijodi ikki yirik janrda namoyon bo'ladi. Birinchi janr yirik simfonik turkumlar bo'lib (9 ta simfoniya), ulardan eng mashhuri ikki qismli "Tugallanmagan" simfoniya hisoblanadi. Afsuski, Shubert ushbu asarni o'zining boshqa simfoniyalari kabi orkestr ijrosida tinglay olmadi. "Tugallanmagan" simfoniya birinchi marta 1875- yilda ijro etildi.

Kompozitor ijodidagi ikkinchi janr juda ko'p miqdordagi kichik maishiy musiqiy shakllardan iborat bo'lib, ular asosan raqslar: lendler, vals, ekossez, menuet, musiqiy lahza, eksromptlar hisoblanadi. Eksrompt va musiqiy lahzalar - tipik romantik musiqiy janrlar. Ushbu asarlar ijodkor his-tuyg'usi, hayajoni, ilhomi, qalbining lahzalik holatini aks ettirishga mos edi.

Frans Shubert 1797 yilning 31 yanvarida maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi oilasida dunyoga keldi. Uning musiqiy iste'dodi juda erta namoyon bo'ldi va uni 11 yoshida konvikt – umumiy va musiqiy ta'lim beruvchi yopiq turdagi litseyga o'qishga beradilar. Shubert noyob musiqiy iqtidori tufayli mashhur kompozitor va pedagog Salyerining e'tiborini qozonadi. Shu bois Salyeri musiqa nazariyasi hamda kompozitsiya bo'yicha yosh Shubert bilan bir yildan ortiq bepul shug'ullanadi. Ammo o'smirlik yoshida ovozining o'zgarishi sababli 1813 - yilda konviktini tark etishga to'g'ri keldi.

Shubert o'zining Birinchi simfoniyasini aynan 1813 - yilda yaratadi. Keyingi uch yil mobaynida boshlang'ich sinf o'qituvchisining yordamchisi sifatida xizmat qilishga majbur bo'ladi. O'qituvchi lavozimi harbiy xizmatdan ozod etardi, ammo uch yil o'qituvchilik qilish ham zarur edi.

Maktabda ishlagani uchun Shubert juda kam haq olgan – bir kunlik ish haqi bir buxanka non bahosida edi. Shu bilan birga aynan ushbu yillar kompozitor ijodiy samaradorligining eng yuqori nuqtasi bo'ldi.

Shubert to'rt yil ichida 150 tada yaqin qo'shiq, ikkita simfoniya, ikkita messa va fortepiano uchun ko'plab mayda asarlar yaratdi. Shu davrda yaratilgan qo'shiqlar ichida eng taniqlisi I. Getening she'rlari asosida yozilgan “Margarita urchuq bilan” va “O'rmon qiroli” hisoblanadi.

1817 - yil kuzida Shubert o'qituvchi yordamchisi lavozimida ishlashiga uch yil to'ladi. Otasi o'g'lining kichik bo'lsada, doimiy ish haqiga ega bo'lgan o'qituvchi bo'lishini niyat qilgan edi, amma kompozitor hayotini musiqa bilan bog'lashga qaror qiladi. Shubertning maktabdan ketishi otasi bilan o'zaro munosabatning butkul uzilishiga olib keladi.

Shubertning keyingi qisqa hayoti ijodiy ilhomlar va yashash uchun tinimsiz harakat zanjiridan iborat bo'ldi. U har kuni ertalab soat oltidan kunduzi birgacha uzluksiz musiqa yozgan, ammo iqtisodiy ahvoli o'zgarmagan. Kompozitorning musiqiy lavozimga o'tish uchun bergan qator iltimosnomalari samarasiz bo'ldi.

O'zining yashash joyi bo'lmagan Shubert turli do'stlarining uyida yashab yurishga majbur bo'lgan. Ularning orasida rassomlar, san'atshunoslar, ashulachilar va shoirlar bor edi.

Shubert o'z asarlarini nashr ham qila olmagan, uning ijodida asosiy janr bo'lgan qo'shiq o'sha davrda tomoshabinli konsertlarda ijro uchun emas, faqat xonaki musiqaga yaroqli deb hisoblangan (qo'shiqlar muhim musiqiy janrga kiritilmagan).

Kompozitor yaratgan operalari va to'qqizta simfoniyalaridan birortasi hayoti davomida ijro etilmagan, uning qator qo'lyozmalari vafotidan keyingina topilgan.

Shubert Motsart kabi, buyuk melodistlardan biri bo'lib, zamondoshlari uning ijodini qisqa hayotining oxirgi yillaridagina qadrlay boshladilar.

Kompozitorning hayotligi davrida birinchi va yagona yakka konserti Venada, 1828 - yil 26 martda Betxoven vafotiga bir yil to'lgan xotira kunida o'tkazilgan. Ushbu konsert misli ko'rilmagan muvaffaqiyat bilan o'tdi. Biletlardan tushgan mablag' hisobiga Shubert nihoyat shaxsiy royal sotib oladi, kompozitorning kelajak rejaları ancha oydinlashdi, ammo hayotiy kuchlari qirqilgan edi.

Shubert ijodiy shaxsi va atrofini o'rab turgan hayot bilan keskin kelishmovchilikni his qilgan holda, ham jismonan, ham ma'nan ezilishdan hamda tif kasalligidan vafot etdi. Shubertni Betxoven qabri yaqiniga dafn etdilar. Iqtidorli kompozitor qanday yashagan bo'lsa, shunday vafot etdi: juda kambag'al va juda yosh – u atigi 31 yoshda edi.

Ijodiy merosi:

18 ta musiqiy-sahnaviy asarlar (opera, pyesalarga musiqa)

Kantata

2 ta messa

22 ta kvartet

2 ta fortepiano triosi

22 ta sonata

Fantaziya

Fortepiano va skripka uchun fantaziya

- 8 ta ekspromt
- 6 ta musiqiy lahza
- 100 dan ortiq xor va vokal ansabllar
- 600 dan ortiq qo‘shiqlar
- 3 ta vokal turkum

“F. Shubertning hayoti va ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Shubertning musiqiy uslubini qanday nomlashgan?
2. Kompozitor yaratgan musiqasining qahramoni kim?
3. Shubert ijodida yetakchi janr qaysi?
4. Kompozitorning vokal turkumlari qanday nomlangan?
5. Shubert qayerda musiqiy ta‘lim oldi?
6. Kompozitor yaratgan asarlari g‘oyasi nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Friderik Shopen

(1810-1849)



Friderik Shopen polyak hamda dunyo musiqa san'atining eng yuksak namoyondasi bo'lib, polyak milliy musiqa maktabining asoschisidir. Kompozitor o'zining cheksiz go'zal ijodi bilan dunyo ahamiyatiga ega bo'ldi.

Shopen Motsart kabi operalar, Gaydn va Betxoven kabi simfoniyalar yaratmagan, simfonik orkestr uni o'ziga jalb etmagan. Kompozitor ijodining deyarli barchasini fortepiano musiqasi bilan chegaraladi.

Ammo yolg'iz fortepiano ijodida Shopen shunday yuksaklik va keng qamrovlilikka erishdiki, boshqa kompozitorlar bu natijalarga musiqa san'atining turli yo'nalishlarida tinimsiz mehnat bilan yetishganlar.

Kamdan-kam kompozitorlar milliy xarakterni Shopen kabi shunchalik chuqur va to'liq ifoda etganlar.

Shopen asarlarining kuylari polyak qo'shiq hamda raqslari bilan sug'orilgandir. Kompozitor butun Yevropani o'z vatanining musiqasi bilan tanishtirdi.

Shubert kabi, Shopen ham o'z ijodida maishiy musiqa, raqs va fortepiano miniatyurasini o'zgartirdi. Uning mazurka, vals, Nokturn va preludiyalari fortepiano uchun haqiqiy kichik poemalar bo'lib, yirik shakldagi asarlardan, chuqur mazmuni bilan simfoniya kam emas.

Shopen – musiqiy til bo'yicha jasur novatoridir. U polyak xalq musiqasining xususiyatlariga asoslangan holda Yevropa professional musiqasining garmonik va melodik vositalarini kengaytirdi.

Shopen fortepiano musiqasining yangi janrlarini yaratdi, preludiyani kirish pyesasidan mustaqil turkumga aylantirdi, u 24 ta preludiyadan iborat bo'lgan turkum yaratdi. Kompozitor o'z ijodida xalq raqs janrlarini rivojlantirdi, an'anaviy etyud va skerso janrlarini yangi, ko'p hollarda, dramatik mazmun bilan to'ldirdi.

Shopen professional san'atda birinchi bo'lib *forteplano balladasi* janrini kiritdi. U romantik sonata turkumini yaratgan birinchi kompozitor hisoblanadi.

Shopendagi g'oya va fikrlardagi novatorlik klassik aniqlik hamda ularni amalga oshirishdagi yetuklik bilan uyg'undir, shu sababli, kompozitorni ko'pincha "Polshalik Motsart" hamda "romantiklar klassigi" deb ataydilar. Kompozitor yaratgan asarlarida har bir taktning ustida chuqur ishlab, yetuklikka erishgan.

Friderik Shopen 1810 yilning 1 martida Varshava yaqinidagi Jelyazova Volyada ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Nikolay Shopen – millati bo'yicha fransuz – yoshlik davrida Varshavaga ko'chgan, bu yerda pedagoglik faoliyati bilan shug'ullangan. U Varshava oqsuyaklar litseyida fransuz tili o'qituvchisi lavozimida ishlagan va litsey tarbiyalanuvchilar pansioniga rahbarlik qilgan. Ota-onaning ziyoli hamda sezgirliги Shopenlar oilasini birlashtirdi hamda iqtidorli farzandlarning rivojiga ijobiy ta'sir etdi.

Motsart kabi yosh Friderik o'zining musiqiy qobiliyati bilan barchani hayron qoldirgan. Uning fortepiano ijrosi bo'yicha birinchi va yakka o'qituvchisi Voysex Jivniy bo'ldi. Shopen 12 yoshga to'lganida, Jivniy iqtidorli o'quvchisiga boshqa hech narsa berolmasligini anglab, o'zi mashg'ulotlardan voz kechadi.

Friderik 13 yoshida birdaniga litseyning 4- sinfiga o'qishga kiradi. U yozgi ta'tillarni qishloqda, yaqin tanishlarning uyida o'tkazadi. Aynan shu yerda Shopen birinchi marta polyak xalq musiqasining namunalari bilan tanishadi.

1826 yilning kuzida Shopen litseyni tugatib, Varshava konservatoriyasiga o'qishga kiradi. U musiqiy-nazariy fanlardan konservatoriyaning direktori Yuzef Elsnerda tahsil oladi. 1829 yilda Shopen konservatoriyani tugatishi arafasida, ustoz o'quvchisiga shunday tavsif beradi: "Mislisiz iqtidor, musiqiy daho".

Konservatoriyani tugatib, Shopen artistlik va ijodiy faoliyatning yangi bosqichiga kiradi. Joriy etilgan an'anaga muvofiq, kompozitor o'zining birinchi polonez, mazurka va variatsiyalarini yaratadi. Bu asarlar mahoratli, virtuoz darajasidagi asarlar bo'lib, estradaning yozilmagan qonunlariga asoslangan edi: XIX asr oxirigacha kompozitor va ijrochi bir kishi bo'lgan.

Shopen o'z yo'lini artistlik faoliyati bilan bog'lagan ekan, u avvalo tomoshabinni ijrochi sifatida rom etishi, ijroning tashqi yorqinligi bilan jalb etishi

lozim bo'lgan. 1829 yil avgustida Venada o'tkazilgan konsert Shopenga ana shu muvaffaqiyatni olib keladi.

Yosh kompozitor va ijrochi iqtidorining tan olinishi qarindosh va yaqinlarida chet elda uzoq davr malaka oshirish zarurligi haqilagi fikrni mustahkamlaydi. Safardan oldin Shopen Varshavada ham ikki marta konsert beradi.

1830 - yilning noyabrida do'stlari yosh musiqachiga vatanga sadoqat ramzi sifatida Polsha tuprog'i solingan kumush kubokni tuhfa etadilar. Shopen esa endi hech qachon Varshavaga qayta olmasligini tasavvur ham etmagan edi.

Shopenning yo'lga chiqishi bilan deyarli bir vaqtda Polshada mustaqillikka erishish uchun inqilobiy qo'zg'olon boshlanadi. Qo'zg'olon bostirilib, ishtirokchilar qamaladilar, boshchilar esa surgun qilinadilar, hamma joyda shavqatsiz politsiya quvg'inlari boshlanadi. Polsha uchun bu og'ir daqiqalarda Shopenning oila a'zolari uyga, Varshavaga qaytmaslikni qat'iy talab qiladilar.

Kompozitor ushbu voqealardan ta'sirlanib, o'zining mashhur "Inqilobiy etyud"ini yaratadi. Bu asarda og'riq, qahr va g'am birga qorishib ketgan bo'lib, etyud kompozitorning Vatan taqdiriga bag'ishlangan birinchi dramatik asari hisoblanadi.

Shu davrdan Shopenning ijodiy ongida burilish sodir bo'ldi: yoshlarcha hayotot lirikasi yangi fojiaiy obrazlar oldida ortga chekindi, shu kundan boshlab Shopen ijodida Vatan mavzusi yetakchi bo'lib qoladi.

Polsha inqilobi kompozitor ijodiy biografiyasining ikki yirik davri o'rtasidan go'yo chiziq tortadi: Varshava – yorqin orzularga to'la yoshlik, Parij esa dramatik kontrastlarga to'la hayot davri hisoblanadi.

Polsha inqilobining inqirozi, undan keyingi surgun va qatag'onlar Shopenni Vatanga qaytishdan abadiy mahrum etdi. 1831 - yilning kuzida kompozitor Parijga keladi va umrining oxirigacha shu yerda qoladi.

Parij shu davrda G'arbiy Yevropa madaniyatining markazi bo'lib, aynan shu shaharda katta kuch va ahamiyatga ega bo'lgan san'atni yaratgan eng yirik ijodkorlar yashar edilar.



Shopen Parijning eng ko'zga ko'ringan ijodkorlar jamoasi ichiga kiradi. Ferens List, Gektor Berlioz, Vinchenso Bellini, yozuvchi va shoirlar Onore de Balzak, Genrix Geyne, Jorj Sand, Adam Mitskevich, rassom Ejen Delakrua uning do'stlari va yaqin tanishlari bo'lib qoladilar. Mustahkam ahloqiy tarbiya, tezkor va o'tkir aql yosh Shopenga uni o'rab turgan atrof muhitni tiyrak qabul qilish imkonini berdi.

Shopenning Parijdagi birinchi ommaviy konserti faqat bir yildan keyin, 1832 yilda o'tkazildi. Yosh musiqachi tezda mashhur bo'lib qoldi, matbuotda uning poetik ijrosi va o'ziga xos ajoyib kompozitorlik qobiliyati haqida taqrizlar yoziladi.

Shopen tez orada boy oqsuyaklar uylarida fortepiano bo'yicha manzur pedagog bo'lib qoladi. Qimmat narx to'lanadigan bu darslar ko'p yillar davomida kompozitorning asosiy daromad manbai bo'ldi.

Shopen o'z ijodi bilan jamiyatning yuqori qatlamiga kirdi, uning musiqasini tinglash urf bo'ldi. Ayniqsa, tinglovchilarni polyak pianinosisining *rubato* deb atalgan ijro uslubi o'ziga rom etdi. XVIII asrda tovush kuchining sekin-asta o'zgarishi – his-tuyg'ularning kuchayishi va pasayishini ko'rsatuvchi yangi ifoda vositalari bo'lgani kabi, Shopenning rubatosi ham – takt ichidagi sezilar-sezilmas sekinlashish va tezlashish – butun romantik san'at uchun xarakterli bo'lgan kayfiyat o'zgarishini ifoda etuvchi vositaga aylandi.

Shopen katta mashhurlikka erishsada, faoliyatining cho'qqisiga yetganligi haqidagi fikrdan uzoqda edi.

Kompozitorning do'stlari muntazam xatlar yozib, milliy opera yaratish va bu bilan nomini asrlarga muhrlashni maslahat berar edilar. Ammo Shopen o'zining polyak kompozitori sifatidagi vazifasini boshqacha tushungan. Kompozitor monumental opera uchun hali vaqt kelmaganini, milliy kolorit uchun fortepiano musiqasi va kamer janrlar mos kelishini anglagan.

Parijda Shopen ko'p sonli polyaklar bilan do'stona munosabatda bo'lgan, ayniqsa, dunyoga taniqli nomga ega emigrant - shoir, polyak romantizmining asoschisi, A.S.Pushkinning do'sti, mashhur "Pan Tadeush" poemasining muallifi Adam Mitskevich (1798-1855) bilan umrining oxirigacha do'stlik rishtalari bilan bog'langan.

Shopenning to'rtta fortepiano balladasi uchun ushbu shoir yaratgan poetik obrazlari va sujetlari asos bo'lgan. Ballada romantik she'riyatning eng sevimli turlaridan biri bo'lib, Gyotening ba'zi balladalariga F. Shubert vokal musiqa yaratgan edi. Shopen esa kompozitorlar ichida birinchi bo'lib cholg'u balladasini yarata boshladi. Balladalar mazmuni uchun darbadarlik, sargardonlik haqidagi, ba'zan afsonaviy sujetlar xarakterli bo'ldi.

Shopenning balladalarini shartli ravishda programmali musiqa deyish mumkin. Kompozitorning o'zi balladalariga izohli nomlar bermagan, ammo zamondoshlari ularda Adam Mitskevich poetik balladalarining obrazlarini ko'ra olishgan.

Polshalik do'stlar bilan uchrashuvlar Shopen uchun nihoyatda qadrlı bo'lgan, chunki kompozitorning o'z oilasi bo'lmagan. Kompozitr ko'p yillar davomida hayotini o'zining romanlarini Jorj Sand tahallusi bilan imzolagan mashhur fransuz yozuvchisi Avrora Dyudevan bilan bog'ladi. O'zaro katta muhabbatga asoslangan erkin munosabat ularda quvonchli ishtiyoq va ijodiy kuch uyg'otdi. Ammo yillar o'tishi bilan bu munosabatlar kompozitorning vafotini tezlashtirgan chuqur iztiroblar manbaiga aylandi.

XIX asrning 30-yillar oxiri 40-yillarning ikkinchi yarmi Shopen ijodiy hayotining eng samarali davri hisoblanadi. 1838 - yilning kuzida Shopen va Jorj Sand Mayorka oroliga sayohat qiladilar hamda uning markaziy shahri Palmada joylashadilar. Ammo obi-havo o'zgarib, u yerda yomg'ir davri boshlanadi, natijada Shopen qattiq shamollaydi. Avvaldan o'pka kasali bilan og'rikan kompozitorning ahvoli yomonlashadi.

Mayorkada Shopen 24 ta preludiyadan iborat turkum, ikkinchi ballada va uchinchi skersoni yaratadi.

Shopenning preludiyalari takrorlanmas o'ziga xoslikka ega. Avvallari "preludiya" so'zi kirish pyesasi ma'nosini bildirib, undan so'ng "asosiy" asar ijro etilgan.

Shopenning preludiyalari esa biror asardan avval ijro etilmaydi. Ushbu preludiyalar mazmun va shakl jihatidan tugallangan mustaqil asarlar bo'lib, ko'pincha har bir preludiyada bitta musiqiy obraz aks etiladi.

Preludiyalar kompozitorning eng lo'nda asarlari hisoblanadi, ba'zi preludiyalar yarim betni tashkil etsada, mazmuni bilan yirik kompozitsiyalardan boy va chuqurroqdir. Ba'zan ikki daqiqali preludiyani tinglab, hayolimizda butun bir umr o'tganini tasavvur etish mumkin.

1838 - yil yozini Shopen yozuvchi Noanening imeniyasida o'tkazadi. Bu yerda uning sog'lig'i yaxshilanadi va 1839 - yilning kuzida kompozitor Parijga qaytadi.

Yillar o'tishi bilan Shopen ommaviy konsertlarni tobora kam o'tkazdi: uning nozik didi uchun estrada tashqi yaltiroqligi, o'zini namoyish etish tamom begona edi.

Shopen to'liq ravishda ijodga beriladi va katta hajmda yangi asarlar yaratadi. Yorqin lirik pyesalar bilan bir qatorda, kompozitor chuqur dramatik, hatto fojiviy asarlar yarata boshlaydi. Motam marshi kiritilgan Ikkinchi sonata shunday asarlar jumlasidan bo'lib, motam marshi ushbu janrning eng yuksak namunasi hisoblanadi.

Nashrdan chiqqandan so'ng ushbu marsh sonata turkumi tarkibidan ajralib, alohida asar sifatida mustaqil hayot boshladi. Shopen yaratgan ushbu marsh nafaqat musiqa adabiyotida, balki insoniyat hayotida beqiyos o'rin egalladi. Inson qalbidagi chuqur iztirob tuyg'usini bu kabi yuksak hamda fojiviy tarzda ifoda etish mushkuldir.

Bu davrda Shopen davosiz kasal bo'lib, o'zga yurtda vafot etishini yaxshi tushunar edi.

Sonatadagi motam marshidan keyin qisqa to'rtinchi qism kiritilgan bo'lib, u yorqin ifoda etilmagan mavzu hamda kuylardan iborat. Rus kompozitori va pianinotchisi A.G.Rubinshteyn bu kuyni "Qabrlar ustida shamol" deb ta'riflagan.

Shuni ta'kidlash zarurki, bu kabi sonata hamda boshqa buyuk san'at asarlar mazmuni oddiy ta'riflarga nisbatan ancha chuqurdir. Umuman musiqa mazmunini so'z bilan e'tirof etish nihoyatda qiyin.

Shopen ijodida katta o'rinni polyak milliy raqslari: mazurka va polonezlar egallaydi. *Mazurka* yoki mazur harakatchan, "sakramli" qadam ko'proq uchraydigan, uch o'lchovli polyak raqsidir.

Shopenning ilk mazurkalari qishloq maishiy turmushining o'ziga xos tabiiy va jonli ifodasidir. Ammo tez orada, ayniqsa yurtidan yiroqlik davrida sof lirik, o'ychan va nozik, sog'inch tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan mazurkalar paydo bo'ladi.

Kompozitor hammasi bo'lib 60 ga yaqin mazurkalar yaratgan. Ba'zan ushbu asarlarni dala gullari orasiga yashirib qo'yilgan gavharlarga o'xshatadilar.

Polonez polyak shaharlari maishiy hayotida XVI asrdan o'rin oldi. U erkaklar "piyoda raqsi", ritsar-askarlarning viqorli yurishlaridir. Musiqa uch hissali o'lchovda bo'lib, kuchli hissa xarakterli bo'linishga ega.

XVIII asrdan polonez Yevropa bo'ylab keng tarqaladi. Aksariyat holda saroy ballari polonez bilan boshlangan.

Shopenning polonezlari esa nafaqat raqs uchun, balki tinglash uchun ham yaratilgan musiqadir. Kompozitorning polonezlari qahramonona - epik yoki dramatik mazmundagi keng poemalar hisoblanadi.

Ba'zi polonezlarda Polshaning o'tmish mahobati ifoda etilgan suratlar jonlanadi. Ular ichida Iya major polonezi eng taniqlisi bo'lib, polyaklarning o'zi bu asarni millatning "vizit kartochkasi" sifatida qabul qiladilar. Rus kompozitori A.Glazunov ushbu polonezni simfonik orkestr uchun moslashtirib, "Shopeniana" baletiga kiritgan.

XIX asrda vals Yevropada sevimli raqs bo'lib qoldi. Uning aylanma, "uchma" harakati tezda romantik kompozitorlarning diqqatini o'ziga tortdi. Shopen ijodi davomida 17 ta vals yaratdi hamda oddiy maishiy raqsni poetik asarga aylantira oldi. Kompozitorning aksariyat valslari nisbatan yirik uch qismli asarlar bo'lib, salon yoki konsertda ijro etishga mo'ljallangan.

O‘z kayfiyati va mazmuniga ko‘ra Shopenning har bir valsni takrorsiz o‘ziga xosdir. Ular ichida do diyez minor valsni ayniqsa mashhur bo‘lib, kompozitor A. Glazunov bu valsni ham “Shopeniana” baletiga kiritgan.

Nokturn musiqiy janr sifatida XIX asr boshida paydo bo‘lib, Shopen ijodida klassik yetuk shaklni egalladi. “Nokturn” so‘zi “tungi pyesa” ma’nosini bildiradi.

Aynan romantik kompozitorlar “tungi pyesa” janriga chuqur badiiy qiziqish bilan qaradilar. Tungi tabiat manzarasi, oy nuri ostidagi uchrashuv sahnalari, ba’zan uzoqdagi baxt haqida orzu qilgan yolg‘iz, romantik kompozitorning turli kayfiyatlari, romantik poeziya va tasviriy san’atdagi barcha obrazlar endi musiqada ham o‘zining munosib ifodasini topdi.

Shopen Nokturnlarining o‘ziga xos xususiyati tashqi sokinlik hamda chuqur lirik jo‘shqinlikning uyg‘unligidan iboratdir. Kompozitor hayoti davomida 21 ta Nokturn yaratgan bo‘lib, ularning aksariyati orzu-hayol yoki elegiya xarakteridagi, reprizali uch qismli shakldagi pyesalardir.

Kompozitor hayotining oxirgi yillari chuqur g‘am va qayg‘u bilan o‘tdi. Unga yaqin bo‘lgan kishilar birin-ketin hayotdan ko‘z yumadilar. Ayniqsa, Jorj Sand bilan kelishmovchilik va natijada, ajralish Shopenni yolg‘izlantirib qo‘yadi.

Hayotining oxirgi ikki yilida kompozitor deyarli hech qanday asar yaratmadi. Uning daromadlari ham tugab boradi. Iqtisodiy ishlardagi ana shu noaniqlik Shopenning



sog‘lig‘i uchun zararli zax iqlimga ega bo‘lgan Angliyaga konsert safari tashkil etishga sabab bo‘ldi.

To‘xtovsiz qabullar, nonushtalar, tantanalar behol Shopenning ahvolini yanada yomonlashtirdi, konsert safari iqtisodiy foyda ham keltirmadi. 1848 - yil noyabrida Shopen Parijga qaytdi.

Hayotining oxirgi yili Shopenning asta-sekin so‘nib borish yili bo‘ldi. Uning iltimosiga ko‘ra Polshadan opasi Lyudovika keldi, hayotining oxirgi daqiqalarida kompozitor uchun yolg‘iz tasalli bo‘ldi.

Shopen 1849 - yilning 16 chi oktabrdan 17 chi oktabrga o'tar kechasi vafot etdi. Kompozitorning tantanali dafn marosimida Parijning eng taniqli artistlari ishtirok etdilar. Marosimda Motsartning Rekviyemi, Shopenning motam marshi, ikkita eng fojiaiy: mi minor va si minor preludiyalari ham ijro etildi.

Shopen Parijda, Per Lashez qabristonida, o'zining do'sti kompozitor Bellini qabri yonida dafn etilgan. Vatani bilan xayrlashuv chog'ida do'stlari sovg'a qilgan kubokdagi Polsha tuprog'idan kompozitorning qabriga bir siqim tashlandi. Shopenning yuragi, uning wasiyatiga binoan, maxsus idishda Varshavaga jo'natildi, u hozirgi kungacha Ilohiy Hoch kostelida avaylab saqlanib kelinmoqda.

Ijodiy merosi:

Fortepiano va orkestr uchun 2 ta konsert

Fortepiano va orkestr uchun 4 ta pyesa

Fortepiano triosi

Violonchel va fortepiano uchun sonata, Katta konsert dueti, Introduksiya va polonez

Fortepiano uchun 3 ta sonata

Fantaziya

4 ta ballada

4 ta skerso

4 ta eksprompt

16 ta polonez

60 ta mazurka

17 ta vals

21 ta Nokturn

27 ta etyud

26 ta preludiya

Bolero, Barkarola, Rondo

Variatsiyalar

17 ta qo'shiq va boshqa asarlar

“F. Shopenning hayoti va ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshirqlar

1. Shopen opera va simfoniya yaratganmi?
2. Shopen o‘z ijodida qaysi janrlarga e‘tibor bergan?
3. Shopen musiqiy ta‘limni qayerda olgan?
4. Kompozitor ijodidagi asosiy g‘oyani ayting.
5. “Inqilob etyudi” qaysi voqealar asosida yaratilgan?
6. “Nokturn” qanday asar?

Adabiyotlar:

1. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
2. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
3. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
4. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Ferens List
(1811 - 1886)



Ferens List XIX asrning eng buyuk pianistlaridan biri, vengr musiqachisi, dirijyor va kompozitor, pedagog hamda publitsist bo'lib, musiqiy romantizmning eng yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi.

List Veymar musiqiy maktabiga asos solgan musiqachi bo'lib, buyuk polyak kompozitori F.Shopen ijodi hamda vengr lo'larining musiqiy merosi haqidagi kitoblar muallifidir.

Ferens 1811- yilning 22 oktabrida Vengriyaning Doboryan shahrida tug'ildi. Uning onasi Anna-Mariya va otasi Adam List 1811-yilda turmush quradilar, Ferens esa oilada yagona farzand bo'ldi.

Musiqachining otasi Georg Adam List knyaz Esterxazi saroyida ishlagan bo'lib, bu oilada san'atga katta mehr qo'yilgan edi. Knyaz saroyidagi musiqiy orkestrga mashhur kompozitor Yozef Gaydn rahbarlik qilgan bo'lib, Adam List ham ushbu orkestrda 14 yoshigacha violonchelda chalib ishtirok etgan.

Kompozitorning otasi atigi 50 yil yashagan bo'lsada, musiqa san'atiga katta mehr qo'ygan, bu qiziqish o'g'li Ferensga ham o'tgan.

Otasi turli orkestrlarda ishtirok etib, mashhur kompozitorlar, jumladan, Betxoven bilan ham tanish bo'lgan. U o'g'lining musiqiy iqtidorini rivojlantirishga katta ahamiyat berib, Ferens bilan musiqa mashg'ulotlarini certa boshlagan. Listning musiqa san'ati yo'lida o'z yo'lini topishi to'la ravishda otasining katta mehnati va harakati bilan belgilanadi.

Ferens yoshligidan cherkov xorida kuylashni o'zlashtiradi, organ chaluvchi musiqachi esa cholg'uda ijro bo'yicha mashg'ulotlar olib boradi.

Ferens 8 yoshga kirganda uning birinchi konserti bo'lib o'tadi. Uning otasi tez-tez shu kabi konsertlarni badavlat xonadonlarda tashkil etadi va yosh Ferens royalda

ijro etib, olqishlarga sazovor bo'ladi. O'g'lining muvaffaqiyatlarini ko'rgan otasi uni Venaga olib borish hamda mukammal bilim berish zarurligini tushunadi.

Ferens otasi bilan Venaga keladi hamda bu yerda eng mashhur musiqachilardan saboq oladi.



Yosh musiqachi Karl Cherni qo'lida tahsil olib, fortepianoda ijro mahoratini yuksaltiradi. Nazariy fanlardan unga kompozitor Antonio Salyeri saboq beradi hamda Ferensning iqtidorini yuksak baholaydi.

Otasi kabi, Ferens ham buyuk kompozitor Betxovenni nihoyatda hurmat qilar edi. Navbatdagi konsertdan so'ng Ludvig van Betxoven yosh musiqachini tabriklaydi va bu voqea Listning yodida abadiy qoladi.

Ferens List 12 yoshida konservatoriyaga kirish uchun Parijga keladi, biroq millati fransuz bo'lmagani sababli, uni o'qishga qabul qilmaydilar. Qiyin iqtisodiy ahvolga qaramay, otasi Parijda qolishga qaror qiladi. Yashash uchun sarmoya topish maqsadida yosh musiqachi konsertlar beradi, shu tarzda o'qish o'rniga professional faoliyat bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi.

Listning yaratgan birinchi musiqiy asarlar shu davrga to'g'ri keladi, ularning asosini konsertlarda ijro etish uchun mo'ljallangan etyudlar tashkil etadi. 14 yoshida List o'zining birinchi operasi: "Don Sancho, yoki muhabbat qasri" nomli asarini yaratdi. Ushbu opera 1825- yilda Grand-opera sahnasida qo'yildi.

1827 -yilda kompozitorning otasi vafot etadi. List bu yo'qotishdan nihoyatda kuchli qayg'uga tushadi, u uch yilga yaqin davr ichida iztirobli holatdan chiqq olmaydi hamda Parijning musiqiy hayotida ishirok etmaydi.

Otasining vafotidan so'ng yosh musiqachi yolg'iz qoladi, aynan shu davrda iyul inqilobi boshlanib, yangi g'oya va shiorlar paydo bo'ladi. List ham ushbu g'oyalar asosida "Inqilob simfoniyasi"ni yaratishni maqsad qiladi.



List konsert faoliyatini davom ettiradi, uning atrofida Gektor Berlioz va Nikkolo Paganini kabi yangi do'stlar paydo bo'ladi. Nikkolo Paganini bilan do'stona munosabatlarning o'rnatilishi hamda skripkachinging mohirona ijrosi Listning faoliyatiga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi: u vaqtincha konsert faoliyatini to'xtatadi, o'z ijro texnikasi ustida shug'ullanib, mahoratini oshirib boradi.

Ijodiy faoliyatining shu davrida List Paganini kaprislarini fortepiano uchun moslashtiradi. Hozirgi kungacha ushbu asar musiqiy ijodiyotda eng mahoratli va takrorlanmas hisoblanadi.

List pedagogika sohasiga ham katta e'tibor berib, umrining oxirigacha yoshlarga saboq beradi. Musiqachi yozuvchilar Aleksandr Dyuma, Viktor Gyugo, Jorj Sand, Alfred de Myusse bilan do'stona munosabatda bo'lgan.

Otasining o'limidan so'ng Ferens List grafinya Mari d'Agu bilan tanishadi va ular Shveysariyaga ketadilar. Bu yerda kompozitor "Godi stranstviy" nomli pycsalar to'plami ustida ishlaydi. Ijodiy faoliyat bilan birga Jeneva konservatoriyasida dars beradi hamda yakkaxon konsert dasturini tashkil etadi.

List Vengriyaga borishni ko'pdan orzu qilgan edi, shu bois u katta ijodiy safarga o'tlanadi. Vengriya va Avstriyada Listni tantanali ravishda kutib oldilar, ular mashhur musiqachining ijrosini tinglashga muvaffaq bo'ldilar.

Ferens List o'z sayohatini konsert faoliyati bilan bog'lab olib bordi, musiqachi 6 yil davomida Rossiya, Turkiya, Portugaliya va Ispaniyada safarda bo'ldi. Shu davrda ijodkor rus musiqasi bilan qiziqib, rus operalari asosida musiqiy to'plam yaratadi.

1865- yilda List ijodining mavzusi o'zgardi, bu musiqachi e'tiqodining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Shu davrdan boshlab kompozitorning ijodi diniy mavzu bilan bog'liq bo'ldi. List "Legenda o svyatoy Yelizavete", "Xristos" nomli oratoriyalar, messa va Rekviyem yaratdi.

10 yildan keyin List Vengriyaga ko'chishga qaror qildi. Pesht shahrida musiqachi Oliy musiqa maktabining raisi lavozimiga taklif etiladi. Shu davrda

kompozitor “Zabitiye valsı” asarini hamda fortepiano uchun rapsodiya yaratdi, “Vengerskiye istoricheskiye portreti” turkumini tugatdi.

Listning uchta farzandi: qizlari Blandina va Kozima, o‘g‘li Daniel bo‘lib, qizi Blandina 27 yoshida, yagona o‘g‘li Daniel 20 yoshida vafot etadilar, bu voqea kompozitor hayotida katta fojea bo‘ldi.

1886 - yilda Ferens List festivalda ishtirok etadi, havo yomon bo‘lgani sababli, musiqachi kasal bo‘lib qoladi. Bu kasallikdan asorat qolib, List o‘pka shamollashi bilan og‘riydi. Asta-sekin kompozitorning salomatligi yomonlashadi, boshqa a‘zolari, jumladan yuragida ham o‘zgarish paydo bo‘ladi. 1886 - yil 19 iyulda List oxirgi marta sahnaga chiqadi, oradan ikki hafta o‘tgach, 31 iyulda vafot etadi. Budapeshtdagi Milliy musiqa akademiyasiga buyuk musiqachi Ferens List nomi berilgan.

Ijodiy merosi:

Opera “Don Sancho”

Oratoriyalar

Messalar

Rekviyem

2 ta kantata

Simfoniya “Faust”

13 ta simfonik poemalar

“Godi stranstviy”

“Utesheniya”

Paganini kaprislariga etyudlar

19 ta venger rapsodiyalari

Valslar, Mefistovals

Fortepiano va orkestr uchun 2 ta konsert

Fortepiano va orkestr uchun turli asarlar

Sonata

Fantaziya va fuga

Etyudlar

Ispan rapsodiyalari

75 ta qo‘shiq va boshqa asarlar

“Ferens List ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar


1. Ferens List qaysi cholg‘uda ijrochi sifatida mashhur bo‘lgan?
2. Kompozitor o‘z ijodida qaysi janrlarga e‘tibor bergan?
3. List musiqiy ta‘limni qayerda olgan?
4. Kompozitor ijodidagi opera qanday nomlanadi?
5. Budapeshtda List nomi berilgan dargohlarni ayting.

Adabiyotlar:

1. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
2. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
3. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
4. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Edvard Grig

(1843-1893)



Daniya, Norvegiya, Shvetsiya musiqa madaniyati uchun milliy kompozitorlik maktablarining shakllanishi nisbatan kech boshlanishi bilan xarakterlidir. XIX asrning ikkinchi yarmida bu maktablar ichida norveg maktabi ajralib chiqdi. Uni xalqaro ahamiyatga molik kompozitor, norveg klassik musiqasining asoschisi, nafaqat skandinav mualliflariga, balki butun Yevropa musiqasiga ta'sir ko'rsatgan Edvard Grig boshlab berdi.

Edvard Grigning yetuk va oddiy musiqiy uslubi uning musiqasini keng tinglovchi uchun tushunarli hamda esda qolarli bo'lishi uchun xizmat qildi. Fakturaning yetukligi, har bir taktga mukammal ishlov berilishi, ohang sofliги bilan Grigning ijodini Shopenning asarlariga tenglashtirish mumkin. Grigning asarlari – yuqori ravishdagi nazokat hamda oddiylikning uyg'unligidir. Kompozitor asarlardagi kuy va garmoniya milliy asosda bo'lgani uchun ular yaxshi taniqli va o'ziga xosdir, Grigning asarlarini birinchi taktlardanoq tanish mumkin.

Edvard Grig 1843 - yil 15 iyunda Norvegiyaning Bergen shahrida tug'ildi. Uning otasi Aleksandr Grig britan konsuli vazifasida xizmat qilib, mukammal savodli va ziyoli kishi bo'lgan. Ularning uyida tez-tez musiqiy kechalar uyushtirilardi. Ota-onasi o'g'lining musiqiy qobiliyatini ko'rgach, konservatoriyada o'qitish uchun Leypsigga yuboradilar.

1862 - yilda o'n to'qqiz yoshli Grig Vataniga professional musiqachi bo'lib qaytadi, bu vaqtda u kompozitor sifatida ham tanila boshlagan edi.

1866 - yili Grig Oslo shahrida norveg kompozitorlarining birinchi uyushmasi - Milliy musiqa jamiyatini tashkil etadi. Grigning asarlari muntazam ravishda konsertlarda ijro etiladi hamda tomoshabinlarda katta taassurot uyg'otadi. "Garmoniya" filarmonik jamiyati unga bosh dirijyor lavozimini taklif etadi.

Bir yildan so'ng Grig Nina Xagerupga uylanadi va u kompozitor uchun vafodor, sadoqatli do'st va yordamchi bo'lib qoladi. Nina chiroyli ovozga ega bo'lib,

keyinchalik, kompozitorning talqiniga ko'ra, qo'shiqlarining haqiqiy yakka ijrochisiga aylanadi.

Grigning milliy kompozitor sifatida shakllanishida Listning qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etadi. Ferens List Yevropa musiqiy Olimpidagi birinchi darajali yulduz bo'lib, uning fikri inobatga olinar edi.

1874 - yilda Norvegiya hukumati Grig uchun bir umrlik davlat stipendiyasini tasdiqlaydi. Ijodining keng tan olinishi va iqtisodiy barqarorlik Grig uchun markaz shaharda konsert faoliyatini to'xtatib, o'zi tug'ilgan Bergenga ko'chib kelish imkoniyatini beradi.

Daniyada Grig buyuk ertakchi Gans Kristian Andersen bilan tanishadi va do'stlashadi. Keyinchalik Grig Andersen she'rlari asosida 15 romans va qo'shiqlar yaratdi.

Grig buyuk norveg dramaturgi Genrik Ibsen bilan ham tanish bo'lib, u 1874 - yili kompozitorga "Per Gyunt" dramasi uchun musiqa yozishni taklif etadi. Bu musiqa ustida ishlash bir yarim yil davom etadi. 1875 - yilning bahorida Grig qo'lyozmani teatrga yuboradi. Grigning musiqasi asosida yaratilgan spektakl nihoyatda katta muvaffaqiyat qozonadi. Pyesa Yevropa yirik teatrlarining deyarli barchasida sahnalashtiriladi.

Teatr uchun yozilgan ushbu musiqadan Grig filarmoniya konsertlarida ijro etish uchun mo'ljallangan ikkita orkestr syuitasini yaratadi. Qisqa vaqt ichida bu musiqa butun dunyoda mashhur bo'ladi.

Kompozitor syuitani tuzishda 23 ta nomerdan sahna harakati bilan bog'liq bo'lmaganlarini ajratib oladi va ularni musiqiy rivoj mantiqi asosida joylashtiradi.


Birinchi syuitaga "Tong", "Ozening o'limi", "Anitraning raqsi", "Tog' qirolining g'orida" nomerlari kirgan. Ikkinchi syuitaga Grig "Ingridning nolasi", "Arab raqsi", "Per Gyuntning vataniga qaytishi", "Solveyg qo'shig'i" nomerlarini kiritgan.

Ikkala syuita kontrastlik tizimi asosida shakllangan. Birinchi qismda tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq yorqin va sevinch his-tuyg'ulari ("Tong") hayot bilan vidolashuv fojiasi bilan taqqoslanadi ("Ozening o'limi"); nazokatli janr

chizmasi("Anitra raqsi") qoʻrqinchli fantastika ("Togʻ qiroli gʻorida") bilan almashadi.

Grigning Ibsen dramasi uchun yaratgan musiqasi oddiy namoyishlikdan ancha yiroqdir. Musiqa dramaning falsafiy konsepsiyasini lirik tarzda umumlashtirib, tinglovchi va tomoshabinni Norvegiyani yangitdan his qilishga hamda Ibsen dramasini milliy ohanglarda qabul qilishga daʼvat etadi. "Per Gyunt" dramasi yozilgan musiqaga Grig uchun dunyo miqyosida mashhurlikni olib keldi.

1880 - yildan soʻng Grig Yevropa boʻylab pianist va dirijyor sifatida oʻz gastrollarini boshlaydi. 1888 yil yanvarida Leypsig shahrida Grig P.I. Chaykovskiy bilan



tanishadi. Qisqa vaqt ichida ular doʻstlashib qoladilar, keyinchalik xat yozishib turadilar.

Chaykovskiy Grig musiqasining poetikasi, uslubining musaffoligi va oʻziga xosligi bilan zavqlanadi. Chaykovskiy Grig haqida bir nechta maqolalar yozadi va unga simfonik uvertyurasi - "Gamlet" fantaziyasini bagʻishlaydi. 1893 - yilda ikkala kompozitor Kembrij universiteti doktori nomini olishga musharraf boʻladilar.

Grig hayotining oxirgi yillari astma kasalligining azoblari bilan kurash yillari boʻldi. Oʻsha davr uchun davosiz boʻlgan bu kasallik konservatoriyada oʻqish davrida oʻtkazgan plevritning asorati edi.

1907 yilning 4 sentabrda Grig oʻzining qadrdon shahri Bergenda vafot etdi. Kompozitorni dafn etish kuni Norvegiyaning milliy motam kuni boʻldi.

Grigning musiqasi dunyo musiqasi sanʼati xazinasiga qoʻshilgan durdonadir. Yorqin ijodiy oʻziga xoslikning milliy musiqiy madaniyat koloriti bilan uygʻunligi bu musiqaning asosini tashkil etadi.

Grig musiqiy obrazlarning aniq tasvirlanishiga intilgan kompozitor boʻlib, aynan uning musiqasida tabiatning poetik obrazlari, xalq maishiy turmushi ifodasiga asoslangan programmalilik katta ahamiyat kasb etadi.

Grig uvertyuralar, kichik orkestr asarlari, mashhur fortepiano konserti, cholg‘u sonatalari, fortepiano pyesalari, “Xalling” - norveg raqslari hamda katta hajmdagi qo‘shiq va romanslar muallifidir.

G‘arbiy Yevropa romantiklari kabi Grig o‘z qo‘shiqlarini turkumlarga birlashtirdi. “Norvegiya” (1893), “Qoyalar va fiordlar bo‘ylab” (1886), “Tog‘lik qiz” (1898) kabi turkumlari shular jumlasidan hisoblanadi. Forteplano pyesalari ichida eng mashhurlari Grig nashr ettirgan 10 ta daftardan iborat “Lirik pyesalar”dir. Ushbu pyesalar bolalar musiqa maktablari va musiqa bilim yurtlarining pedagogik repertuaridan mustahkam o‘rin olgan.

Norveg klassik musiqasi Grigning vafoti bilan tugab qolmadi. Kompozitor milliy kompozitorlik maktabini shakllantirishga erishdi, bu maktab norveg klassik musiqachisi asos solgan musiqiy g‘oyalarni rivojlantirib keldi.

Ijodiy merosi:

1 ta opera

Vokal-simfonik asarlar

“Per Gyunt” dramasiqa musiqa

Uvertyura

Simfonik raqslar

Fortepiano va orkestr uchun konsert

3 ta kvartet

Skripka va fortepiano uchun 3 ta sonata

Violonchel va fortepiano uchun sonata

Fortepiano uchun 170 ta pyesalar

Norveg raqslari va qo‘shiqlari

128 ta romans va boshqa asarlar

“E. Grig ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. E. Grig qaysi milliy musiqa klassigi hisoblanadi?
2. Grig qayerda oliy musiqa ta‘limini oldi?

3. Grig qaysi dramaga musiqa yaratdi?
4. Grigning "Per Gyunt" syuitasining qahramonlarini ayting.
5. Grig qaysi rus kompozitori bilan do'st bo'lgan?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003

Adolf Sharl Adan

(1803 - 1856)

Romantizm davri fransuz kompozitori, balet va opera asarlari muallifi Adolf Adan 1803 - yil 24 iyulda Parijda tug'ildi. Uning otasi Lui Adan kompozitor, pianist va musiqa o'qituvchisi bo'lib, 1844 - yildan Fransiya Institutining a'zosi edi.

Lui Adan, taniqli musiqa o'qituvchisi, 1768 - yilning 3 dekabrda Shletshted shahrida (Elzas) tug'ildi, 18 yoshida Parijga kelib, 1797 - yilda konservatoriya professori lavozimiga ega bo'ldi. Jan Lui Adan 1848 - yilning 11 aprelida vafot etgan.



Yoshlik davrida Adolf Adan musiqaga qiziqmagan bo'lib, olim bo'lishga intilgan. 1814 - yili Adolf Adan Parij konservatoriyasina o'qishga kirib, organ sinfi bo'yicha Fransua Bualdyoda tahsil oldi. Yosh musiqachining muvaffaqiyatlari shunchalik baland bo'ldiki, u 1825 - yilda Rim premiyasiga sazovor bo'ldi.

Adan ustози Fransua Bualdyoga "Belaya dama" operasi ustida ish olib borishga yordam berdi, vodevillar uchun

musiqa yaratdi. Adan "Petr va Yekaterina" nomli bir aktli birinchi operasini 1829 - yilda yozdi.

Kompozitor mashhur baletmeyster Filipm Tal'oni bilan hamkorlik olib bordi, 1833 - yilda Adanning "Faust" baleti sahnalashtirildi.

1830 - yillar oxirida Adolf Adan Sankt-Peterburg shahriga ko'chib keladi, bu yerda "Deva Dunaya" (1838) baletini sahnalashtirish ustida ish olib boradi, keyinchalik Rossiya premyerasi uchun maxsus yaratilgan "Morskoy razboynik" baleti (1840) sahnalashtiriladi.

Kompozitor Parijga qaytib kelgach, 1841 - yilda "Jizel" baletini yaratadi. Ushbu asar Teofil Gotye librettosi asosida yaratilib, fransuz balet san'atida romantik yo'nalishga asos soldi.

"Jizel" baleti Adolf Adan ijodining cho'qqisi bo'ldi hamda dunyo balet san'atida eng yuqori o'rin egallagan mashhur asarlardan biri sifatida tanildi. Adolf Adan ko'plab baletlar muallifidir, ammo "Jizel" va "Korsar" baletlari kompozitor ijodida alohida mavqega ega bo'ldi.

Kompozitor yaratgan baletlardan "Pochtal'on iz Lonjyumo", "Jiralda, ili Novaya Psixeya", "Nyurnbergskaya kukla", "Faust", "Falstaf", "Katerina" kabi asarlarni tilga olish mumkin.

1846 - yilda Adan o'zining shaxsiy teatrini tashkil etishga kirishib, Olimpiya sirki binosini ijaraga oladi. Kompozitor ushbu teatrdagi zamonaviy fransuz asarlarini sahnalashtirishni niyat qiladi, ammo 1848 - yildagi inqilob tufayli teatr yopiladi va Adan ko'p yillar davomida qarzdor bo'lib qoladi.

1847 - yilda Adan Plasida Kappo matni asosida Rojdestvo bayrami uchun "O, Svyataya noch" asarini yaratadi. Ushbu asar birinchi marta Rokmorda Emili Lore tomonidan ijro etiladi. "Rojdestvo qo'shig'i" katolik cherkovda ijro etib kelinadi, keyinchalik bu asar Amerikada nihoyatda mashhur bo'ladi.

1849 - yildan boshlab Adolf Adan Parij konservatoriyasida professor sifatida faoliyat olib boradi. Shu yilda kompozitorning "Toreador" nomli hajviy operasi sahnalashtiriladi, shundan keyin Adan yana 14 ta opera yaratadi.

Kompozitorning ko'plab baletlari orasida oxirgi asarlaridan biri bo'lgan "Korsar" baleti (1856) nihoyatda mashhur bo'ldi.

Adan 50 operalar muallifidir, ulardan “Pochtalyon iz Lonjyumo” (1836) , “Korol iz Iveto” (1842), “Kaliostro” (1844), “Jiralda, ili Novaya Psixeya” (1850), “Yesli bi ya bil korolyom” (1852) asarlari mashhur bo‘ldi.

Ijodkor adabiyot soxasida ham samarali mehnat qilib, qator fel’eton hamda maqolalar nashr etdi. 1859 - yilda Peterburg shahrida “Teatralniy i muzikalniy vestnik” da kompozitorning esdaliklari nashr etildi.

Adan 1856 - yilning 3 may kuni Parijda vafot etdi.

Hozirgi kunda ham Adolf Adanning “Jizel” va “Korsar” baletlari dunyo teatr sahnalarida muvaffaqiyat bilan ijro etilib kelinmoqda.

Ijodiy merosi:

Baletlar:

- “Jizel”, “Gentskaya krasavitsa”, “Chort na chetverix”, “Mramornaya krasavitsa”.

Operalar:

- Xijina (1834)
- Pochtalyon iz Lonjyumo (1836)
- Korol iz Iveto (1842)
- Kaliostro (1844)
- Toreador (1849)
- Jiralda, ili Novaya Psixeya (1850)
- Yesli bi ya bil korolyom (1852)
- Nyurnbergskaya kukla (1852)
- Falstaf (1856)

“A.Adan ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. A.Adan qanday oilada tug‘ilgan?
2. Kompozitor qayerda oliy musiqa ta‘limini oldi?
3. A.Adan yaratgan qaysi baletlar eng mashhur hisoblanadi?

4. Kompozitorning “Jizel” baletining mazmuni qanday?
5. A.Adanning otasi qanday vazifada faoliyat olib borgan?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san’atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003

Jorj Bize

(1838-1875)



Jorj Bize XIX asr ikkinchi yarmi eng yirik fransuz kompozitoridir. U dunyo musiqa madaniyati tarixida realistik musiqa dramasi – “Karmen” operasi hamda Alfons Dodening “Arlezianka” dramasi yozgan musiqasi bilan o’chmas nom qoldirdi. Dj. Verdi, R. Vagner, M.P. Musorgskiy va P.I. Chaykovskiy kabi boshqa milliy madaniyat namoyondalari bo’lmish o’z zamondoshlari qatorida Bize ham musiqa san’atidagi bir qancha muammolarni yecha oldi.

Jorj Bizening asarlari kompozitorlik fikrining aniq va yorqinligi, ifoda vositalarining yangi va o’ziga xosligi, shakllarning tugal va nozikligi bilan ajralib turadi. Inson his-tuyg’ulari va hatti-harakatlarining o’tkir psixologik tahlili bilan Bizeni uning buyuk vatandosh yozuvchilari O. Balzak, G. Flober, G. Mopassan bilan bir qatorga qo’yish mumkin.

Bize sahnani his qila olgan, uning spetsifik qonunlarini tushungan, insonlar karakterini esda qoladigan kuylar bilan aniq va yorqin ko’rsata bilgan. Kompozitor

orkestrrovka masalasida ham o'ta mohir bo'lgan. Bu sifatlarning barchasi Bizeni buyuk opera kompozitori darajasiga ko'tarilishi uchun imkon berdi.

Bo'lg'usi buyuk kompozitor 1838 - yili Parijda, musiqiy oilada tug'ildi. Uning musiqiy iqtidori juda erta namoyon bo'ldi. 10 yoshida Bize Parij konservatoriyasiga fortepiano va musiqa nazariyasi sinfi bo'yicha o'qishga kirdi hamda o'quvchilar ichida alohida yorqin mavqega ega bo'ldi. Konservatoriyada o'qish davomida Bize turli fanlar bo'yicha 7 ta sovringa sazovor bo'ldi, 19 yoshida esa konservatoriyani tugatdi va tezda musiqachi sifatida mashhur bo'ldi.

O'qishni tugatish yili Bize Katta Rim sovriniga ham musharraf bo'ldi, bu sovrin musiqachiga davlat stipendiyasini olish hamda Italiyada uch yil davomida badiiy malaka oshirish uchun imkon berar edi.

Italiyada o'qishni tugatib Parijga qaytgandan so'ng Bize qator yillar davomida ijod bilan shug'ullandi, u opera kompozitori sifatida mashhurlikka erishishni orzu qildi.

Fransiya opera teatri XIX asming 60 - yillariga kelib avvalgi yetakchi ahamiyatini yo'qotgan edi. Fransuz burjua tomoshabinlari uchun sanoqsiz kankanlar, yaltiroq kostumlarga boy hamda yengiltabiat sujetli yangi modaga kirgan operettalar manzur edi. Ana shunday sharoitda Bize opera kompozitori yo'liga qadam qo'yadi.

1862 - yilda u hind mavzusidagi "Marvarid qidiruvchilar" operasini yaratadi. Yosh kompozitorning o'sha davrda urf bo'lgan Sharq ekzotik mavzulariga qiziqishi bu operaning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Uch yildan so'ng Bize besh aktli yirik opera - "Ivan Grozniy" asarini yaratdi, ammo bu opera muvaffaqiyatsiz bo'ldi.

Keyingi besh yil kompozitor hayotidagi eng sermahsul davr hisoblanadi. Aynan shu yillarda kompozitor uni mashhur qilgan asarlarini yaratadi. Ular "Arlezianka" dramasi va musiqi va betakror "Karmen" operasidir.

Bize yaratgan asarlarining sahna qahramonlari o'z baxti uchun kurashuvchi, kuchli ehtirosli, jasur va mag'rur kishilardir. Kompozitor ushbu qahramonlarning taqdirini xalqning hayoti bilan chambarchas bog'liq ravishda ko'rsatadi. U

qahramonlar xarakteristikasini original usul – xalq maishiy musiqasi janrlarida, qo‘shiq va raqslar orqali namoyon etadi. XIX asr operasida paydo bo‘lgan eng yorqin obrazlardan biri – Karmen obrazi aynan shunday tarzda yaratilgan.

Opera sujeti Prosper Merimening (1803-1870) 1845 - yilda yozilgan “Karmen” nomli novellasining uchinchi qismi mavzusiga asoslanadi. 28 yildan keyin dramaturglar A. Milyak va L. Galevi novelladan opera librettosini yaratdilar. Ular asar sujetini dramaturgiya jihatidan chuqurlashtirib, yorqin va esda qolarli, badiiy asardan farq qiluvchi yangi obrazlar yaratdilar.

Asardagi asosiy qahramonlar Xoze, Karmen, Xosening qaylig‘i – nozik va yoqimtoy Mikaela bo‘lib, librettochilar operaga toreador Eskamilyo obrazini, lo‘lilar, kontrabandistlarni kiritadilar, novellada bo‘lmagan yorqin ommaviy xalq sahnalarini ustalik bilan yaratadilar. Natijada Bize ajoyib librettoga ega bo‘ldi, bu esa operaning dunyo miqyosida mashhur bo‘lishida katta ahamiyat kasb etdi.

Kompozitor uvertyuradan tashqari (spektaklga kirish) operaning har bir harakat qismlariga ajoyib simfonik antraktlar yozdi. Ushbu antraktlar Ispaniyaning tabiati va maishiy hayotining musiqiy suratlari bo‘lib, aynan ular operaga o‘ziga xos ispancha kolorit bag‘ishlaydi.

“Karmen” operasining premyerasi muvaffaqiyatsiz o‘tgan, xolos toreador Eskamilyoning kupletlarigina manzur bo‘lgan.

Kutilmagan holda kompozitor kasallikka uchraydi, opera premyerasidan uch oy o‘tgach, vafot etadi. Bize atigi 37 yil umr ko‘rgan.

Ikki yildan so‘ng P.I. Chaykovskiy opera bilan tanishadi va uni asrning noyob asari sifatida baholaydi.

Kompozitor vafotidan 8 yil o‘tgach opera muvaffaqiyat bilan qayta sahnalashtiriladi, ushbu asar hozirgi kungacha dunyodagi eng mashhur operalardan biri hisoblanadi.

1967 - yili rus kompozitori R.K. Shedrin operaning musiqiy materiali asosida bir aktli “Karmen syuita” balet spektaklini yaratdi, ushbu spektakl baletmcyster A. Alonso tomonidan M.M. Plisetskaya uchun qo‘yildi.

Ushbu sujetning bir qancha teatrlashtirilgan va kinematografik ko‘rinishlari ham mavjuddir.

Ijodiy merosi:

7 ta opera

“Arlezianka” dramasiqa musiqa

2 ta simfonik syuita

Simfoniya “Rim”

Oda-simfoniya “Vasko da Gama”

Fortepiano uchun pyesalar

“Jorj Bize ijodi” mavzusi bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. J.Bize qanday oilada tug‘ildi?
2. Konservatoriyada o‘qish davomida Bize nechta sovringa sazovor bo‘ldi?
3. Kompozitor ijodining o‘ziga xosligi nimada?
4. J.Bize qaysi operalari bilan mashhur bo‘ldi?
5. Kompozitor necha yoshida vafot etdi?

Adabiyotlar:

1. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
2. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
3. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
4. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Djuzeppe Verdi

(1813-1901)



Yirik italyan opera kompozitori Djuzeppe Verdi 1813- yilda tug'ildi. U tarixda opera kompozitori sifatida o'zining o'chmas izini qoldirdi.

XIX asrning 50-60- yillari Djuzeppe Verdi ijodining gullagan va markaziy davri hisoblanadi. Kompozitor opera janrida yangi sujetlar, yangi obrazlarni izlaydi va ularni Viktor Gyugo, Djordj Bayron, Vilyam Shekspir, Fridrix Shiller asarlaridan topadi.

Shu yillarda yaratilgan asarlar ichida Verdi ijodining cho'qqisi uchta opera bilan belgilanadi: ular "Rigoletto", "Traviata" va "Trubadur" operalari hisoblanadi.

Bu asarlar Verdining psixologik aniqlikka, operadagi obrazlar sahnaviyiligiga intilishidan darak beradi. Shu davrgacha opera janri tarixida bunday holat kuzatilmagan edi.

Verdi yaratgan operalarning musiqiy tili sodda va tinglovchi uchun tushunarlidir. Yorqin, esda qolarli kuylar operaning tomoshabinlar tomonidan keng qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

V.Gyugoning "Qirol dilxushi" dramasi "Rigoletto" operasining sujetiga asos bo'ldi. Operani yaratishda Gyugoning matni birmuncha o'zgartirildi, qisqartirildi, sotsial mavzular, davr va voqea o'rni almashtirildi.

Kompozitorni avvalo, qahramonlarning psixologik dramasi qiziqtirar edi. Opera markazida Rigoletto obrazi – achchiqso'z masharaboz, mehribon, chuqur izzitirob chekuvchi ota, shiddatli qasoskor turadi. Unga qarama-qarshi yengiltabiat Gersog hamda uning saroy ahli qo'yiladi. Rigolettoning qizi – Djilda o'zida qalban poklik va sadoqat obrazini mujassam etadi.

Operaning librettosi Verdining doimiy hamkori librettochi F.Pive tomonidan yozilgan. Kompozitor esa opera musiqani 40 kun ichida yaratadi. 1851-yili

Venetsiyada “Rigoletto” operaning premyerasi bo‘lib o‘tdi va shu davrdan ushbu asar tomoshabinlar tomonidan ko‘tarinkilik bilan qabul qilib kelinmoqda.

“Rigoletto” tipik romantik operadir, bu haqda spektakl qahramonlarining obrazlari, sahna lavhalarining tig‘izligi, opera voqealarining ko‘proq tunda sodir bo‘lishi va qonli yechimning momaqaldiroq hamda yomg‘ir bilan bir vaqtda o‘tishi darak beradi. Shu bilan birga, xarakterlarning musiqiy-psixologik jihatdan ishlanishida kompozitor yetuk realist musiqachi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Rigoletto” premyerasidan uch yil keyin Verdingning “Traviata” operasi namoyishi bo‘lib o‘tadi. Bu opera mavzusi A.Dyumaning(o‘g‘li) “Dama s kameliyami” dramasi ga asoslangan bo‘lib, qahramon prototipi Parijda mashhur bo‘lgan Mari Dyuplessi hisoblanadi.

Tez orada A.Dyumaning “Dama s kameliyami” romani dramaga aylantiriladi. 1852- yilning fevralida Verdi Parijga keladi va dramaning premyerasida ishtirok etadi. Kompozitor o‘zi uchun yangi, opera sahnasi uchun an’anaviy tashqi effektlardan yiroq bo‘lgan sujetni topganini tushunadi. Bu asarda barcha voqealar qahramonlarning ichki kechinmalariga asoslangan edi. Verdi o‘zining lirik operasini “Traviata” deb nomladi(italyancha “adashgan”). Opera qahramoni, Violetta, jamiyat yuz o‘g‘irgan ayol bo‘lsa-da, ammo mardligi va ichki dunyosining go‘zalligi bilan o‘sha jamiyat kishilaridan ustun turar edi.

“Traviata” operasining premyerasi muvaffaqiyatsiz o‘tgan. Muallifni opera janrini yerga urish hamda yoshlar tarbiyasiga zarar yetkazishda aybladilar.

“Traviata” operasidan keyin Verdi yana tarixiy mavzularga qaytadi. Shu davr asarlari ichida eng taniqlisi “Aida” operasi hisoblanadi. Asarning asosiy mazmuni tarixiy voqealarni ifoda etish emas, balki asosiy qahramonlarning ichki dramasini aks ettirishdir. Opera janri uchun an’anaviy bo‘lgan his-tuyg‘u va burch o‘rtasidagi qarama-qarshilik bu yerda o‘zgacha yechim topadi. Bu kelishmovchilik sevgi uchburchagidagi qahramonlarning birortasi uchun ham ijobiy hal etilmaydi, operaning hayotiy haqiqati ana shundadir.

Bu o‘rinda burch hissi ham, Aida va Radamesning sinovlardan o‘tgan o‘zaro muhabbati ham g‘alaba qiladi, bu muhabbat o‘lim oldida ham chekinmaydi. Shuni

ta'kidlash zarurki, "sevgi o'limdan kuchli" degan mavzu romantik san'ati dramatik asarlarining ko'pchiligi uchun xarakterlidir.

"Aida" operasidan keyin Verdi ancha vaqtgacha opera yaratmaydi. U qishloqda yolg'izlikda hayot kechiradi, dehqonchilik bilan shug'ullanadi va mashhur maestrodan ko'ra ko'proq dehqonga o'xshaydi.



Verdining keyingi "Otello" operasi V. Shekspir tragediyasi mavzusiga asoslangan bo'lib, "Aida" premyerasidan 16 yil o'tgach yaratildi. Verdi bu davrda 73 yoshda edi.

Kompozitor opera ustida 7 yil ishladi, bu uslubi jihatidan umuman yangi opera bo'ldi. Asar tugallangan vokal nomerlar, ariyalar, duetlarga emas, balki to'xtovsiz musiqiy rivojga asoslandi.

O'zining oxirgi operasini kompozitor 80 yoshida yaratdi. Bu Shekspir asari mavzusidagi hajviy opera bo'lib, Verdi uni asosiy qahramonning ismi bilan "Falstaf" deb nomladi.

Opera sahnalashtirilgandan so'ng kompozitor osuda qishloq hayotiga qaytadi. Katta boylikka ega bo'lgani hamda farzandlari bo'lmagani sababli, Verdi dehqonlar uchun bepul kasalxona qurdiradi. Milanda uning mablag'i hisobiga musiqachilar uchun to'liq ta'minlashga asoslangan qariyalar uyi barpo etiladi. Bu uyni ta'minlash uchun Verdi o'z operalaridan keladigan daromadlarning hammasini bag'ishlaydi.

Kompozitor 1901 yil yanvarida 88 yoshda vafot etadi.

Ijodiy merosi:

26 ta opera

Rekviyem

Kvartet

20 ta romans va vokal ansambllar

"Djuzeppe Verdi ijodi" mavzusi bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. D.Verdi qaysi janrda asarlar yaratdi?
2. Kompozitorning operalari qanday nomlanadi?
3. D.Verdi oxirgi operasini necha yoshida yaratgan?
4. “Aida” operasi qaysi voqealarga bag‘ishlangan?
5. “Otello” operasi qaysi yozuvchi asariga asoslangan?

Adabiyotlar:

1. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
2. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san’atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
3. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
4. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.

Iogann Shtraus

(1825-1899)



Avstriyalik kompozitor, skripkachi va dirijor Iogann Shtraus musiqa tarixida valslar ijodkori sifatida o‘chmas iz qoldirgan. Iogann Shtraus musiqiy oilaga mansub bo‘lib, uning otasi Iogann Shtraus (1804-1849) iqtidorli kompozitor va Venadagi yirik raqs simfonik orkestrining egasi bo‘lgan. Iogann Shtraus kompozitor Yozef Laner bilan birgalikda vals janrini ijod qilgan deb hisoblanadi, keyinchalik u **Vena valse** deb nomlangan.

Ular yirik simfonik raqs pyesalari bo‘lib, kirish, beshta kontrast qismlar va kodadan iborat. Ushbu asarlar Venaning bog‘lari hamda ochiq estrada parklarida ijro etilib, har bir vals o‘z nomiga ega bo‘lgan.

Vena valsı janrining eng yuksak rivojı kompozitorning o'g'li – “vals qiroli” degan nom olgan Iogann ijodida yorqin namoyon bo'ldi. U 500 dan ortiq raqs-konsert ko'rinishida asarlar yaratgan bo'lib, ularning ichida “Vena o'rmoni ertaklari”, “Ajoyib moviy Dunayda”, “Peterburg bilan xayrlashuv” kabi valslar nihoyatda mashhur bo'lgan.

Iogann Shtraus 1825- yilda Vena shahrida musiqachi oilasida tug'ildi. U otasining qarshiligiga qaramay, yoshligidan musiqa san'atini o'rgandi, skripkada ijroni o'zlashtirdi. U birinchi valsini 6 yoshida yaratdi.

Shtraus 1844 - yilda o'zining shaxsiy orkestrini tashkil etdi, otasining vafotidan so'ng ikki orkestrni birlashtirdi va ushbu jamoa bilan Yevropa bo'ylab gastrol safarlarida bo'ldi.

Shtrausning valsleri romantik ruhdagi raqs poemalaridir. Kompozitor birinchi bo'lib musiqaning bu kabi “yengil” janrini yuqori badiiy saviyaga ko'tara oldi.

Shtrausning ijodi yevropalik, shu bilan birga rus kompozitorlarining ijodiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. G. Maler, R. Shtraus, G. Berlioz, F. List, R. Vagner, N. Rimskiy-Korsakov, P. Chaykovskiy kabi kompozitorlar uning ijodiga yuqori baho berdilar.

Shtraus o'z orkestri bilan bir necha marta Rossiyaga gastrollar bilan kelgan, qator konsertlarda ishtirok etgan. Hozirgi davrga kelib Shtraus musiqasiga “Shtrausiana” va “Moviy Dunay” kabi balet spektakllari qo'yilgan.

Shtraus 16 ta operettalar muallifidir. Biroq davr o'tishi bilan Vena operettasi o'ziga xos uslublarga ega bo'lib bordi. Bu operettalar librettosi yengil vodevil fitnalari, kiyim almashish, tushunmovchiliklar, voqeaning kutilmagan o'zgarishlariga asoslanadi. Voqeaning umumiy ruhi xursandchilik va sokinlik bilan ajraladi.

Vena operettalarining badiiy qiymati, avvalo, musiqaning sifati bilan belgilanadi. Shtrausning Vena operettalari musiqiy tili asosini vena valsı, marsh, galop, polka, mazurka, chardashning turli shakllari tashkil etadi. Shtrausning eng mashhur operettalari “Ko'rshapalak” (1874) va “Lo'lilar baroni” (1885) hisoblanadi.

XX asrda Vena operettasi yangi yuksalishga qadam qo'yadi. F.Legar, O. Shtraus, I. Kalman operetta janriga yangi hayot beradilar. O'sha davrda F. Legarning "Quvnoq beva" (1905) va "Graf Lyuksemburg" (1809); Imre Kalmanning "Silva" (1915), "Bayadera" (1921) va "Maritsa" (1924) asarlari eng yorqin operettalar bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanish arafasida Yevropa operettasi inqirozga uchradi.

Ijodiy merosi:

1 ta opera

1 ta balet

15 ta operetta

460 ta vals, polka, galop, marsh va boshqa raqs pyesalari

"Iogann Shtraus ijodi" mavzusi bo'yicha savol va topshiriqlar

1. I.Shtrausning otasi kim bo'lgan?
2. Kompozitor qaysi janrda ijod qilgan?
3. Nima uchun I.Shtraus "vals qirol?" nomini olgan?
4. Kompozitor ijodiga mansub qanday operettalar bor?
5. I.Shtraus o'z orkestri bilan qaysi davlatlarda gastrolida bo'lgan?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003

Klod Debyussi

(1862-1918)



Fransuz kompozitori, pianinochisi va dirijor Klod Debyussi musiqiy impressionizmning asoschisi hisoblanadi. Impressionizm musiqiy san'at mavzusini o'zgartirdi: ulkan mifologik sujetlar, muhabbat, insoniy jo'shqin munosabatlar yo'qolib, o'rninga kunning turli vaqtiga munosib bo'lgan tabiat mavzusi, daraxt, yomg'ir, quyosh, dengiz kabi mavzular paydo bo'ldi. Impressionistlar o'z ijodlarida inson mavzuidan voz kechib, jonsiz tabiatga jon ato etadilar.

Musiqiy janrlarning bir-birlariga munosabati o'zgardi, rivojlangan ko'p qismli simfoniyalar ortda qolib, ularning o'rmini simfonik eskizlar egallaydilar.

Impressionistlarning ijodiy usuli asosida tasvirlab beralayotgan obyektдан olingan, ijtimoiy muammolardan umuman xoli bo'lgan, bir lahzalik, ko'z ilg'amaydigan taassurotlarni yetkazishga intilish yotar edi.

Debyussi yevropalik musiqaga yangi garmonik bo'yoqlar va orkestr ohangining rang-barangligini kiritadi. Kompozitor har bir ijro etilayotgan lahzaning estetik boyligini ko'rsatib, musiqiy davrning yangi konsepsiyasini beradi. Uning asarlarini XX asr boshining "musiqiy lahzalari" deb nomlasa bo'ladi.

Kompozitorning musiqiy fikrlashida haqiqatdan hayolchanlik, dinamikadan turg'unlik ustun turardi, chunki iste'dod kuchining barchasi musiqada go'zallikning nafis tuyg'ularini aks ettirishga qaratilgan edi.

Klod Debyussi 1832 - yilda Parij yaqinida tug'ildi. U Parij konservatoriyasida tahsil olib, uni katta Rim premiyasi bilan tugatdi. Kompozitor ijodiy faoliyati davomida Rossiya, Angliya, Avstriya, Gollandiya va Italiya kabi mamlakatlarda safarda bo'ldi.

90- yillarda Debyussi impressionist-rassomlar va simbolist-shoirlar bilan juda yaqinlashib qoladi. Aynan shu yillarda ijodining gullash davri boshlanadi. Kompozitor unga jahon miqyosidagi mashhurlikni keltirgan qator asarlarni yaratadi.

Uning “Favnning tushlikdan so‘nggi hordig‘i” preludiyasi, “Nokturn” syuitasi, “Dengiz” uch qismli simfoniyasi impressionistik uslubining namunasiga aylanadi.

“Favnning tushlikdan so‘nggi hordig‘i” preludiyasi Stefan Mallarme dostoni asosida 1882 - yili yaratiladi.

Uch qismli “Dengiz” simfoniyasida kompozitor tabiat hodisalarining ba‘zan osuda, ba‘zan mavj urgan holatlarini aks ettirgan.

Debyussi ijodiy yo‘lining yakuni fortepiano uchun yozilgan ikki jild preludiyalar hisoblanadi. Ularda kompozitor uslubining xarakterli va o‘ziga xos xususiyatlari mujassamlangan. Debyussi yaratgan preludiyalar G‘arbiy Yevropa musiqasida preludiya janrining rivojlanishini yakunladi.

Debyussining qariyib barcha musiqasi dasturiydir. Ushbu dasturiylik sujet bilan bog‘liq bo‘lmay, tasviriy suratni aks ettirardi. Ular ko‘proq tinglovchi va ijrochi-musiqachining fantaziyasini qo‘zg‘atuvchi asarning nomi bilan bog‘liq edi.

Debyussi Rossiya va rus musiqasiga qiziqishi kuchli edi. Kompozitor ko‘p marta Moskva va Peterburgga tashrif buyurib, Musorgskiy, Rimskiy-Korsakov, Chaykovskiyning dahosiga tan bergan. Debyussi I.Stravinskiy, rus san‘atini tinimsiz targ‘ib etuvchi mashhur baletmeyster M.Fokin va S.Dyagilev bilan yaqin do‘stlik rishtalari bilan bog‘langan.

Rus baletmeysteri M.Fokin ham zamon zayliga binoan impressionizmni balet sahnasiga moslashtirishga intiladi. U 1912 - yili S. Dyagilev trupпасi uchun Debyussining “Favnning tushlikdan so‘nggi hordig‘i” musiqasi asosida bir aktli baletni sahnalashtiradi.

XX asr boshiga kelib impressionizm Fransiya chegaralaridan o‘tib, boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Ispaniyada Manuel de Falya, Italiyada Ottarino Respigi, Polshada Karol Shimanovskiy, Rossiyada Aleksandr Skryabin uning izdoshiga aylanadi.

Rus musiqa madaniyatida impressionizm A.Skryabin musiqasi uchun xos bo‘ldi. Yosh Igor Stravinskiyning baletlarida (“Otashli qush”, “Petrushka”, “Muqaddas bahor”) ham impressionizm hissi sezilarli edi.

Impressionistlar dunyo faqat ijtimoiy muammolar va iztiroblardan, inson borlig'ining dramatik nazmidan tashkil topmay, balki insoniy ruhiyat, ajib lahzalar dunyosidan tarkib topganligini isbotlashga harakat qilganlar.

Musiqiy san'at tarixida impressionizm rang tasvirining ohangrabo tajribasi va musiqiy san'atning prinsipial imkoniyatlarining illyustratsiyasidan biri tariqasida qolgan edi.

Ijodiy merosi:

1 ta opera

3 ta balet

2 ta kantata

Fortepiano uchun preludiya va Nokturnlar

3 ta simfonik eskiz

Skripka va orkestr uchun Fantaziya

Kvartet

Sonatalar

24 preludiya

12 ta etyud

50 ta romans

Fortepiano uchun turli pyesalar



Moris Ravel

(1875-1937)



Moris Ravel ham o‘z ijodini impressionizm uslubi bilan bog‘ladi. Ko‘pincha uni Debyussi ijodining yaqin izdoshi deb ham hisoblaydilar. Darhaqiqat, Ravelning musiqiy o‘spirinlik davri aynan Debyussi nomi va uning musiqasi hammaga tanish bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelgandi.

Ravel 1835 - yilda Fransiyaning Sabur shahrida tug‘ildi. U Parij konservatoriyasida tahsil olib, pianist va dirijyor sifatida Yevropa hamda Amerika bo‘ylab konsert safarlarida bo‘ldi. 1929 yilda Ravelga Oksford universitetining faxriy doktori unvoni berildi.

Ravel talabalik yillari paytidayoq, haqiqiy ustani boshqalardan ifoda vositalarining haddan tashqari tejamkorligi ajratib turadi, degan fikrga kelgan edi.

Ravel impressionizm juda yoqimli bo‘lsa ham, musiqiy san‘at rivojlanishining bosh va yetakchi yo‘li emasligini tushunib yetardi. U haqiqiy fransuz sifatida eng tuyg‘uli musiqiy kompozitsiyalarda doimo aql-idrokni asos qilib olardi, romantizm, impressionizm unga yot edi.

Kompozitorga birinchi shon-shuhrat 1908 - yilda yaratilgan “Ispan rapsodiyasi” asari bilan keldi. Rapsodiya to‘rt qism: “Tunga preludiya”, “Malaguenya”, “Xabanera”, “To‘y-tomosh” dan iborat edi. Bu asar Ravel ijodining cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Ravelning onasi ispan bo‘lgani uchun, unda ispan musiqasiga muhabbat meros edi.

Ravelni rus kompozitorlarining ijodi juda qiziqtirgan. M.Musorgskiyning “Boris Godunov” operasidan “Qo‘ng‘iroqlar”, Balakirevning “Islamey”, A.Borodinning “Knyaz Igor” operasidan “Polovets raqslari” va N.Rimskiy-Korsakovning “Shahrizoda” asari Ravel musiqiy uslubining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan yorqin namunalardir.

Ravelning do'stlari qatorida talaygina rus musiqachilari ham bor edi. Ular qatorida I. Stravinskiy, S.Dyagilev, V. Nijinskiy, Ida Rubinshteyn, M.Fokinlar o'rin olgandilar. Antik mavzudagi "Dafnis va Xloya" baletini yaratish aynan M.Fokinning fikriga kelgandi. Ravel o'z baletini "uch qismli xoregrafik simfoniyasi" deb atagan edi. Baletning premyerasi Parijda, Rus baleti ijrosida 1912 - yili bo'lib o'tgan. Bosh rollarni Tamara Karsavina va Vatslav Nijinskiy ijro etganlar.

Bu premyera Ravelni rus san'ati bilan yanada yaqinlashtirdi. Kompozitor 1912-yilda M.Musorgskiyning "Ko'rgazmadan suratlar" nomli fortepiano uchun turkumini orkestr uchun moslashtiradi. Mazkur partitura XX asrning nodir simfonik partituralari qatoridan o'rin egallaydi.

M. Ravelning ijodi keng sonli tinglovchilarga "Bolero" (1928) asari bilan mashhur bo'ldi. Bu asar Dyagilev balet truppasining yakkaxon ijrochisi Ida Rubinshteyn buyurtmasiga binoan yaratildi.

"Bolero" shakl tuzilishi bo'yicha o'zgarmas kuyning orkestrli variatsialari hisoblanadi. Bunda Ravel qiziqarli tajriba o'tkazgan: butun boshli asar davomida u bittagina mavzuni 18 marta qaytargan. Biroq bu mavzu monoton bo'lmagan, chunki har gal u turli cholg'ularda ijro etilgan. Sadoning keskinligi tobora o'sib borib, finalda o'z cho'qqisiga yetadi. Rus kompozitori Sergey Prokofyev "Bolero" partiturasini kompozitorlik mahoratining mo'jizasi va zamonaviy orkestrrovkaning ensiklopediyasi deb baholagan edi.

Kompozitor hayoti davomida munosib e'tiborga ega bo'ladi. Ravel Oksford universitetining faxriy doktori bo'lgan, u hayot paytida o'zi tug'ilib o'sgan ko'cha Moris Ravel bulvari deb nomlangan. Birinchi jahon urushi yillari Ravelning talabiga binoan harakatdagi armiya safiga tayinlangan va sanitar mashina haydovchisi bo'lgan.

Kompozitor hayotining so'nggi yillari uzluksiz qiynalishlarga to'la fojiali yillar bo'ldi. Frontda avtomobil halokati oqibatida olingan shikastalik davosi yo'q miya shishiga aylanadi.

Ravelning barcha asarlari o'ziga xos uslubda yozilgan bo'lib, ular mukammal mumtoz asarlarga xos xususiyatga ega: har gal eshitgan sari insonga yoqib, borgan sari ko'proq zavq bag'ishlaydi.

Ravel pedagogik amaliyot bilan shug'ullanmagan va o'zidan so'ng kompozitorlik maktabini qoldirmadi, biroq uning ijodi XX asrning barcha musiqiy madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Ijodiy merosi:

1 ta opera

1 ta opera-balet

3 ta balet

Ispan rapsodiyasi

Orkestr uchun Bolero, Vals va boshqa asarlar

Fortepiano va orkestr uchun konsert

Kvartet

3 ta poema va boshqa asarlar

“Klod Debyussi va Ravel ijodi” mavzusi bo'yicha savol va topshiriqlar

1. K. Debyussi qaysi cholg'uda ijrochi bo'lgan?
2. Kompozitor qaysi rus ijodkorlari bilan do'st bo'lgan?
3. K. Debyussi yaratgan qanday asarlarni bilasiz?
4. Ravel qaysi davr kompozitori hisoblanadi?
5. Ravelga qaysi asar mashhurlik olib keldi?
6. Kompozitor pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanganmi?
7. Ravelni qaysi rus kompozitorlari ijodi qiziqtirgan?

Adabiyotlar:

1. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
2. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
3. Mixaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
4. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003

Mavzular bo'yicha test savollari

1. Musiqaning ifodaviy vositasini belgilang:

- a) repriza
- b) dinamika
- v) pauza
- g) alteratsiya belgisi

2. Cherkov cholg'usini aniqlang:

- a) klavesin
- b) fleyta
- g) organ
- d) lyutnya

3. Gaydn nechta simfoniya yaratgan?

- a) 104
- b) 54
- v) 34
- g) 32

4. Motsart yaratgan operani aniqlang:

- a) Karmen
- b) Aida
- v) Sehrli nay
- g) Traviata

5. Klavishli cholg'uni aniqlang:

- a) fortepiano
- b) skripka
- v) litavra
- g) fleyta

6. Y. Gaydn qaysi mamlakat kompozitori?

- a) Angliya
- b) Fransiya
- v) Avstriya
- g) Germaniya

7. Venger raqsini aniqlang:

- a) xorovod
- b) vals
- v) xota
- g) chardash

8. Vals “qirolini” aniqlang:

- a) Betxoven
- b) Shtraus
- v) Motsart
- g) Verdi

9. Y. Gaydn qaysi musiqiy davr kompozitori?

- a) romantizm
- b) klassitsizm
- v) antik
- g) o' rta asr

10. “Figaroning uylanishi” operasini kim yaratgan?

- a) Betxoven
- b) List
- v) Motsart
- g) Verdi

11. Romantizm davri kompozitorini aniqlang:

- a) Motsart
- b) Betxoven
- v) Shopen
- g) Gaydn

12. Grig yaratgan asarni aniqlang:

- a) Per Gyunt
- b) Aida
- v) Aragon xotasi
- g) Italyan kaprichchiosi

13. "Rekviyem" asarining muallifini aniqlang:

- a) Betxoven
- b) Motsart
- v) Shopen
- g) Gaydn

14. F.Shopen qaysi davr kompozitori?

- a) romantizm
- b) klassitsizm
- v) XX asr
- g) o'рта asr

15. Torli – kamonli cholg'uni aniqlang:

- a) fleyta
- b) skripka
- v) litavra
- g) truba

16. Musiqada romantizm davri qachon boshlangan?

- a) XX asr
- b) XV asr
- v) XVII asr
- g) XIX asr

17. Ludvig van Betxoven qaysi simfoniyasiga xor kiritgan?

- a) 5
- b) 8
- g) 3
- d) 9

18. "Vengercha rapsodiyalar" muallifini aniqlang:

- a) List
- b) Verdi
- v) Shopen
- g) Bize

19. Puflama cholg'uni aniqlang:

- a) fortepiano
- b) skripka
- v) litavra
- g) goboy

20. Verdi yaratgan operani aniqlang:

- a) Karmen
- b) Aida
- v) Masharabozlar
- g) Figaroning uylanishi

21. “Oydinli sonata” ni kim yaratgan?

- a) List
- b) Verdi
- v) Betxoven
- g) Bize

22. Motsart qaysi davr kompozitori?

- a) romantizm
- b) klassitsizm
- v) XX asr
- g) o’rta asr

23. D.Verdi asosan qaysi janrda asarlar yaratgan?

- a) balet
- b) opera
- v) simfoniya
- g) sonata

24. Urma cholg’uni aniqlang:

- a) fleyta
- b) skripka
- v) litavra
- g) truba

25. Bize yaratgan operani aniqlang:

- a) Masharabozlar
- b) Karmen
- v) Aida
- g) Figaroning uylanishi

26. Shopen asosan qaysi cholg‘u uchun asar yaratgan?

- a) fleyta
- b) skripka
- v) alt
- g) fortepiano

27. “Aida” operasining muallifi kim?

- a) Betxoven
- b) Verdi
- v) Motsart
- g) Bize

28. Debyussi qaysi davr ijodkori?

- a) romantizm
- b) klassitsizm
- v) XX asr
- g) impressionizm

29. Fransuz raqsini ko‘rsating:

- a) xorovod
- b) vals
- v) menuet
- g) polka

30. “Traviata” operasini kim yaratgan?

- a) Betxoven
- b) Verdi
- v) Motsart
- g) Bize

31. Italyan raqsini ko'rsating:

- a) tarantella
- b) vals
- v) xota
- g) chardash

32. L. Betxoven nechta simfoniya yaratgan?

- a) 5
- b) 6
- v) 3
- g) 9

33. F. Shopen qaysi mamlakat kompozitori?

- a) Polsha
- b) Vengriya
- v) Angliya
- g) Fransiya

34. V.A.Motsart yaratgan asarni belgilang:

- a) Rekviyem
- b) Aragon xotasi
- v) Italyan kaprichchiosi
- g) "Oydinli" sonatasi

35. F.List qaysi cholg'uda mohir ijrochi bo'lgan?

- a) organ
- b) skripka
- v) alt
- g) fortepiano

36. A.Adan yaratgan baletni ko'rsating:

- a) Jizel
- b) Uyuqdagı go'zal
- v) Romeo va Djulyetta
- g) Oqqush ko'li

37. V.A.Motsart necha yoshida akademik unvonini olgan?

- a) 18
- b) 24
- v) 14
- g) 22

38. Klassitsizm davri kompozitorini aniqlang:

- a) Shopen
- b) List
- v) Gaydn
- g) Grig

39. Fransuz raqsini ko'rsating:

- a) tarantella
- b) vals
- v) sarabanda
- g) xota

40. Musiqaning ifodaviy vositasini aniqlang:

- a) dinamika
- b) repriza
- v) koda
- g) pauza

41. Betxoven qaysi cholg'uda mohir ijrochi bo'lgan?

- a) alt
- b) skripka
- v) fortepiano
- g) fleyta

42. Y.Gaydn qaysi mamlakat kompozitori?

- a) Polsha
- b) Avstriya
- v) Angliya
- g) Fransiya

43. V.A.Motsart necha yoshida birinchi asarini yaratgan?

- a) 8
- b) 24
- v) 14
- g) 4

44. F.Shubert nechta qo'shiq yaratgan?

- a) 108
- b) 240
- v) 140
- g) 500

45. I.S.Bax nechta preludiya va fuga yaratgan?

- a) 48
- b) 16
- v) 12
- g) 54

46. L. Betxoven qaysi mamlakat kompozitori?

- a) Angliya
- b) Avstriya
- v) Germaniya
- g) Fransiya

47. “Qish yo‘li” vokal turkumini kim yaratgan?

- a) Shopen
- b) List
- v) Gaydn
- g) Shubert

48. “Sehrli nay” operasini kim yaratgan?

- a) Motsart
- b) List
- v) Gaydn
- g) Betxoven

49. F. Shopen ijodidagi asosiy mavzu qaysi?

- a) muhabbat
- b) Vatan
- v) qayg‘u
- g) shodlik

50. I.S. Bax qaysi cholg‘uda ijrochi bo‘lgan?

- a) organ
- b) skripka
- v) fortepiano
- g) alt

Glossariy

Atama	Mazmuni	Ingiliz tilida
Avlos <i>aulos</i>	Qadim Grek puflama musiqiy cholg'u, grekchada «trubkacha». Avlosda antik tragediyalarda harbiy musiqada tatbiq etilgan.	"Tuba" - the ancient Greek wind musical instrument. Playing the aulos was used in ancient tragedy, in the cult of Dionysus and Cybele, military music (Sparta), for the entertainment of the various segments of the population.
Aed <i>Aed</i>	Grekcha «qo'shiqchi» — qadimgrek xalq qo'shiqlari ijrochisi. Aedlar VII—VI asrlargacha saroyda ham xizmat qilganlar.	With the Greek. "Singer" - the ancient Greek story-teller of folk songs, the basis of the ancient epic. Aeds could be itinerant or permanent service of kings and Greek communities, mainly to the VII-VI century.
Ariya <i>Aria</i>	(it. aria — qo'shiq, asosiy ma'nosi — havo) 1. Opera, kantatada tugallangan nomer.	(Um aria -. The song, the main value - the air) 1. The solo number from the opera, cantata, etc., wherein the construction of completeness, expressive melodies.
Balet de court <i>Ballet de court</i>	Fransiyadagi saroy baleti (XV-XVIII asr).	Court ballet in France XV-XVIII century.
Balet d'antre <i>Ballet d'antre</i>	XV-XVIII asr saroy baletidagi janr.	Ballet to the outputs, one of the genres of court ballet XV-XVIII centuries
Belkanto <i>Bel canto</i>	(it. bel canto — ajoyib kuylash) — XVII—XIX asr italyan operasi uchun kuylash uslubi.	(Um bel canto -. Beautiful singing) - vocal style, typical of the Italian opera art XVII- XIX centuries.
Vagant <i>Vagant</i>	(lot. vagantes — sayyoh) — G'arbiy Yevropada o'rta	(Latin vagantes - Stray) - wandering poet-singers in the countries of the medieval Western Europe.

	asrlar sayyoh shoir-qo'shiqchilari.	Performed with parody and satirical songs glorifying earthly pleasures. Vagant songs were precursors of student songs, t. h. "Gaudeamus".
Vals Waltz	(nem. valzer, valzen – aylanish, oyoqlarni aylantirish) – aylanishga asoslangan juft raqs. Musiqiy o'lchovi 3-hissali (3/4). Lendler, volta va doychе valsdan avvalgi raqslar. «Vals qirol» Shtraus hisoblanadi.	(German valzer, valzen -. Whirl, twist the legs) - pair dance based on smooth whirling. Musical size 3-partite (3/4). The immediate predecessors waltz Austrian Ländler, volts and Deutsche. The heyday of the Viennese waltz is associated with the work of J. Lanner, Johann Strauss, nicknamed the "King of Waltz".
Gvido d'Aretsso Guido d'Arezzo	Gvido d'Aretsso (991-1033 y.y.) - italiyalik monax. To'rtta chiziqli nota yozuvini kiritgan.	Guido d'Arezzo (991-1033 gg.) - Italian monk. He coined the four-way stave and then shestistupenny scale with syllabic notation stages, comes from the initial syllables of the Latin hymn.
Gomofon-garmonik Homophonic-harmonic	(gr. homos — teng va phone — tovush, ovozs) — ko'povozli musiqa, bitta ovoz asosiy (yuqori tovush) boshqalari jo'navoz.	(From c homos -. Equal and phone - sound, voice) - polyphonic music store, which is one of the voices (usually the upper) is the principal, and the rest accompany it, as if performing a role of accompaniment.
Impressionizm Impressionism	(frans. taassurot) XIX - XX asrlardagi musiqiy yo'nalish. Impressionizm rassomchilikda paydo bo'lgan. Asoschilari K.Mone, musiqada K. Debyussi, E. Sati.	(From French. Impression) musical direction at the turn of 19-20 centuries. Initially Impressionism originated in the visual arts in the works of Monet. The founders of the musical impressionism were Claude Debussy, E. Satie.

Konsert Concert	(it. concerto lotincha. concerto — musobaqa) 1. Musiqa asarini jamoatchilik oldida ijro etish. 2. Yakkaxon va orkestr uchun sonata shaklidagi yirik musiqiy asar janri.	A composition written for a solo instrument. The soloist plays the melody while the orchestra plays the accompaniment.
Kryuk Hooks	Qadimrus chiziqsiz nota yozuvi. Cherkov musiqasini yozish uchun foydalanilgan. Har bir kryuk (70 dan ortiq) turli balandlikdagi bitta yoki bir nechta tovushni ifoda etgan.	Signs of ancient bezlineynogo musical notation, which is located on the text and used to write church music, t. n. znamenny chant. Each of the hooks (there were 70) is one or more sounds of different heights, the rhythm and nature of performance.
Klassik Classical	1700- yildan 1800- yillar o'rtasigacha davom etgan musiq tarixi davri.	The period of music history which dates from the mid 1700's to mid 1800's. The music was spare and emotionally reserved, especially when compared to Romantic and Boroque music.
Leytmotiv leitmotif	(nem. «yetakchi motiv») – musiqiy tuzilma, personaj, predmet, his-tuyg'ularni ifoda etishda ishlatiladi. XIX asr operasi, baleti va programmali cholg'u musiqasida tatbiq etiladi.	A musical theme given to a particular idea or main character of an opera.
Lyutnya Lute	Qadimgi torli timama cholg'u, Sharqdan kelib chiqqan. Kechki o'рта asrlardan Yevropaga tarqalgan.	stringed musical instrument of ancient Arab-Iranian origin. In Europe, the spread, starting from the late Middle Ages.
Madrigal Madrigal	(it. madrigale: ona tilida qo'shiq ma'nosini bildiradi) — Uyg'onish davri	A contrapuntal song written for at least three voices, usually without accompaniment.

	qo'shig'i, italyan tilida ijro etiladi.	
Minnezinger Minnesinger	(nem. Minne — muhabbat va Singer — qo'shiqchi) — o'rta asr nemis shoir-qo'shiqchisi, muallif va ijrochi (XII—XIII asrlar).	(German Minne - Love and Singer - singer) - the medieval German poet-singer, songwriter works of chivalric poetry XII-XIII centuries.
Opera Opera	(it. opera — mehnat, ish) — teatr san'ati turi, sahna harakati musiqa va vokal bilan uyg'un (yakkaxonlar, xor) va cholg'u(orquestr), balet va pantomima rassomchilik san'ati (grim, kostyum, dekoratsiya). Birinchi operalar Italiyada XVI—XVII asrlarda yaratilgan.	A drama where the words are sung instead of spoken.
Opera-buffa Opera buffa	(it. opera buffa — komik opera) italyan hajviy operasi. XVIII asrda paydo bo'lgan. Yirik namoyondalar D. Pergolezi, D. Chimaroza, G. Donitsetti, Dj. Rossini.	(Um opera buffa - Comic opera) - Italian opera ko-micheskaY. There was in the XVIII century. on the basis of realistic comedy and folk-song tradition of home as a form of democratic opera art, contrasts opera seria. The greatest masters of opera buffa - D. Pergolesi, D. Cimarosa, Donizetti, Rossini.
Opera-seria Opera seria	(it. opera seria — jiddiy opera) — qahramonlik, mifologik mazmundagi XVII asrda paydo bo'lgan italyan operasi janri. Opera-serianing yirik namoyondalari — A. Skarlatti, G.F. Gendel, N.	(Um opera seria -. A serious opera) - a genre of Italian opera in the heroic and mythological or legendary and historical subject, emerged in the late XVII century. The greatest masters of opera scria - A. Scarlatti, GF Handel, N. Porpora,

	Porpora, B. Galuppi, N. Puchchini, X.Glyuk (reformagacha), yosh V. A. Motsart.	Galuppi B., N. Piccini, X. The Glitch (to reform), an early Mozart.
Organ Organ	(grek. organon — cholg'u) — murakkab klavishli-damli musiqiy cholg'u, XVI—XVIII asrlarda keng tarqalgan. Olti oktavada turli tembrdagi tovushlarni hosil qiladi.	(From c organon -. An instrument, a tool) - a complex keyboard-wind musical instrument, especially common in XVI- XVIII centuries. pipe system (up to several thousand), the combined registers, allows you to extract the sound of different voices in the range of six octaves.
Polifoniya Polyphony	(gren. poly va tovush) — ko'povozlikning turi, har bir ovoz va kuy mustaqil.	(C from poly and sound.) - A kind of polyphony, in which the individual tunes or melodies groups have independent significance and an independent intonation and rhythmic development.
Rapsodiya Rhapsody	(gr. rhapsodia — rapsodni kuylash, deklamatsiya) — erkin shakldagi vokal yoki cholg'u asari, turli xarakterdagi, kontrast kuylardan tuzilgan. Kuylar asosi xalqchil.	C Rhapsodia -. Rhapsode song, singing or recitation (singsong) - vocal or instrumental piece free-form, consisting of a different character, contrasting episodes. To use Rhapsody characteristic authentic folk themes.
Romantizm Romanticism	XVIII asr oxiri — XIX asr birinchi yarmida paydo bo'lgan musiqiy yo'nalish.	A period in history during the 18th and early 19th centuries where the focus shifted from the neoclassical style to an emotional, expressive, and imaginative style.
Simfonik orkestr Symphony Orchestra	orkestrning eng mukammal turi, torli-kamonli, puflama va urma cholg'ulardan iborat.	The most advanced form of the orchestra, consisting of stringed, wind and percussion instruments and participating in the performance

	XVIII asr oxirida Y. Gaydna tomonidan tashkil etilgan.	of symphonies, operas, ballets and other works written for symphony orchestra. Symphony Orchestra was formed in the late XVIII century. in creative practice Haydn .
Syuita Suite	(fr. suite — ketma-ketlik) bir nechta mustaqil asarlardan iborat, umumiy badiiy mazmun bilan bogʻlangan musiqiy asar Syuita qismlari bir-biri bilan kontrast boʻlib, tugallangan pyesalardan iborat boʻladi.	(French suite - Sequence continued) - a piece of music, which consists of several separate parts united artistic conception. Part of the suite is usually contrasted with each other, being apart from the completed plays its content and construction.
Sonata Sonata	Maxsus shakldagi musiqiy asar. Toʻrtta mavzuning har biri temp, ritm va kuy bilan ajraladi.	Music of a particular form consisting of four movements. Each of the movements differ in tempo, rhythm, and melody; but are held together by subject and style.
Uvertyura Overture	Opera yoki boshqa yirik asarga kirish.	Introduction to an opera or other large musical work.
Fortepiano Piano	(it. forte — qattiq i piano — past) klavishali-torli cholgʻular oilasining nomi. Fortepianoning ikki koʻrinishi bor: royal va pianino.	(From um forte - loud and piano - quiet) - the collective name of a family of keyboard stringed musical instruments in which the sound is produced with the help of hammers striking the strings. There are two versions of the piano - piano and piano.
Fuga fugue	(it. fuga — yugurish) — bir, ikki va bir nechta mavzularning asosiy ovozdagi imitatsiyasiga asoslangan polifonik asar. Fuga XVII asrda shakllandi va I. S. Bax ijodida takomiliga yetdi.	(Lim Fugue - jogging) - polyphonic work based on simulation carrying one, two or more consistently in all the voices. Fugue formed in the XVII century. based on her previous polyphonic forms and reached its peak in the work of JS Bach.

<p>Shpilman Spielmann</p>	<p>Germaniya davlatlaridagi o'рта asr sayyoh musiqachilari (jongler, vagant, skomoroxlar kabi). XIV asrdan — sexlarga birlashgan professional shahar musiqachilari.</p>	<p>Medieval itinerant actors in German-speaking countries (the same as jugglers, Vagant, buffoons). From the XIV century-urban professional musicians joined together in guilds.</p>
--------------------------------------	---	--

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaynkop Y. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov. – L., 1982.
2. Galatskaya V. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. – T.: 2006.
3. Ganiyeva I. Sharq mamlakatlari musiqa tarixi. – T.: 2010.
4. Golushenko I. Istoriya muziki narodov mira. – T.: 2008.
5. Kokarev Y. Istoriya muzikalnogo tvorchestva. – Oryol, 2003.
6. Levik B. Chet el musiqasi tarixi. – T.: 1986.
7. Levik B. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip. 5. – M.:1984.
8. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T. 2009.
9. Melkumova E.I. Kratkiy kurs leksiy po istorii muziki. – T.: 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

10. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017.
11. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
12. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
13. Asafiyev B. O muzike XX veka. – L.:1982.
14. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar «Muzika». – M., 1998.
15. Voprosi sovremennogo muzikoznaniY. – T.:1979.
16. Janrovo-stilisticheskiye tendensii klassicheskoy i sovremennoy muziki. – L.: 1980.
17. Muzika XX veka. Ocherki kn. 1-5. – M.: 1976 - 1986.
18. Ocherki po istorii zarubejnoj muziki XX veka. – L.: 1983.
19. Pavlishin S. Zarubejnaya muzika XX veka: Put razvitiY. Tendensii. – Kiyev, 1980.
20. Raaben L. Kamerno-instrumentalnaya muzika pervoy polovini XX veka. Strani Yevropi i Ameriki. – L.: 1986.
21. 100 baletnix libretto. L. 1977.

Internet saytlari:

22. <http://www.ziyounet.uz>
23. <http://www.kitobxon.uz>
27. <http://www.gabt.skm.uz>
28. <http://www.belcanto.ru>

Mundarija

Soʻz boshi.....	3
1. Musiqa sanʼat turi sifatida.....	5
2. Musiqa sanʼatida ifoda vositalarining oʻziga xos xususiyatlari.....	7

GʻARBIY YEVROPA KOMPOZITORLARI IJODI

3. Iogann Sebastyan Bax.....	11
4. Yozev Gaydn.....	23
5. Volgang Amadey Motsart.....	31
6. Ludvig van Betxoven.....	43
7. Gʻarbiy Yevropada romantik kompozitorlar ijodi.....	53
8. Frans Shubert.....	58
9. Friderik Shopen.....	63
10. Djuzeppe Verdi.....	73
11. Edvard Grig.....	78
12. Adolf Adan.....	82
13. Jorj Bize.....	85
14. Iogann Shtraus.....	89
15. Klod Debyussi.....	92
16. Moris Ravel.....	95
Test savollari.....	101
Glossariy	111

NODIRA ALIMDJANOVA

MUSIQA ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

Nashriyot litsenziyasi № AI 170. 23.12.2009
Nashriyot manzili: Toshkent sh. AmirTemur ko'chasi, 19 -uy.

Bosishga ruhsat etildi 12.11.2020 y. Qog'oz bichimi 60x84^{1/4}
Times garniturasida. Bosma to bog'i 7,5. Nashr hisob tabog'i 7,5.
Adadi 100 d. Ofset qog'oz. Buyurtma № 56
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etilgan.
100170, Toshkent sh. Siolkovskiy ko'chasi, 356-uy.